

Atoqli adib Mirzakalon Ismoiliy tavalludining 100 yilligiga bag'ishlanadi

XX asrdagi mashhur asarlardan biri вЂњFarg'ona tong otgunchas ѕ к romani qamoqxonada yozilgan edi. Yozuvchi kitobxonga yozgan maktubida: вЂњmen bu kitobni yoza turib qanchalar yig'laganman, qanchalar qon yutganman!.. Bilsangiz, peshanamda temir panjara, tepamda o'limgik chirog'ning o'lib bo'lgan qora nuri, ostimda zax, sovuq beton, eshigida otning kallasidek qulf!.. Qo'ying, boshqa tafsillarning qorasi o'chsin! Bu shunchaki bir kitob emas, yo'q, shaxsga sajda davrining qora kunlari ming azob, ming to'lg'oq bilan tug'ilgan bir g'arib xilqat. Ha, xilqat!.. Bu mening yig'lay-yig'lay topgan bolam! вЂњ deb tarif bergan edi. Kitobxonlarning adib hayotiga bo'lgan qiziqlislari inobatga olinib, mazkur hujjatli qissa yozildi va talabchan o'quvchilar hukmiga havola etilyapti.

Bismillahir Rohmanir Rohiyim. Robbana toqabbal minna innaka anta-s-samiu'l aliyim va tub alayna innaka anta-t-tavvabur rohiym[1].

Boqchalarda gullar so'ldi, sezmadim, O'stirganlar yetim bo'ldi, sezmadim. Ko'ngillarga qora to'ldi, sezmadim, Sezdim sening ketganiningni, ko'ngildan Abdulhamid Cho'lpon.

Qo'nma, bulbul, qo'nma, bulbul,

Mozor toshiga.

Nalar keldi, nalar keldi

Yurtim boshiga!..

Xalq qo'shig'i.

Yuragimda xo'rliqlarning alami,

So'rsam, derlar: вЂњYozmisht Qudrat qalamis ѕ к.

Nechun qalam baxtimni qaro yozdi?

Ne qildim, yo'limni g'amaro yozdi?!

Toleimdin kimga yig'lay, dod etay?

Dunyo kelib, neni ko'rdim, yod etay! Mirzakalon Ismoiliy.

Muallifdan

Muhtaram adapbiyot muhiblariga kichik bir xizmat qilish niyatida Tangri taolodan madad so'ragan holda yana qo'lga qalam olib, oq qog'oz ustiga dastlabki satrlarni bitmoqdaman. Kishining qadri hayotlik chog'idagiga nisbatan so'ng aniqroq bilinishini donolar aytib o'tganlar.

Vaqt вЂњ hakamdir. Yillar bir tarozudir go'yo. Qilingan amallar o'lchanur. Agar inson taruzu pallasida arzirli amallar qoldirgan bo'lsa, uning nomi foni y dunyoda yashayveradi. Bunday insonlarning nomini eslab yurish yoki o'chirib tashlashga banda qodir emasdir. Bu Illohnинг marhamatiga, xohish-istagiga xosdir. Bu marhamatga erishmoq uchun esa iyomon yo'lidan boriladi. Guvoh bo'laylikkim, bu marhamatga, lutfu karamga hamma ham erisha olmaydi.

Mirzakalon Ismoiliy vijdonlariga xiyonat qilmagan insonlardan biri edilar, vallohi alam! Shu boisdanmi, xalq bu adibga ko'ngil qo'ysi. Vafotlariga salkam o'n besh yil to'lsa-da, u zotning mo"tabar nomlari hanuz qalb ardog'ida. Mirzakalon Ismoiliy menga mehribon tog'a, talabchan ustoz edilar. U zot ustozlik haqqini ado etib ketdilar, Alloh rozi bo'lsin! Endi menga shogirdlik va jiyanolik burchini ado etish fursati keldi. Yaratganning madadi, Siz вЂњ azizlarning duolaringizga suyangan holda bu burchni ado qilmoqqa jur'at etyapman.

Sizlarning etiboringizga havola etilayotgan asar to'qilgan, havoyi gaplar emas. Uning asosi, poydevori вЂњ Mirzakalon

Ismoiliyning qamoqxonada tergovchi uchun maxsus yozgan, go'yo tavba uslubidagi вЂњVijdon tavbasib ѕ к degan bayonnomalaridir. Bu nomani вЂњ Vijdon tavbasib ѕ к emas, aslida вЂњ Vijdon azobib ѕ к demak durust bo'lur edi. Unda yozuvchi вЂњxalq dashmanining farzandlarib ѕ к deb nomlanmish lanat tamg'asi bilan bolalarimga zarar yetkazishmasa edib ѕ к, degan havotirda ko'kraklarini vijdon azobi o'qiga tutgan, o'zlarini o'zlarini chindan ham вЂњmillatchib ѕ к va вЂњxalq dashmanib ѕ к ekanliklarini isbotlamoqqa tirishgan edilar.

Yana bir-ikki izoh shuki, asarda Mirzakalon Ismoiliyning turli kitoblarida bayon etilgan ayrim jumlalardan ham foydalandik. Adib murakkab hayotlari davomida ko'p adolatsizliklarni ko'rdilar, do'stlarning xiyonatlariga ham guvoh bo'ldilar. Xiyonatkorlarning ayrimlarini вЂњ Vijdon tavbasib ѕ кda tilga olganlar. Xiyonatkorlarning avlodlari mazkur asarimizni o'qiguday bo'lsalar isnodga qolmasliklari uchun ularning nomlarini o'zgartirib bayon qildik. Eng muhimmi, do'stlar xiyonat qilgan bo'lsalar-da, tog'am qamoqdan chiqqanlaridan so'ng ularni kechirib, birodarliklarini davom ettirgan edilar.

Yozganlarimizni oxirgi satriga qadar toqat bilan o'qiy olsangiz, bunga o'zingiz ham guvoh bo'larsiz. Ulug' adibning hayotiga befarq emasligingiz uchun Siz вЂњ azizu mehribonlardan behad minnatdorman.

Tarix 1998 yilning Navro'z arafasi, Zulqadaning Oy to'lishgan kechasi xayrli niyat ila boshladim.

Alloh oqibatni xayrli qilg'ay, omiyn!

I

Toshkent, Darxonadagi uch xonali uy.

1986 yil, 4 fevral, seshanba, soat 15.15.

Qish o'zining avvalgi hovuridan birmuncha tushib, bahor siqig'i bilan chekina boshlagan bo'lsa ham, hanuz o'z yo'llarida alam zahrini sochib boradi. Uning achchiq izg'irinlari iliq bahor yellariga bazan hamla qiladi, tamom qo'zg'alib, kuchga kira boshlagan dilkash hayotni bo'g'moqchi bo'ladi. Lekin borliqni uyg'otgan bahor o'z o'jarligini qo'ymaydi.

Bahor o'jar.

Bahor nafasida huruj qilayotgan xastalik o'jar.

Bemor undanda o'jar...

Tabiatan serg'ayrat bo'lgan, past bo'yli, jikkakdan kelgan bu odamning xastalik oldida bo'sh kelishini yaqinlaridan hech bir kishi kutmagan edi. Garchi yoshi saksonni qoralayotgan bo'lsa-da, shaxdam va tetik yurishi go'yo uning kamida yuz yil umr ko'rishidan darak berardi.

Bir oy avval shifoxonadagilar вЂњuzog'i bilan ikki kunlik umri qoldi, istasangiz olib ketinglarib ѕ к, deyishgan edi. Unda kelgan ketganni tanirdi, uch kundan beri esa hushsiz. Eti suyagiga yopishib, xuddi yosh bolaga o'xshab qolgan.

Atrofdagilar uni hushsiz deb o'ylashadi, sekin-sekin gaplashishadi. U esa hamma narsani eshitib, anglab yotibdi. Faqat bosh og'rig'i xuruj qilganda gaplarga qulq solgisi kelmay qoladi. Mehrionlarining bir-bir kirib yuzlarini silashlari, ayniqsa peshonasini uqalashlari xush yoqadi, og'riqlari sal ariganday bo'ladi. Peshonasiga uzoq vaqt qo'yilib turuvchi kaftni boshqalaridan ajrata oladi. Bu kaftning tafti miyani kemirayotgan og'riqni bosa oladi.

-Dadajon, bugun biz bilan birga uyg'a ketasizmi?

Qulog'iga jaranglab urilgan bu gapdan seskanib ketdi.

Qaerdan keldi bu ovoz? Uni kim chorlayapti?

Uning bezovtalanganini atrofdagilar sezishdi, lekin og'riqnning tasiri deb o'ylab, yuzlarini silashdi. U esa alanglab, ovoz egasini qidirdi. Bemor o'zicha atrofga javdirab qarayotganday bo'lardi. Aslida esa qorachiqlardan nur qochgan, kerilgan burun kataklaridan esa notejis nafas chiqardi.

-Dadajon, uyg'a ketmaymizmi?

Yana javdiradi va... ko'rdi: ro'parasida yengli oq ko'yak kiyib olgan Oyzuhra jilmayib turibdi. Urushdan qaytganida shu ko'ylagida, shunday kulgu bilan kutib olgan edi dilbandi. Biram shirin kulardi... biram shirin kulardi bu jon qizi! Lekin u hozir qaerdan keldi? Axir u vafot etgan edi-ku? Qamoqdan qaytganida Oyzuhrasining o'llimini eshitib **в ЬњBu** ko'rgulikni ko'rgunimcha qamoqda o'lib ketganim ming marta yaxshi edib **Тќ**, degan edi-ku? So'ng Minor qabristoniga borgan, faryod urib, ko'kragini zax yerga berib yotib olgan edi-ku? To't yillik urush vahshatlariga chidagan, qamoq adolatsizliklari bukolmagan qaddini shu ayriliq bukib qo'ygan edi-ku? Qamoqqa olishlaridan oldin, 1950 yilning yoz chillasida bu qabristonga otasi Ismoilxo'jani qo'ygan edi. Oyzuhrasini bobosi yoniga qo'yibdilar...

-Dadajon, ketaylik...

Qiziq... ro'parasidagi oq ko'yakli Oyzuhra gapiroyotgani yo'q, faqat jilmayib turibdi. Ovoz ham uniki emas. Uch yoshli qizaloqniki... Ha... Oyzuhra emas, Malikaxon chaqiryapti.

... Ayasi bilan qamoqxonaga borgan edi o'shanda.

Tan azoblari bilan muddaosiga yeta olmagan tergovchi ruh azobiga o'tgandi. O'zicha marhamat qilib, yaqinlari bilan uchrashuvga ruxsat bergandi. U kun aniq esida: ellik ikkinchi yilning o'n oltinchi avgust kuni edi. Bir necha daqiqalik diydor ko'rishuviga bir nafasda o'tgandek bo'ldi. Ayniqsa qizchasi otasining diydoriga to'yamadi. Malikaxon dadasi bilan ko'rishuvga kelganda u bilan birga qaytishni umid qilgandi. Uning jajji yuragi shu baxtga erishishni istardi. Soqchi ayriliq oni yetib kelganini bildirgach, qizcha:

-Dadajon, bugun biz bilan birga uyg'a ketasizmi?-deb so'radi.

Qo'lansa hidli va zax qamoq xonasiga qaytish uchun o'rnidan turgan mahbus bu savolni eshitish-yu qadam bosishga holi qolmadi. Javob qaytarishga qurbi yetmadni.

Yurak-yuragini jizzillatgan bu jonajon ovozni **в Т“** qushchasi sayrashini eshitgani hamon yalt etib qizchasingning aqlli ko'zlariga tikildi; tikildi-yu uch yoshga **to'lgan** kunida o'z quvonchini otasi bilan baham ko'rmoqqa kelgan masuma ko'zlarida hasrat soyasini ko'rdi. Yuragi shuv etib ketdi. Qizcha onasidan otasi qo'liga o'tmoq, uning qo'llarida uyg'a ketmoqni istardi. Dilbandidan ko'zlarini uzolmayotgan ota, unga uzoq qarab turdi. Nihoyat, ota mehri va ardog'ini ko'rmangan go'dakning ona qo'llarida tolpinib aytgan so'zlariga:

-Sal keyinroq boraman, jon qizim,-deb javob berdi.

Shu on qizginasining ingichka qoshlari birdan chimirildi, umid to'la charos ko'zlariga g'am to'ldi, xayr adosila silkib turgan qo'lchasi tortib oldi.

Qizginasi ketdi! Ammo xafa bo'lib ketdi. Kim xafa qildi hali ketmon qanot bo'lmasan bu qushchani? Kim uni ota mehri va ardog'idan mahrum qildi? Uning o'zi singari kichkina dugonalari otalarining bo'yinlariga osilib, ota quchog'i va qo'llarida yayrab-yashnar ekan, uning jo'jasini kim bu baxtdan judo qildi? Axir kim uning shirin hayotini zahar qildi?

Bu savollarga aniq javoblar mavjud, ammo til izhor etmoqqa ojiz, **в ЬњHayhot**, men, uning o'z otasi, mening o'zim!**в Тќ** deb sassiz nara tortmoqdan o'zga chorasi yo'q edi.

Najot bormi edi o'shanda? Bor edi. Najot yo'lining nomi xiyonat edi. Bu yo'lni eslashi hamon tiriklik bilan xayrlashish arafasida turgan zaif vujudiga titroq kirdi. Atrofidagilar buni judolikdan nishona deb bilib, ko'zlariga yosh oldilar.

II

Qamoqxona. 1952 yil, 16 avgust.

Uni qattiq o'ylatgan, hayajonga solgan o'sha kuni harkim o'ziga yarashgan yo'l bilan ketdi: bolalari uyiga, u esa turmaga! Ammo Malikaxon istehzo va kinoya bilan berilgandek tuyulgan o'sha nishtarli savoli bilan ko'z o'ngidan sira ketmadi.

в ЬњQorong'i zulmat va qo'lansa hidlar ichida shunchalar qolib ketganining yetar! Bas!!**в Тќ**

Bu ovoz qamoqxonaning tosh devorlarini jaranglatib yubordi. Bu iblis davati hibsga olingen kunidan beri uni taqib etadi.

Tergovchi istagan yo'lga tushib yurishini istaydi. Tergovchining istagi **в Т“** millatchi ekanini tan olish, millatchi to'dalarni fosh etish. Millatchi ekanini tan olishi murakkab masala emas. **в ЬњHamonki**, millatchi ekansan, demak, atrofingdag'i maslakdoshlarining kim, ayt ularni**Тќ**, deb talab qiladilar. So'ng hufyalari tomonidan taqdim etilgan nomlarni sanaydilar: Falonchi, Pismadonchi... ularni tuhmat chodiriga o'rab berishi kerak...

Lekin kaltaklar zarbidan mo'mataloq bo'lib ketgan bu tanada hali o'lmasan vijdon sadosi ham mavjud edi:

в ЬњQilmagan jinoyatlaringga iqror bo'lsang, do'stlaring boshiga tuhmat jandasini ilsang o'zingga ham, bolalaringga ham jabr qilasan, xonavayron bo'lasan, to qiyomatga qadar isnoddan qutula olmaydi avlodning!**в Тќ**

Irodasi qanchalar mustahkam bo'lmasin, vujudi naqadar azoblarga bardoshli bo'lmasin baribir haqiqatni aytishga jur'at qila olmas edi. Bu qo'rqoqlikdan emasdi, haqiqatni aytgan taqdirda ham muddaoga yeta olmasligiga aminlikda edi.

Uning qarshisida ikki yo'l mavjud, shu ikki yo'lidan birini tanlashga majbur: yo bor bo'lib, sharaflarga erishishi yo yo'q bo'lib, lanatlarga ko'milishi kerak! Yorqin erta sari intilib, bor bo'lib qolsinmi yo qora kecha sari yuz o'girib, yo'q bo'lib ketsinmi?

Ajabo, qaysi biri sharaflidi?

Kunduz bilan kechani, oq bilan qorani farqlaganiga ko'p yillar bo'lgan. Urushdan avval qamalganidayoq ko'zi ochilgandi.

Haqiqatni bo'g'ib turgan gazanda ro'parasida ojiz ekaniga ham aqli yetgandi o'shandi. Qamalmasidan ilgari, gazandaga tig' sanchmoq qasida qo'liga nayza olgan damlarda millatni ezayotganlarni shafqatsiz yanchib, ezib tashlashni, qorong'i zulmat va qo'lansa hidlar saltanatidan tashqariga otilib chiqishni, munavvar zamonga yetishni orzu qilgan edi.

Orzu o'sha yillar bo'g'ilgan bo'lса-da, vijdon kemirilishlardan, yemirilishlardan qutilishni, sof havoni hanuzga qadar istaydi. U o'zini hamisha bulg'ab yotgan kirlardan, bo'g'ib yotgan og'ir yuklardan najot istaydi. Yashash qobiliyatini yo'qotmagan, o'Imagan vijdonning haqqoniy ovozini tinglashni talab qiladi ko'ngli. Dam badam uyg'onib, xiyonatga davat etuvchi kuchni eng mayda, ko'zga ko'rinnas tomirlarigacha bag'ridan yulib olib, o'z qo'llari bilan bo'g'ib, yanchib tashlashni, tishlari bilan g'ajib o'tga tashlashni xohlaydi.

Nimqorong'u dahlizdan tergovga borib-kelaveridan o'ttiz ikki qadam bosgach, yerto'la tomon burilishini, so'ng o'n sakiz zinani bosib pastga tushishini biladi. Tergovchining zug'umlaridan xayolini chalg'itish uchun qadamni ham, zinani ham sanayverardi. Bo'lmasa buning unga nima zarurati bor ekan? Hozir esa sanamadi... dahliz g'oyatda uzun tuyuldi. Yerto'лага emas, lahadga tushayotganday vujudi muzladi. So'ng... qamoqxonaning temir eshigi avvaliga yurakni ezadigan darajada g'ijirladi, ostona hatlab ichkariga o'tgach, shiddan bilan sharaqlab yopildi. Uning nazarida temir eshik sharaqlamadi, balki mog'or hidi anqib turgan bu zax bino tars ikkiga yorilib, ajralib, keyin shu zahotyoq uni yutib yuborganday bo'lди. Uzunasiga uch qadam, eni ikki qadam keladigan nimqorong'u xonada yolg'iz qolgach,sovqotayotganday badanida titroq turdi. Aslida bu sovuq tasiridagi tan titrog'i emas, balki ruh titrog'i edi.

U ichkariga ikki qadam tashlaganicha qotib turaverdi. Ko'z oldini qora parda qoplagan, nazarida oyoqlaridan jon butkul chiqib ketganday edi. U o'zi bilmagan holda cho'ka boshladi. Avvaliga cho'nqaydi, so'ng cho'kkaladi. Tizzalari muzlaganday bo'lди. Titroq kuchaydi. Keyin...

Qorong'i xona birdan yorishib ketdi. Shunday yorishdiki, hatto ko'zlariga hech nima ko'rinnmay qoldi. Nazarida, qamoqxona tomini ikki yonga surib ko'ringan quyoshga qarab ko'zi qamashganday edi. Ajab, necha oylardan beri quyosh nurini ko'rmay, sog'ingan edi, endi esa qaray olmayapti... Yo'q, bu quyoshning jonbahsh nurlari emas ekan. Dam o'tmay xona qizara boshladi. Birpasda qondek to'q qizil tusga kirdi-yu chayqala ketdi. Qamoqxona bino emas, balki ulkan qon dengizida qalqib turgan kema edi uning xayolida. Mayjlar bora-bora po'rtanaga aylandi. Tiz cho'kkanicha qaltirayotgan bu odam o'roq solingen bug'doy poyasiday shilt etib yonga quladi. Chakkasi betonga tegib, ko'z oldini qoplab turgan qip-qizil qon dengizi endi qop-qora zimiston chohga aylandi. U zimiston chohga go'yo uchib tushdi. Qaltiroqlari ham qolganday, badandagi zirqiroq og'riq ham ko'tarilganday edi. U o'zini go'yo yengil his qilar, qushday uchardi.

Beliga enli kamar bog'lagan nazoratchi uning jimiб qolganidan havotirlanib, eshik tuynukchasini ochib qaradi.

-Ie, Ismoiliyning pachag'i chiqibdi-ku? Qiziq, bugun tepki yemadi shekilli? ВЂ“dedi u sherigiga o'girilib qarab.

Rangpar sherigi ham qaradi-da:

-O'lmaydi, yotaversin. Yozuvchi zotining joni qattiq bo'ladi. Urushdan oldin bunaqalarni ko'p ko'rganman. Besh-oltitasini otishga o'zim olib borganman. Cho'lpon deganlari bo'lardi, o'z qollarim bilan uchta o'jni ko'kragiga qadab qo'ysam ham o'lmaydi-ya, bachchag'ar! Komandirim вЂњmoljallab otolmagansanвЂќ, deb so'kib qoldi. To'rtinchi o'jni peshonasiga qadadim. O'lmas ekan-a! Ko'zlarini yumishga ham ulgurmay qoldi. Ko'zi ochiqligicha ustiga tuproq tortvordik.

-Cho'lpon dedingizmi? Bunaqalar ismni ham topib qo'yadi-ya? Buniki Mirzakalonmi?

-Ha, mirzalarning kattakoni degani. O'zi kichkinagina bo'lса ham davosi kattaginaga o'xshaydi.

-Otasi shunaqa ism qo'yanmikin yo o'zi o'ylab topganmikin?

-Sen bilan menga buning nima farqi bor. Boshingni og'ritma. Biz buyruq bajaradigan odammiz. вЂњHayda!вЂќ desalar haydaymiz, вЂњo'ldir!вЂќ desalar jonini sug'urib kaftiga tutqazib qo'yamiz.

Shunday deganlaricha nari ketdilar. Qadam tovushlari aks-sado taratib uzoqlashdi. Nazoratchilar eshik tagida gaplashishgan bo'lса-da, ularning gaplari uzoq-uzoqlardan kelganday tuyuldi. вЂњO'ldir!вЂќ deb buyruq berilsa bajonidil bajaruvchi nazoratchining ovozi unga yaxshi tanish. Ehtimol, yuzlarcha ovozlar ichidan ham ajratib olar. Qaysi bir kuni shu nazoratchi eshik darichasini qiyalab ochib: вЂњIsmoiliy, zap mehribon singling bor ekan-da, qo'y go'shti, qo'y yog'idan senga plov damlab kelibdi. Hidi nafsimizni qitiqlab, o'zimiz paqqos tushira qoldik. Bizni ochko'z, deb orqamizdan so'kib yurma. Senga rahmimiz kelganidan shunday qildik. Bu qamoqda plovga to'yan odam jonidan to'yan hisoblanadi, ko'p yashamaydi, uyingga xat-pat chiqarsang, singlingga rahmat aytib qo'yibвЂќ, degan edi. O'shanda masuma singlisini ko'z oldiga keltirib, вЂњSanobar, Sanovbarim...вЂќ deganicha yig'lab yuborgandi. Yetimlik xorligidan qochib, Toshkentga kelganidan beri kichkinagina, nozikkina jussasiga tushgan ne-ne turmush azoblari yukini ortgan singilisini ko'rgisi kelgandi. вЂњPalov pishirib kelibdi... Tunlari bilan do'ppi tikib ortirganiga harajat qilib, besh bolasining rizqini qiyib, menga ilindimi?вЂќ deb ko'ngli o'ksigandi.

Qadam tovushlari uzoqlashib tindi. Endi jim-jitlik dahshati uni o'z chodiriga o'rab, dahshatga soldi. Urushda ekanida, ayniqsa tong chog'i chor-atrofni sukut qoplardi. Hatto qushlar chug'uri ham eshitilmasdi. Bu sukonat hademay jang boshlanajagi, ariqlarda inson qoni oqajagining darakchisi edi. U qancha yotganini bilmaydi. Jim-jitlikning naqadar dahshat ekani unga malum bo'lса-da, bu safar qo'rqli. Bir vaqt singlisining ovozini eshitdi:

-Aka, tura qoling, shamollab qolasiz. Bugun Malikaxonning tug'ilgan kuni-ku? Hammamiz to'planib, sizni kutyapmiz. Kenjamga opalari yangi sher yodlatishibdi. вЂњTog'amga o'qib beramanвЂќ, deb anchadan beri intiq kutyapti...

U seskanib, boshini ko'tardi. Quloq tutdi вЂ“ singlisi boshqa gapirmadi. U telba odam singari atrofga alangladi: to'g'rida temir karavot qorayib turibdi. Tepada xira chiroq. Bir tomonda temir panjarali darcha. Bu xonaga dastlab kirganida shu darcha unga umid darvozasi kabi tuyulgan edi. Lekin quyoshga teskari bo'lgani uchun bu darchadan oftob nuri tushmadi, umidi esa so'ndi. U qaddini rostladi-da, muzlab qolayotgan o'ng qo'lini, o'ng biqinini siladi. Majolsiz oyoqlarini bir-bir sudrab bosib karavotga borib o'tirdi. Bu qamoqxona ashyolari ro'yxatida вЂњko'rpaвЂќ deb sharaflangan bir uvadani olib o'ranti. Badaniga sal issiqlik yugurdi. Sovuq chekingach, endi ochlik huruj qildi.

Darchadan tushib turgan zaif yorug'lik so'nib, shaharning shom qorong'uligiga cho'mganidan ogoh etdi. Tirikchilik tashvishlaridan tingan shahar ahli orom istagida, ko'p emas, ozginagina baxt ilinjida uy-uylarida o'tiribdi. Birovining dasturxonni atrofidagi qatorda xato yo'q, biroq, bu tun kimnidir qamoqqa olib ketishlari mumkinligi havotiri kezib yuradi. Allaqancha xonardonlar qamoqxonalardagi yaqinlari tashvishida havotirli nafas oladilar.

Uning xonadoni ham shunday...

Salkam ikki yildan beri ahvol shu...

Farzandlarini sog'inadi, hatto Darxonidagi bog'ida mevalari g'arq pishgan daraxtlarni ham sog'inadi. Daraxtlarning aksarini dadasi ekkan edi. Daraxtlarning barglariga qarasa, har birida dasasining chehrasi ko'ringanday bo'laveradi. Urushda ekanida ham shunday edi. Lekin undagi sog'inch tuyg'usi o'zgacha edi. Undan dushman o'qidan omon qolib, uyiga eson-omon qaytishiga umid bor edi. Urushdan tirik qaytib, uyida bir soatgina bo'lса-da, tinch yashashni orzu qilardi. Bunda esa...

Necha yildir zor-afg'on birla o'tmoqda tunim,
Yetmayin komimga aslo tun qora bo'ldi kunim.
Ming jafo birlan ezib qalbimni, to'kdilar xunim,
Ne qora davron ekan bu, tinglamas hech kim unim!
Xoru zorlik topdimu, xo'rlik adosin topmadim...

Kechagina xayolida tug'ilib, xotirasiga muhrlangan, qog'ozga tushishini yana yillab kutadigan bu satrlar lablaridan beihtiyor uchdi.
Hibsga olingunga qadar bir roman yozishni boshlash orzusida edi. O'zini qamoqqa oldilaru niyatini zanjirband etolmadilar.
Qo'lida qog'oz-qalam bo'lgan uchun roman satrлari xotirasiga yozilardi...

Kechki taomni berishmadi. Bermaganlari ham maqlu bo'ldi. Alhol, bir tishlam taom tomog'idan o'tmaydi. Tahmini bo'yicha tun yarimlaganda so'roqqa chaqirildi. Tergovchi xonasiga kirishi bilan devordagi osma soatga qaradi: adashmabdi вЂ“ tun yarmidan og'ibdi.

-Qizingni ko'rdingmi, juda shirin ekan, Germaniyada tug'ilganmi?-dedi qoshu kiprigigacha malla tergovchi.

Qizchaning Toshkentda tug'ilganini u yaxshi bilardi. Gapni Germaniya tomon burishi esa bejiz emas, shu bahonada bir qarmoq tashlab, shu paytga qadar nomalum bo'lgan qandaydir malumotni ilintirishga umidvor edi. Necha oylar davomida uning bu qiliga tushunib qolgan mahbus nayrangni anglamaganday soddalik bilan:

-Toshkentda tug'ilgan,-deb qo'ydi.

-Ha-ya, men adashtiribman. Germaniyadagi qizing eseschining tashlab ketgan xotinidan tug'ilganmidi? Ismi nima edi? Erikamidi yo Monikamidi?

-Germaniyada xotinim yo'q edi. G'alabadan keyin Berlinga oilamni olib borib yashaganman.

-Buni bilaman. Lekin... ha, mayli, ko'ngil degani yomon-da! O'shanda Berlinda Mariyka degan ofatijon qo'shiqchi bo'lardi.

Qizingning ismini o'shaning sharafiga qo'yanmisan? Gazandalarning san'atiga shunchalik ishqibozmiding?

-Qizimning ismi Mariyka emas, Malikaxon. Berlin qaerdaligini bilmaydiganlar ham qizlariga shunaqa chiroyli ism qo'yadilar.

-Menga aql o'rgatyapsanmi? Podshoning xotinini вЂњmalikab вЂќ deyishganini bilmaydigan ahmoqqa o'xshaymanmi? Sen esa... podsholik zamonini qo'msayotganingni tan olib qo'ya qol.

Yangi ayb sirtmog'i tasodifan yasaldimi yo oldindan tayyorlab qo'yilganmidi, anglay olmadi. Bu kabi qaltis savollarga javob bermaslik rizolik alomati sifatida hujjatlarda qayd etilishini bilgani uchun ham jim turolmadi:

-Menda hech qachon bunday fikr bo'lмаган.

-Fikr bo'lmasligi mumkin, lekin istak va xohish mavjudligi aniq. Qo'qon muxtoriyati uchun jon berishga tayyor Abdulhamid Cho'lpon ustozing emasmi? Nahot, g'oyalarini sen bilan baham ko'rmagan bo'lsa?

-Biz bu haqda gaplashmaganmiz. Gaplashganimizda ham men xonlikni tiklashga qarshi fikr aytgan bo'lardim. Yetimlik jabrini totgan odam podsholik nonini qo'msay olmaydi hech qachon.

-Yetimxonada o'sganing seni bu ishda malum balolardan saqlab qolishi mumkin. Sen ayyorsan, Ismoilii, buni yaxshi bilasan, har safar menga ro'para bo'lganingda buni takidlaysan. To'g'ri, senga вЂњboyning bolasib вЂќ, degan aybni qo'ya olmaymiz. Lekin... amakingning Ukrainaga quloq qilinganini ham etibordan soqit qilmaymiz. Sening yetimxonada tarbiya topganing tarozuning bir pallasiga, bu dalil esa ikkinchi pallasiga qo'yilsa, qay tomoni bosib ketadi, bilmaysanmi? Yetimxonada o'sgan bo'lsang, yetimlikning achchiq qismati senga malum bo'lsa, nima uchun farzandlaringni bu baloga o'zing ro'para qilyapsan? Ertami-indinmi xotining ham qamalsa, bolalaring qaerda sarg'ayishadi?

Qismatida shunday azob bo'lishi mumkinligini ko'ngli sezayotgandi. Ammo xotinining siyosat u yoqda tursin, adabiy jarayon ishlariga ham farqsizligi, hech bir ishlarga, yig'lnarga aralashmasligi uning ko'nglini hotirjam qilib turardi. Tergovchingiz hozirgi gapi qalbini tilib-tilib tashlaganday bo'ldi. Aybsiz va mushtipar bir ayolni tuhmat zanjiriga o'rab tashlash bular uchun g'oyat oson ish ekanini bilmaganida bu tahdidga ahamiyat bermasa bo'lardi. вЂњXotiningni qamashimiz mumkin вЂќ, dedimi, demak, qaytmaydi bu razillikdan. Ahdida turib Zuhrahonini qamagan taqdirda bolalari ko'chada qolmaydi, yetimxonada ham sarg'aymaydi. Sanobari o'zining besh bolasi qatoriga olti jiyanini qo'shib, o'zi yemasa ham yediradi ularga, kiymasa ham kiydiradi. Bu jihatdan uning ko'ngli to'q. Ammo buni tilga ko'chira olmaydi. Agar singlisidan umidvor ekanini bu malla tergovchi sezib qolsa mushtipar Sanobarning payiga ham tushishi hech gap emas.

Uning o'ylanib qolganini ko'rgan tergovchi buni yaxshilikka yo'yib, endi yumshoqroq ohangga ko'chdi:

-Ismoilii, sen boshqalarga o'xshagan johil emassan. Tolstoyni tarjima qilgan odamsan. Tolstoyni bilgan odamning dunyoqarashi boy bo'ladi. Sen o'zingni qiynama. Men sezib turibman, haqiqatlarни anglaging kelyapti-ku, lekin yuragingda kulcha bo'lib yotgan millatchilik gazandasini o'z qora gavdasi bilan to'sqinlik qilib ongingni xiralashtiryapti. Dushman tegirmoniga suv quyayotganining sezmayapsan. O'zbekistonni sevishingni aytapsan. Xo'p, men bu tuyg'ularingga ishonay, lekin dollar Amerikasining ityalog'i Vali Qayumxonni unutolmasligingni ham bilaman. Agar unga muhabbatning bo'lganida suratini Berlindan olib kelib, uyingda saqlamas eding. Kecha Gitlerning yalog'idan yuvindi ichgan odam bugun Trumenga yaldoqlanib, senga qanday ozodlik berishi mumkin? Eronga yoki Hindistonga o'xshagan xarobazorga aylantiradi, boshqacha bo'lishi mumkin emas!

Bunga o'xshagan gaplarga uning toqati yo'q edi. Shu bois egik boshini ko'tarib, xazin ovozda:

-Nima qilishim kerak?-deb so'radi.

-Bu savolni birinchi uchrashuvimizda so'rashing kerak edi. Haqiqatni anglashing uchun juda uzun kunlarni sarfladim. Agar astoydil so'rayotgan bo'lsang aytaman: kunduz bilan kechani, oq bilan qorani farq qilish payting keldi. Yo millatchilik gazandasini ardoqlab sharafsiz kurashda yo'q bo'lib ketasan yo bo'lmasa u gazandani o'zingda va o'zingdan tashqarida shafqatsiz yanchib, ezib tashlaysanu ozodlikka chiqasan. Bolalaring bag'rige borasan.

Ozodlik havosi... Ko'ksida hamisha quyosh charaqlab turgan yorug' dunyoga, chaman gullar atri Burkab turgan hayotbahsh sarin sabogha chiqish вЂ“ yangidan tug'ilish demak! Bor bo'lib qolish demak! Kim istamaydi bu saodatni?

Lekin bu saodat nimaning evaziga nasib etarkin?..

-Qaroring qat'imi?

U hech qanday qaror qabul qilmagan, vada ham bermagan edi. Tergovchi nimani nazarda tutyapti? вЂњHa, men millatchiman! Ha, men xalq dushmaniman! вЂќ deb yozib bersa kifoyami? Shu fikr og'ushida bosh silkib, tasdiq ishorasini qildi.

-Ismoilii, bir narsani tushun: yigirma besh yillik ozodligingni o'zing toptamoqchi bo'lyapsan. Agar buni anglab yetgan bo'lsang, tamom, millatchilik g'oyalarining bilan hatto bir lahma ham ko'rishmaydigan dushman bo'lishing kerak. Sening bugungi ahding, qaroring o'zgarmas ahd, o'zgarmas qaror вЂ“ qat'iy qaror bo'lishi shart! Olti bolangning nomini tilga olib qasam ichishing kerak.

Qasam ichish... Yana olti bolani o'rtaga qo'yib-a?! Qanday qasam bu? Qaysi do'stlarimga xiyonat qilishim kerak bo'ladi?

-Nima deyishim kerak?-deb so'radi xasta ovozda.

-Demaysan, yozib berasan. Gaplarimni diqqat bilan eshitib xonangga qaytasan-da, ertalabga qadar yozib, menga topshirasan. Kelishdikmi?

U yana ovoz chiqarmay tasdiq ishorasini qildi. Tergovchi ukki ko'zlarini unga tikkanicha dona-dona qilib gapira boshladi:

-Jonajon Vatanim oldida, shonli sovet xalqim oldida, gunohsiz bolalarim oldida qilgan o'z jinoyatlarimni, shuningdek, boshqalarning menga malum bo'lgan jinoyatlarini katta-kichikligiga qaramay, oqizmay-tomizmay, zarracha ham qoldirmay, bir-bir aytib beraman. Men chin qalbimdan istaymanki, meni tog' vaznila bosib yotgan jinoyatrim yelkamdan qulasin, qaddim rostlansin, millatchilik kabi eng qabih marazdan vujudim soflansin, toki umrimning qolganini sotsialistik Vatanimga, sovet xalqimga oxirigacha sadoqat va muhabbat bilan quvona-quvona xizmat etishga bag'ishlay! Shuning uchun men sizni, Aleksandr Aleksandrovich, siz orqali Davlat havfsizlik organlarini ishontirib aytamanki, badanda paydo bo'lgan rakni ko'ringan yerida kesib tashlash bilan shifolash mumkin bo'lganidek, lanati millatchilik gazandasidan ham dastavval shu yerda, Davlat havfsizligi organida, barcha jinoyatarga iqror bo'lish, barcha savollarga to'g'ri va asosli javob berish bilan, millatchilikka qarshi g'azabli va amaliy kurash ochish bilan qutilish mumkin. Men shunday qilajakman!

Tergovchi boshqalarga ham shunday qasamyod yozdirganmidi, har holda gaplarida tutilmadi. Boshini egganicha tinglayotgan mahbusdan ko'zini olmay undan sado kutdi.

Mirzakalon hozir go'yo boshqa olamga ko'chgan edi. Tergovchi sharmandali qasamyod matnini aytish bilan go'yo uni isnod botqog'iga tashlab, bo'g'a boshlagan edi. ВЂњНабЂќ deyishga ham, ВЂњyo'qЂќ deyishga ham qurbi yetmay qolgandi.

-Sen istedodli yozuvchisan. Qolgan-qutganini o'zingdan qo'sh. Shunday yozginki, mening rahbarlarim ham qoyil qolishsin. Shunday deb qog'oz-qalam uzatgach, nazoratchimi chaqirdi.

Qanday yozsin buni? Ko'z yoshlарini to'kib yozsinmi yo qon yoshlарinimi?

Ongi o'jarmi, qalbi o'jarmi? Yoki ularga bo'yusunishi lozim bo'lgan qo'li o'jarmi?

Vaqt o'tyapti. Tongda qasamyod matnini tergovchiga topshirishi, so'ng shu ahdga ko'ra xiyonatini boshlashi kerak. Bu balki unga berilgan so'nggi imtiyozdir? Ertalabga qadar qasamyodini yozib bermasa, peshinga qolmay xotinini hibsga olarlar?..

Temir karavotga, uvada ko'rpa ustiga emas, zax betonga bag'rini berib yetib oldi.

Bir mahal ongini xayrli fikr yoritib o'tdi-yu, qaddini ko'tardi. ВЂњQasamyodni emas, boshimdan o'tganlarni yozaman. Bu yerlarda o'lib ketsam, qachonlardir avlodlarimdan biri topib o'qiydi, mening azoblarimdan xabar topadibЂќ, deb o'yldi.

Oh, u yetimlik...

Bu qarori barcha o'jarliklarini chekintirdi. Qasamyod yozishi lozim bo'lgan qog'ozda dastlabki satrlar paydo bo'ldi:

ВЂњO'sh. Yetimxon. Es-es bilishmcha, onadan uch yo to'rt yoshimda yetimcha qoldim. Onam qashshoqlik azobiga va rahmsiz er zulmiga chidash bermay, yosh o'lib ketdi. Men, xolamlarning aytishlariga ko'ra, O'shda tug'ilgan ekanman. Otam O'shga yaqin bo'lgan Buloqboshi qishlog'ida dehqonchilik qilar edilar. O'n bir yoshimga qadar o'gay ona va mehrsiz ota tepkisini yeb o'sdim va yigirmanchi yilda yuz-qo'llarim kir, ust-boshim yirtiq, o'zim xarob va bitliq holda uydan qochib, O'shga keldim-da, yetimxonaga kirib oldim...ВЂќ

ВЂњRahmsiz erвЂќ, вЂњmehrsiz otавЂќ so'zlarini yozayotganida qo'llari bir titrab oldi. To'g'ri, rahmatli otasida berahmlik illati mavjud edi. Ammo har na qilsa ham Ismoilxo'ja otasi edi. Hazrat Navoiyning ВЂњMunshaotвЂќidagi bir to'rtlik yodida qolgan edi:

Atodin xato kelsa ko'rma xato,

Savob bil xato qilsa dog'i ato.

Atoning xatosini bilgil savob,

Seni yuz balodin qutqarg'ay Xudo...

Bu hikmatni hamisha dildida saqladi. Otadan ko'rgan zulmi uchun hech qachon malomat qilmadi. Otasining go'ri sovumasdan turib u qora kunlarni eslashi ichini yondirdi. Ammo na iloj, ukasi qulq qilingan odamni yaxshilik bilan tilga olishi ularga yana bir yangi ayb sirtmog'i yasashga bahona bo'luvi mumkin edi. Aslida uydan qochishiga faqatgina otasining berahmligi sabab bo'limgandi. Asosiy maqsad ВЂњ o'qish, ilm olish edi. Agar otasining kaltaklaridan bezib Buloqboshidan O'shga qochib borsa, xolalari uyidan panoh topib yashayvergan bo'lardi. Singlisini ham olib kelardi. Lekin bu yerda yashab bilim olishi mushkulroq edi...

Nimqorong'i qamoqxonada titroq qo'llari bilan qalamni mahkam ushlaganicha shularni o'ylab yurak-yurakdan Xudoga yolborib tavba qildi. Otasining ruhidan ham uzr so'radi-da davom etdi:

ВЂњ Yetimxonada meni darhol cho'miltirdilar, egnimga toza ko'yak, oyoqlarimga men umrimda ko'rmagan chirolyi botinka berdilar. Men endi o'gay onaning burash va qarg'ishlaridan, qashshoq va xasis otaning bir turtib bir burda non berishlaridan qutilib, derazalari katta, yorug', issiq va toza uyda, o'zim kabi kichkina va baxtiyor bolalar qatorida, yayrab-yashnab, yangicha hayot kechira boshladim. Men yosh va savodsiz edim. O'qish-yozishni shu yerda, yetimxonada o'rgandim. U vaqt shaharda Sovet hokimiyati mavjud bo'lsa-da, hali u yosh, kuchsiz edi. Tevarak-atrofda qaynashgan bosmachilar tez-tez shaharga bostirib kirishar, sovet xodimlarini, yangilik tarafdarlarini tutib o'ladirishar edilar...ВЂќ

U kitoblar, gazet-jurnallarda yozilaverib odat bo'lib qolgan gaplarni qog'ozga beixтиyor tushira boshlagan edi. Millat ozodligi uchun jon fido qilgan o'g'lолнarni ВЂњbosmachивЂќ deb atash naqadaradolatsiz ekanini qamoqqa tushmasidan avval ham yaxshi bilardi. Biron-bir maqolasida o'sha damlar voqealari tilga olinishi shart bo'lsa, bu sharmandali atamani yozishdan o'zini tiyishga harakat qilardi. Hozir esa... sharoit boshqa. Bu satrlar necha yillardan so'ng avlodlar nazariga tushsa, ahvolni his qilib tushunishar, aybini kechirishar. Avlodlar kechirsa, Xudo ham kechiradi... Shu ilinj unga dalda berdi.

Aslida esa... hozirgina yozgan vahshiyliklarga o'zi guvoh bo'limgan. Guvoh bo'lgani voqeа o'zgacha, uni yozmoq lunjini shishirib chaqmoqqa shay bo'lib turgan ilonga tayyor yemish bo'lish bilan barobar edi.

Yetimxonalariga kirib kelgan odamni el orasida ВЂњAmiralmuslimin Muhammad Amin BekвЂќ deb ardoqlashardi. Bu odam qaerga borsa osoyishtalik qaror topar, chiqib ketgach, besaranjomlik, talon-taroj boshlanardi. Uning O'shga kecha oqshom kirib kelgani haqidagi xabardan sho'rolar yetimxonasining tarbiyachilaridan tortib, bolalargacha eshitishgan edi. Shu bois uning kirib kelishi, ayniqsa tarbiyachilarga, tasodifiy hol bo'lindi. Bu kishining avval ham kelganini Mirzakalon keyinroq o'rtoqlaridan eshitib bildi. O'sha kuni esa... Ko'chada oq otidan tushib, yetimxona hovlisiga kirib kelgan, egniga harbiycha kiyim kiygan xushro'y kishiga ajablanib qaradi. Keyin uning yonidagi kishini tanidi: Xolxo'ja! Dadasining ulfati. Ko'rdi-yu, cho'chib tushdi.

Xolxo'ja ham Mirzakalonni ko'rdi, tanidi, ammo b'ThNima uchun sen bu yerda yuribsan? b'ThK demadi. Tarbiyachilar bolalarni bir safga tizdilar. Mirzakalonдан avvalroq bu yerga kelgan bolalardan bir nechasi tarbiyachilari o'rgatgan, sho'rolarni maqtovchi sherlarni yodlab berdilar. Amiralmuslimin qoshlarini chimirsa ham indamay eshitdi. Bolalardan ikkitasi turkcha ashula aytishganda ham undan sado chiqmadi. Mirzakalon uning bu holatini o'sha onda anglamagan edi. Buni ancha keyin tushunib yetdi. O'shanda amiralmuslimin bolalarga qarab turib:

-Jonimiz fido bo'lsin, sizlarga! -dedi. Keyin nasihat qildi:-Bu kunlar o'tib ketadi. Sizlar hech narsaga qaramay o'qinglar. Faqat o'qinglar. Millatimiz qaddini biz qilich bilan ko'tara olmaymiz. Sizlar ilm bilan ko'tarishinglar kerak. Tarixni o'qing-da, ibrat oling: kuchli davlatlarni ilmsizlik barbod etgan. Ilmsizlik bizning millatimiz qaddini egib qo'ygan. Bir soatlik ilm o'rganish bir kechalik nafl ibodatidan, bir kunlik dars uch oylik nafl ro'zasidan afzalligini Payg'ambarimiz alayhissalom aytganlar. Ilm olayotgan talaba uchun hamma narsa b'T "hatto dengizdag'i baliqlar ham gunohini so'rav, istig'for aytadi. Bu dunyodagi ilmdan boshqasi b'T "savatdag'i suvning o'zi ekanini shu yerda anglab yeting. Kimki hayoti shamini ilm nuri bilan yoqa olsa hayoti asrlar bo'y'i so'nmaydi. Bizning bobolarimiz shunday bo'lishgan...

Nimqorong'u qamoq xonasida o'tirgan Mirzakalon alhol bu gaplarni shunchaki eslamadi. Nazarida amiralmuslimining jarangdor ovozi bu sovuq toshlarga urilib aks-sado berganday bo'lди. Yuragi ezildi. Bu gaplarni yoza olmaydi. Bu tarix zarrasini o'zi bilan olib ketadimi?

Kishan, gavdamdagi izlar bukun ham bitgani yo'qdir!

Temir barmoqlaringning dog'i butkul ketgani yo'qdir.

Na mudhish, na sovuq-manxus, na qizg'anmas quchog'ing bor!

Bashar tarixining har sahfasida qonli dog'ing bor!

Yakka holda azobli tunu kunlarni o'tqazishga mo'ljallangan bu qamoq xonasida yolg'izlikni yengishning bordan-bir yo'lli totlimi yo noxushmi, qanday bo'lsa bo'lsin, xotiralar bilan oshno tutinishdir. Oylar davomida Mirzakalon bunga ko'nikkan. Qalbi nimta-nimta bo'lib ketay deganda bazan ko'z oldiga ustoz keladi. Bazan esa uning jarangdor, shiddatli ovozi quloqlari ostida jaranglaydi.

Hozir ham shu takrorlandi - shoirning ovozi yetimxona taassurotlarini sal nari surgandy bo'lди:

Yumilmas ko'zlarining har biri bir elni qahr aylar,

Faqat bir borlig'ingdirkim, butun borliqni zahr aylar!

Qulf birlan sening erkingda ko'p yillar qolib ketdim...

Faqat har tebranishdan qutulishlikni umid etdim.

Oh, umid... umid... Bunchalar bevafo bo'lmasa! Yurakni aldashni bunchalar suymasa!

Kishan, gavdadagi dog'ing xanuz bitgani yo'qdir,

Faqat butkul qutulmoqqa umidim endi ortiqdir!..

Kishanlangan umid ustozni ne kuya soldi? Uning o'zini qayga boshlaydi? Bu yozuvlari umidiga quvvat bera oladimi yo turmada sharafsiz o'lim topganlar qatorida tarixning unut satrlariga aylanadimi?

Yo'q! Bunday bo'lmasligi kerak! Uni millatchilikda ayplashdi. So'zning manosini durust anglamaganliklari uchun unga va o'nlarcha ziyo ahliga shunday davo qilishyapti. Holbuki, millati uchun juda ko'p xizmat qilgan odam ijobjiy manoda b'ThNmillatchib b'TK sanaladi. O'zga millatni lanatlaydigan toifa esa butkul boshqadir. Undaylar chindan ham lanatga loyiqdир.

Mirzakalon o'zini bunday toifada ko'rmaydi, alhol millatimga yetarli xizmat qila olmadim, deb o'kinadi. Bir qaraganda qirq ikki yillik umrda ko'p xizmat qilish mumkin emasday tuyuladi. Aslida esa olamjahon ishlarni amalga oshirish ham mumkin. Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon shunday emasmidilar? Ajab, ular ham shu yoshda qamoqxonada o'tirgan edilar. Taxminan shu yoshda tarixning sharaflı sahifasiga aylangan edilar. Ha, ha, aynan sharaflı sahifasi! To'g'ri, bu kunlarda ularning nomlarini tilga olishga qo'rqtyaptilar. Ammo qorong'i kunlarning ham oxiri bo'ladi-ku?

Shu kabi fikrlarga bir oz chalg'igach, u xayolini yig'ib oldi-da, yana qog'oz ustiga egildi, tergovchining ko'ngliga yoqadigan tarzda davom etdi:

b'Th...Bu hol odatga kirib qolgan ekanmi, bilmadim, muallimlarimiz bosmachilarning bu xil vahshiyliklarini qoralamas, sira pinaklarini buzmas edilar. Ularning erta-yu kech qiladigan ishlari yetimlarga turk ashulalarini o'rgatishdan va turkcha komanda berib bizni mashq qildirishdan iborat bo'lar edi. Bizga b'ThSanjog'imizb b'TK, b'ThChanoqqal'ab b'TK kabi turk ashulalarini o'rgatganlari esimda.

Yetimxonaga bazan Tulu afandi bilan Shahidiy afandi degan ikki zot kelar edi. Bularning birinchisi o'shlik millatchilardan bo'lsa, ikkinchisi asir tushgan turk zobiti edi. Shahidiy afandi muallimlar, tarbiyachilar va katta yoshli bolalar bilan Turkiya haqida, turk askarlarining dovyurakligi haqida, bizlarning ham b'Th turk jujuqlarib b'TK ekanimiz haqida suhbat o'tkazardi. Men kichik yosh bo'lganim uchun ular davrasiga kirmas, agar gaplarini eshitsam ham baribir, tushunmas edim.

Yetimxonada ikki yil tarbiyalandim, xat-savodim chiqdi, oqu qaroga ozmi-ko'pmi tushunadigan bo'ldim. Izzat Sultonov bilan shu yerda tanishdim, u ham yetimxonada tarbiyalanar edi.

1922 yil keldi. Meni shu yili Toshkentga, O'lka o'zbek erlar bilim yurtiga o'qishga yubordilar... b'TK

Jumlagi nuqta qo'yib yana o'ylanib qoldi: Tulu va Shahidiy afandilar nomlarini zikr etishi to'g'ri bo'ldimi yo noto'g'rimi? Shahidiy afandining Turkiyaga qaytib ketganimi, Tulu afandining esa Munavvar qorilar safida qamoqqa olingenini eshitgan edi. Demak, ularga bu idora zulm o'tkaza olmaydi. Demak, bu o'rinda sotqinlik yo'q.

Afandilarning suhbatlarini eshitganida chindan ham ko'p narsalarni tushunmas edi. b'Th Sanjog'imizb b'TK'da nima uchun Turkiya bayrog'ini sharaflayotganini ham anglamasdi. Bir kuni tarbiyachisidan b'Th Chanoqqal'ab b'TK'ning manosini so'raganida b'Th Turkiyaning Chanoqqal'a degan joyida katta urush bo'lgan, dunyoning barcha mamlakatlaridan borgan yoshlар kofirlarga qarshi urushishgan. Ikki yuz mingdan oshiq yosh yigit shahid bo'lgan. Tulu afandi bilan Shahidiy afandilar o'sha janglarning sharaflı qahramonlaridan sanaladib b'TK, deb tushuntirgan edi.

* * *

Tong otib, uni yana tergovga chorladilar. Tergovchi niyatiga yetgan xushnud odam chehrasi bilan uni qarshiladi. Mirzakalon uzatgan qog'ozni olib, dastlabki satrlarga ko'z tashladi-yu, yuzini burishtirdi:

-Yana yetimxonami? Bundan boshqa gaping yo'qmii? Menga nimalarni yozib kelding?

-Aleksandr Aleksandrovich, iltimos, oxirigacha o'qing. Ikki qatordan iborat tavbani yozishim qiyin emas. Lekin tunda bergen topshirig'ingizdag'i b'Th o'z jinoyatlarimni, shuningdek, boshqalarining menga malum bo'lgan jinoyatlarini katta-kichikligiga

qaramay, oqizmay-tomizmay, zarracha ham qoldirmay, bir-bir aytil beramanib Tók, degan takidning menga juda maqlul bo'lidi. Agar topshirig'ingizni bekor qilmasangiz, men shu uslubda batartib davom etsam. Millatchilik gazandasiga qachon va qanday qilib bo'yin egib qolganimni o'zim ham tushunib yetishim kerak.

Tergovchi bu gapni eshitib, unga tikilib qaradi-da, bosh chayqadi:

-Ayyorsan, Ismoiliy, juda-juda ayyorsan. Vaqtini cho'zib foyda topmoqchimisan? Yaxshi, kamerada uzoqroq yolg'iz o'tirging kelayotgan bo'lsa, o'tiraver. Men shoshilmayman,-deb yana qog'ozga ko'z yogurtirdi. Bayonni oxirigacha o'qigach, qog'ozni ikki buklab, stoli ustiga tashladi.

-Hech qanday yangilik yo'q! Menga o'ttiz yil oldingi turk afandilarining keragi yo'q! Sultonoving ham kerakmas. Menga ustozingni gapir, uning o'zingga o'xshagan izdoshlarini ayt.

Tergovchi o'nidan turib, asabiy ravishda xona bo'ylab yura boshladi. Bunday yurishlarning oqibati kaltak zarbi bo'lardi. Bu safar ham Mirzakalon uning musht tushirishini yoki tepib qolishini kutdi. Ayniqsa orqa tomoniga o'tganida gardanidan zarba yeyishga shay turdi. Tergovchi urmadi. Deraza yaqiniga borib, tongni kutib olayotganday tashqariga uzoq tikildi. So'ng nazoratchini chaqirdi. Mirzakalon o'nidan turib, qo'llarini orqaga qilganda в йиъ Mening sabr-toqatim chegarasining naqadar mustahamligini sinab ko'rishga urinmab Tók, deb qo'ydi.

Qamoq xonasiga qaytib, uvada ko'rpa ustiga cho'zilib yotganda eshik darchasi ochilib, unga bir dasta qog'oz uzatdilar.

Tergovchining bu marhamatidan ajablandi: o'z istagingcha yozsang yozaver, dedimi yo o'zi istagan tavbani yozib berishini talab qildimi? Mirzakalon qancha o'ylanmasin, tergovchining xohishini angloy olmadni. Oxiri, xotiralarini qog'ozga tushirishni davom ettirmoqqa ahd qilib, qo'liga qalam oldi. Tunda uxlamagan bo'lsa-da, uyqusi kelmad... Xayolidagi gaplarni qog'ozga tushirishga darrov kirisha olmadi. Chunki bilim yurtida unga oqu qorani ajratishni o'rgatgan ustozlarning aksari bu idoraning hukmi bilan o'ldirilgan bo'lsalar-da, to hanuz qora ro'yxatda turardilar. Bular haqda iliqroq gap aytishning sira imkon yo'q edi. Ammo ularni ustoz sifatida tilga olmaslikning iloji ham yo'q edi. O'ylay-o'ylay, yigirmanchi-o'ttizinch yillar matbuoti bu sharafli zotlarni qanday ayblagan bo'lsa, o'shalarning tili bilan zikr etishni lozim topib, ularning pok ruhlari qarshisida yana bir tavba qildi-yu, yoza ketdi:

в йиъ Millatchilik beshigib Tók

в йиъ Toshkent, bilim yurti. Men bilim yurtida olti yil o'qib, uni 1928 yilda bitirdim. Bu yillar natija etibori bilan hayotimda achchiq, quyqim qoldirib ketdi. Men hali yosh, g'o'r edim. Tevaragimda ko'rgan narsalarimga tanqid ko'zi bilan qarashni bilmash, men ularni tayyor holicha, boricha qabul qilar edim. Tevaragimda esa Abdulla Avloniy, Qayyum Amazon, Sobir Qodiriy, Nosir Saidiy, Olim qori Usmonov kabi ashaddiy millatchilar bor edilar...в Tók

Bu zotlarni в йиъ millatchiб Tók atamasining asl ijobiy manosida, millat ravnaqi uchun astoydil xizmat qilganlar sifatida zikr etib, ko'ngli bir oz taskin topdi. Mayli, tergovchi o'z istagicha talqin etaversin, ammo bu zotlar millat uchun ko'p xizmatlar qilgan edilar. Ayniqsa, Abdulla Avloniy... Toshkent jadidlarining peshqadamlaridan. Jadidlar millat jaholatidan yig'lar edilar. Millatning xorligini faqat va faqat ilmsizlik balosida deb bilardilar:

Marizing bir tarafdin, bir tarafdin xorsan millat,

Badandin qon oldirg'uvchi bemorsan millat...

Abdulla Avloniy bu satrlarni ko'z yoshlari bilan yozgan damlarida Mirzakalon hali tug'ilmagan edi. Shoiring dovrug'in yetimxonada eshitgan, uning в йиъ Turkiy guliston yoxud axloqib Tók asari yordamida savod chiqqargan edi. Toshkentga kelib, bilim yurtida bu zotdan tahsil olishini eshitganda naqadar quvongan edi! Muloyim tabiatli, cho'qqisoqol, yuzidan nur yog'ilib turuvchi bu muallimni hamma yaxshi ko'rardi. Ayniqsa nafis adapiyotga mehri baland bo'lgan Mirzakalon uning darslarini orziqib kutardi. O'sha yillari sheriyatda в йиъ futurizm в Tók nomi bilan tug'ilgan yangi oqimga tushunmay savol so'raganida в йиъ Bu oqim Italiyada tug'ilib, Ovrupo tomonlarda dovdiray-sovdiray, so'ng biz tomonlarga adashib kelib qolgan. Oltoyning sherlarini o'qisangiz, bas, o'sha ijod futurizm samarasib Tók, dedi. Mirzakalon в йиъ Tirr... tirr... kelayotir... traktor...в Tók deb zinapoya usulda yozilgan sherlarni o'qigan, biroq, manosiga, ayniqsa, shoiring maqsadiga tushunmagan edi. Yana bir darsda bu xususda so'raganda ustoz uning qo'liga kitob berib, в йиъ o'qing в Tók, dedi. Mirzakalon o'qidi, ajablanib, ko'zlarini pirpiratganicha ustoziga qarab turaverdi.

-Yana tushunmadingizmi?-dedi ustoz miyig'ida kulib.

-Ustoz, siz menga sher o'qitmadingiz, kitobning mundarijasini o'qitdingiz-ku?

-Ha, balli, futurist shoirlarning sherlari xuddi shunga o'xshash, sarlavhasi bor-u, manosi yo'q. Sarlavhasiga qarab manosini o'zingiz topib olishingiz kerak. Hazrat Navoiydek shoirlari bor millat uchun bu sher usuli sharmandalib bir holdir...

Shunday donishmand va beozor odamning ham nomini tilga olish mumkinmas. Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat ustozlar-ku, bu zolim idoraning hukmi bilan otilgan edilar. O'z vaqtida в йиъ qizil professorib Tók degan nom bilan sharaflangan, so'ng sovetlarning nayrangli siyosatini anglab, chetga chiqqan Abdulla Avloniy Stalining ajal tig'i qo'zg'almasidan ilgari xastalikka chalinib, vafot etgandi. Agar o'ttiz yettinchi yilda tirik bo'lganida birinchilardan bo'lib bu tig'ga ro'baro' bo'lishi aniq edi. O'lib ham qutilmovdi bechora, nomi baribir qora ro'yxatga kiritildi. Oilasiga berilayotgan nafaqa bekor qilindi...

в йиъ Bugun в йиъ qora ro'yxat Tók deb anglayotganimiz, ertaga avlodlar tomonidan oltindan afzal, deb ezozlansa, ne ajab?в Tók в йиъ xayoliga kelgan bu fikrdan mamnun bo'lgan Mirzakalon yozishda davom etdi:

в йиъ Millatchilar ilhomchisi va ularning sodiq jarchisi Cho'lpon, Botu, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Shokir Sulaymon, Elbek va boshqalarning kitoblari hamisha qo'llarda, tillarda edi. Ularda talqin etilgan fikrlarning asl manolariga va zamirida ko'zlangan maqsadlarga u vaqt o'zimda bo'lgan zaif ong va sayoz bilim bilan lozimiy qadar tushina olmasam-da, ularni o'qir ekan, zavqlanmas edim, deya olmayman, zero, atrofimda ko'rib va eshitib turganlarim, umuman bilim yurtini o'rab turgan muhit kitob sahifalaridan kam farq qilar edi. Men buni keyinchalik, Bilim yurtini bitirganidan ancha keyin, ochiq-oydin tushundim. Natijda men ham ashaddiy millatchilar: Sobir Qodiriy, Nosir Saidiy, Olim qori Usmonov kabi direktorlar, Qayum Amazon, Abdulla Avloniy, Nuriddin Xudoyorxonov kabi muallimlar tebratgan millatchilar beshigida tarbiyalanganlardan biri bo'lib chiqdim. Men endi Bilim yurtida bo'lib o'tgan voqealarni va ularning menga qanchalik aloqasi borligini eslatib o'tmoqchiman:

Yigirma ikkinchi yo yigirma uchinchi yil bo'lsa kerak, Bilim yurti devorlari orasida birdan shov-shuv ko'tarildi:

-Turkiyaga talabalar yuborilar ekan! Yildirim ketarmish!..

Ammo turk zabitlari tasiri va tarbiyasi ostida Toshkentda turiboq turk bo'lib olgan Yildirim в йиъ Imomxon Husanxo'jaev hazillashib o'qtalgan ov miltig'idan otilgan o'q bilan Turkiyaga emas, to'g'ri qabristonga jo'natildi. Turkiyaga sotqinlik va pastkashlik bilan sajda qilgan millatchilar, qora orzulariga yetolmay, go'r ustida: в йиъ Millatning yorug' va umidli yulduzlaridan biri bevaqt so'ndi!в Tók deb aza tutdilar. Men esam o'z ona-Vatanini tashlab, o'zgalar yurtiga ketishning naqadar qabihligini,

to'g'rirog'i, katta jinoyatligini anglamaganim holda, orzusi ushalmay qolgan yosh yigitning fojiona tugalishiga qattiq achindim. Oradan yillar o'tdi. Yetimligimni, orqadan yo'qlab kelguvchim bo'limganini ko'rib, Bilim yurti muallimlaridan Leon Bernardovich Gintillo degan keksa bir kishi meni o'ziga asrandi o'g'il qilib oldi. Darhaqiqat, qashshoqlikdan umr bo'yи chiqmay, otasidan meros bo'lib qolgan to'rt tanob yerda unimsiz mehnat bilan ro'zg'orini tebratolmay xunob bo'lib yotgan otam, uydan qochib ketganimda; вЂњBolam nima bo'ldi ekan? вЂќ deb izlamadigina emas, haliga qadar hatto bir enlik xat bilan ham yo'qlamadi. Balki, bu qashshoqlik natijasi emas, diydasi qattqlik oqibati bo'lgandir?

Gintillo mening o'qishlarimga, moddiy ehtiyojlarni yordam bersa ham siyosiy ongimning o'sishiga, to'g'ri sovet yo'lidan borishimga dalda beradigan yaxshi o'gitlar, foydali nasihatlar qilmas edi. Men tamoman o'z ihtiyyorimga, Bilim yurtida hukm surgan zararli muhit ixtiyoriga tashlab qo'yilgan edim. Turkistonlik bir talaba (oti esimda yo'q) imomgarchiligidagi ko'plashib namoz o'qigan kezlarimiz ham bo'lganini eslasam, hali aqlini tamom olmagan sho'ring qurg'ur kichkina bolaning bir yoqdan islom, ikinchi yoqdan millatchilik omburi mahkam qisib olganini ko'z oldimga keltiraman вЂќ.

Tergovchining ko'nglini rohatlantirishi mumkin bo'lgan bu satrlarning etiborsiz qolishini bilsa ham yozaverdi. Agar bu gaplar havfsizlik idorasiga o'ttizinchi yillarda yetkazilganda qimmatli malumot sifatida qadrlangan bo'lardi. Hozir tergovchi bu satrlar yozilgan qog'ozlarni g'ijimlab tashlashi yoki yoqib yuborishi ham mumkin edi. Yoki... вЂњpuch yong'oqlar bilan meni laqillatmoqchiisan! вЂќ deb tepkilab qolishi ham hech gap emasdi. Mirzakalon bularni bilsa-da, yozishdan to'xtamadi: вЂњBilim yurtida o'qib yurgan kezlarimda Siddiq Hidoyatov degan bolaning uyiga borganim, u bilan ayvonlarida o'tirib shaxmat o'ynaganim va Siddiqning taklifi bilan orqa hovlilariga o'tib, meva yeganim aniq esimda. Ammo u bilan qay sharoitda tanishganim va uyiga qay yilda borganim sira xotirimda yo'q. Ikkalamiz ham tamom yosh bo'lganimiz va biron aqida ko'chasiga kirib ulgurmaganimiz uchun, o'ttamizda diqqatga sazovor biron jiddiy gap o'tgandir deb o'ylamayman. Meni uning uyiga olib borgan narsa вЂњ shaxmat o'yiniga o'chligim bo'lsa ham ajab emas. Shuni ham qayd etib o'tayki, Siddiqning millatchi Botu ukasi ekanini o'sha vaqt bilarmidim-yo'qmi, buni hozir ham aniq eslay olmayman... вЂќ

Eslay olmayman... Yaxshi bahona... Nega eslamasin? Botuni uning suhbatlarini unutish mumkin ekanmi? Dunyo ko'rgan bu odamni millatning faxri deb hisoblardi, unga havasi kelardi, uningdek bo'lismi orzu qilardi, har bir so'zini jon qulog'i bilan tinglardi. Uningdek bo'lismi orzus... Ajab! Ilm va ijodda uning martabasiga yetolmagan bo'lsa-da, вЂњmillatchib вЂќ degan tamg'aga erishib turibdi. O'ttizinchi yillarning ikinchi yarmini eslaganda hanuz bir narsaga tushuna olmaydi: qama-qamalar boshlanmay turib millatning gullari hisoblagan ziyo ahli orasida ko'p fitnalar bo'ldi. Bir-birlarining boshlari ustidan mag'zava ag'darganlar ham uchradi. Xalqni uyg'otishi, ozodlik yo'liga boshlashi lozim bo'lganlar bu muqaddas burchlarini unutib, jar yoqasiga kelib qolganlarini o'zları ham sezmadilar. Mirzakalon ustozlarning barchasini butun qalbi bilan ardoqlardi, ularga intilardi. Ayniqsa, Cho'lpon bilan Botu yigitning qalbida alohida ardoqqa ega edi. Ayni choqda bu ikki ulug' orasida ahillik yo'qligi, dunyoqarashlarida ziddiyatlar mayjudligi bu qalbini ombur iskanjasida azoblardi. Botuning Cho'lpon va Fitrat dunyoqarashiga zid fikrlarida yomonlik urug'i yo'q edi, fikrlar olishuvi xolislik bilan olib borilardi. Lekin bu xolis olishuvni ziyraklik bilan kuzatib, payt poylayotgan g'animplar tegirmoniga suv quyayotganini fahmlamasdmidi? Cho'lpon ham Fitrat ham qamaldi. Ular to'g'risida boshqa malumotlar yo'q. Abdulla Qodiriy uchchovi bir kunda otildi, degan mish-mishlarni eshitgan, biroq, ishonishni ham ishonmaslikni ham bilmaydi. Kechagi kungi nazoratchining gaplari rost bo'lsa, demak, o'sha yillariyoq otib o'ldirishgan. Botu ularni millatchilikda ayblagan bo'lsa, oradan ko'p o'tmay uning o'zini ham shu ayb bilan hibsga oldilar. Bir kuni Siddiq вЂњAkamni Moskvaga olib ketishibdi вЂќ, dedi. Urush arafasida ko'rishishganida esa вЂњAkamni Moskvada hukm qilib otishganish вЂќ, devdi. Bu xabarni uka ishonqiramay aytganda boshqalar ishonishsinmi? Mirzakalon shularni o'yladi, lekin qog'ozga tushirishdan o'zini tiydi.

Mirzakalon tergovchining Bilim yurti hayoti bilan qiziqishini bilardi. Bilim yurtiga aloqador bir qancha ziyo ahlining ayrimlari Stalin qirg'ini avjiga chiqqan urushgacha bo'lgan yillarda qatl etilgan, bazilari esa uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilingan edi. Sibirning sovuq o'rmonlarida kimlar o'lib ketdi, yana kimlar taqdiridagi ozodlik yozug'idan umid qilib yashab yuribdi ekan? Hamonki, tergovchi Bilim yurtidagi hayoti bilan qiziqar ekan, yozmaslikning iloji yo'q. Mirzakalon qama-qama yillari Bilim yurti shaniga qanday balchiqlar chaplanganini esladi. O'zbekchani bilmaydigan tergovchi u gaplardan bexabardir, degan to'xtamga kelib, o'ttizinchi yillarning yarmidan boshlab, to urushgacha davom etgan tuhmatlarni bir-bir eslab, qog'ozga tushira boshladи. Gapning avvalini siyosat pardasiga hafsala bilan o'radi. Bu yozganlari tergovchining g'ashimi keltirgan taqdirda ham dag'dag'a qilolmaydi. Salgina etiroz bildirsa, ertaga o'zining ahvoli bugun o'zi qiynatotgan mahbuslarnikidan battar bo'lisi mumkin.

вЂњYillar o'tgan sari Sovet hokimiyyati mustahkamlanib, sovet kishilarining o'z sotsialistik vataniga va uning porloq kelajagiga bo'lgan ishonchlari kuchayib bordi. Mamlakatni kommunizm sari g'olibona olib borayotgan shonli Lenin-Stalin partiyasiga ichdan turib zarba berishga qasdlangan sotqin trotskichi-zinov'Kjevchi ablahlarga qarshi mamlakatda qizg'in kurash boshlanib ketdi. Bu kurashda Bilim yurti ham chetda qolmadi. Mamlakatning ichki va tashqi dushmanlariga qarshi kurashda, mamlakatni sotsializm asosida qayta qurish, odamlarni kommunizm ruhidagi tarbiyalash kurashida chiniqqan asl sovet kishilarining fosh qiluvchi ovozi Bilim yurti devorlari ichida ham yangrab ketdi. Talabalar orasida o'zining trotskichi fikrлari bilan tanilgan bir-ikki o'quvchi umumiyoq majlisda munosib ravishda do'pposlandi, yuzlaridan trotskichi niqoblari yitib tashlandi, ammo... maktabdan quvilmadilar... вЂќ

Shu satrlarni yozaturib xayoliga beixtiyor вЂњSharofni tanqid qilaverib, o'shangang o'xshab yozadigan bo'lib qolibmanmi? вЂќ degan fikr keldi-yu mahzunlik bilan kulimsiradi. Berlindan qaytib вЂњQizil O'zbekiston вЂќ gazetasida ish boshlagach, bosh muharrirning dabdabali satrlarga g'oyat o'chligidan ko'ngli xira bo'lgandi. U osmondan tushgani yo'q, har bir maqola dabdaba bulog'idan suv ichishi shartligini biladi. Istasa-istamasa, o'zi ham yozadi o'shanday satrlarni. Ayniqsa urush yillaridagi maqolalarida bu masalada o'ziga o'zi erk berardi. Urush kunlari bunday dabdabani ko'tarardi. Bu usulga muhtojlik bor edi. Endi haqiqatga yondoshish vaqt keldi, deb hisoblardi. Urushning barcha dahshatlariga guvoh bo'lgan ikki sobiq zubit, biri Bosh muharrir, biri esa mas'ul kotib bu masalani ijodiy bahs deb hisoblab, tortishuvlarini bas qila qolmas edilar. Bahs dahanaki jangga aylangan paytlarda ham ikkala tomon ham bo'sh kelishni istamasdi. So'ngegi dahanaki jang chog'i musht ishga tushdi-yu, вЂњijodiy bahs вЂќ nihoyasiga yetdi. Bahsning intihosi mas'ul kotibning boshqa ishga o'tishidan iborat bo'ldi. Mirzakalon qamoqqa tushgan dastlabki kunlari bu idoraga tuhmatnomaga yozib berishda gumonsiragan odamlarni o'zining xayolidagi вЂњqora ro'yxat вЂќ dan birin-sirin o'chirdi. Bular orasida Bosh muharrir ham bor edi. вЂњHamma tirik jon singari Sharofning ham o'ziga yarasha illatlari bor. Lekin u sotqin emas вЂќ, degan xulosasini hozir ham esladi. Alhol, u ziddiyaga doir voqealariga eslash vaqt emasdi. Shu sababli, xayolini jamlab, yana Bilim yurti voqealariga qaytdi:

вЂњMen Bilim yurtida o'qib yurgan kezlarimda yana bir voqeaya yuz berdi. Ammo uning qaysi yilda yuz berganini aniq

aytolmasam-da, harholda yigirma to'rtinchi yildan keyin emas, deb bilaman.

Yuqori sinflarda o'quvchi qo'qonlik talabalardan Ismoiljon (otining aniqligini tasdiqlay olmayman) Qodirov bilan Solijon Ismoilov avval вЂњqaychi qudam вЂќ bo'ldilar, yani bir-birlarining singillariga uylandilar. Keyin esa Turkiyaga o'tib ketdilar. Ularning Vatanga xiyonatlari yashirin, mahfiy suratda emas, balki hammaga oshkor suratda qilindi. Men ularning yozgi tatildi Qo'qonga borib, kurslarda muallimlik qilish yo'li bilan ko'pgina pul topmoqchi, keyin bularni tillaga aylantirib, Turkiyaga o'tib ketmoqchi bo'lganlarini sinfdosh o'rtog'im Javlon dan eshitdim. Javlon o'z hamshaharlarining kirdikorlariga ular Vatanga xiyonat qilayotganlari uchun emas, o'z sevgilisidan ajrab qolayotgani uchun g'azablanib gapirdi. Darhaqiqat, u Qodirovning singlisini sevar, oshiqi-beqaror edi.

Qo'qonlik ikki talaba tomonidan tayyorlangan bu xiyonatni Bilim yurti rahbarlari ko'ra-bila turib qoralamadilar, tegishli chora ko'rma dilar, oddiy voqeadek parvosiz o'tkazib yubordilar. Yana Javlonning aytishicha, qochoqlar yoz tatilida muallimchilik qilib ko'p tilla yiqqanlar-da, kuzda qora niyatlariga yetganlar...вЂќ

III

Toshkent, Darxon dagi uch xonali uy.

1986 yil, 4 fevral, seshanba, soat 16.10.

Goh hud, goh behud yotgan holida o'tmishini eslayotgan bemorning qulog'iga tanish ovoz urilib, kutilmagan quvonch epkinida yengil seskandi. Hatto ko'zlarini bir necha soniyaga ochdi. Ovoz egasini qidirib, alangladi. Oradan yillar o'tgan bo'l'sa-da, o'n sakkiz yoshida yigit ko'nglini ovlagan bu shirin ovoz hali ham totli edi. Lekin... jon olg'uvchi bu ovoz egasi chindan ham yo'qlab keldimi yo Bilim yurtidagi voqealar hayolini yoritgani uchun qulog'i ostida g'oyibona jarangladimi?

-Hamidaxon, do'xtirlik qilmay qo'yaningiz chakki bo'libdi-da, Sanobarxon ikkovimizga binoyidek tish qo'yib beruvdingiz.

Yasama tishlarim ham o'zimga o'xshab qarib ketdi. Yangilash bahonasida yana oldingizga bormoqchi bo'lib yuruvdim.

-Yap-yangi tish sizdan aylansin, buvijon, o'zim bo'lmasam, o'zimdan ham ziyoda shogirdlarim bor.

-Mirzakalon tuzalib qolsa, boraman...

вЂњHa, eshitib kelibdi. Yo kimdir chaqirtirganmi? Ehtimol kampir tushmagur yo'qlatgandir. Ha... bu uning ishi. Armonda ketmasin, degan. Yuragimning bir uchi kemtikligini yaxshi bilardi...вЂќ

Otasi Ismoilxo'jaga xotin chidamasdi. Agar adashmasa, o'n martadan ortiqroq uylandiyov. Faqat o'n ikkinchi yoki o'n uchinchi hisobdag'i Hikmatxon unga bas keladi oldi. Har qanday xotinni kaltaklay-kaltaklay taloq qilib yuboruvchi bu odam shu xotin bilan yashab qoldi. Ikki o'g'il, bir qiz ko'rishdi. Dehqonlarni quloq qilish boshlanganida Ismoilxo'ja Toshkentga ko'chib keldi-yu, Mirzakalon ham, singlisi Sanobar ham o'gay onani hech ikkilanmasdan вЂњbuвЂќ deb atay boshlashdi. Ukalarini ham o'z tug'ishganlariday bilib, ardoqlashdi. Hikmatxon ham ularni o'z farzandlaridan aloroq ko'rardi. Birinchi marta qamalganida uning bir necha tunu kun qamoqxonat atrofida bo'zlab yurganini eshitib, ko'zlariga yosh olgan edi. Ikkinci qamalishida Qarag'andaga ham keldi. Endi... ayriliq aniq ekanini sezgan. Diyord qiyomatga qolmasin, deb yaqinlariga xabar bergan.

Mirzakalon shularni o'ylab ko'zlarini ochib kampirni so'nggi marta bir ko'rgisi keldi, uning beozor va shodon qahqahasini eshitgisi keldi. Mehnat tufayli qotib ketgan barmoqlarini kaftlari orasiga olib silashni istadi... Biroq, harchand harakat qilmasin, mijjalarga hukmini o'tkaza olmadi. Jon tark etayotgan qo'llari ham o'ziga bo'yusunmadı...

Ayollarning uya kirganlarini sezdi. Hamida engashdi. Yoqimli nafasi Mirzakalonning yuziga urilib, yuragi gupirlab ura boshlaganday bo'ldi. Bu yurak hozir sakson yil ko'krak qafasini tepe-tepa charchaganini, vazifasini ado etib bo'lish arafasida ekanini unutdi. Muhabbat mayidan mast kezlaridagi kabi dadil-dadil urdi.

вЂњO'liklarвЂќ yoxud birinchi muhabbat mojarosi

... O'sha paytlarda вЂњO'liklarвЂќ degan vahimali nom bilan mashhur bo'lgan voqeani unutish mumkin ekanmi? Gap nomda ham emas, ishqiy mojaroda ham emas, oraga quroq, imzosiz xatlar aralashganida ham emas. Bu mojarolarni esdan chiqarib tashlash ham mumkin. Lekin qalba muhrlangan bir xotirani o'limdan boshqa hech qanday kuch o'chira olmaydi. вЂњO'sma ketar, qosh qolabвЂќ, deyilanidek, birinchi muhabbat ehtiroslari bu vujudni jondan ilgari tark etishni istamasdi.

O'sha yillari Erlar bilim yurti bilan Qiz-juvonlar bilim yurti o'rtasida birlashgan havaskorlik dramto'garagi tashkil etilgan edi.

Mirzakalon bir necha do'stlari bilan birga bu to'g'arakda ishtirot qilardi. U o'shanda jussasi o'ziga o'xshagan kichkinagini, ko'zlar o'ynab turgangina, o'zi oqishdan kelgangina bir qizni sevib qoldi. U - Hamidaxon edi. Mirzakalon undan sevgi to'la ko'zlarini aslo uzolmas, yoniga borib ishq daftarini ochishga esa hech botinolmas edi. Qiz ham mayldor boqishlar va jon olg'uvchi jilmayishlar bilan yigitning sevgisini ardoqlar, sahnada o'yinda tushaturib pinhona tashlagan nigohlari bilan uningsiz ham yonib turgan qalbini beshbattar yondirar edi. U oshiqlikning ko'zga ko'rinas mas chayir iplari bilan kun sayin mahkamroq bog'lanib borardi. Qalbi sevgisini ikki yil o'z bag'rida po'palab o'stirdi va, nihoyat, yigirma yettinchi yilning yozgi tatilida iqrorga keltirdi. Mirzakalon bilan Hamidaxonning sevgisi, mayli hammaga oshkor bo'ldi. Bu sevgini, bu baxtni ko'rolmagan, ularni bir-birlaridan ayirishga harakat qilgan kishilar ham paydo bo'ldi.

Ularning sevgisiga qaratilgan hujum zamirida mahalliychilik cho'g'i mavjudligi millat taqdidi xususida jon qayg'uruvchi yigitni tamoman gangitib tashladi. Millatni xaroqlik botqog'iga aynan mahalliychilik botirishini u Botuning suhbatlari orqali anglagandi. Anglagach, Bilim yurti talabalari orasida aynan shunday xastalik borligini bilib yuragi ezildi. Toshkentlik farg'onalikni, samarqandlik xorazmlikni, termizlik buxorolikni ko'rolmasligi uni afsus buluti bilan o'rav turardi. Bugun bilim olib, ertaga xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otishi lozim bo'lgan yigitlarning bu ahvoli millat kelajagiga qora parda tortayotganday bo'lardi. Aynan shu xastalik bilan og'riyotgan yigitlarning o'ziga hujum qilib qolishlarini esa o'ylab ko'rmasgandi. Ha, shunday bo'lgan edi. Sevgilari oshkor bo'lgach, Yaqub degan yigit birinchi bo'lib bosh ko'tardi. Bir u emas, yana ko'pgina yigit bu qizga oshiq edi. Lekin ular orasidan birgina shu Yaqub hujum qilishga jur'at etdi. U вЂњMen bu qizni sevaman!вЂќ deb maydonga chiqmadi, nomardligi ham aynan shunda edi. Atrofiga o'ziga o'xshagan o'smirlarni to'pladi-d: вЂњToshkentlik qizni andijonlik kelgindi olib ketaveradimi?вЂќ degan davo bilan chiqdi. Bu shunchaki po'pisa emas, ikki sevishgan qalbning ishqiga ochilgan urush edi. Ular avvaliga Hamidaxonni Mirzakalon dan qaytarish uchun qizga xilvatda nasihat qilib ko'rdilar. Qiz ahdida qat'iy turgach, Mirzakalon qora xatjildarda maktublar ola boshladi. вЂњO'liklarвЂќ deb imzo chekkan maktub egalari Hamidaxon dan dahol voz kechishini talab qilar, kechmagani taqdirda o'zinigina emas, qavm-qarindoshlari va urug'-aymoqlarini ham bitta qo'ymay qirib tashlayajklarini vada etar edi. Bu ayanch, ayni zamonda kulinch voqeal tez orada Bilim yurti devorlaridan tashqariga yopirilib chiqib, вЂњYer yuzibвЂќ deb nomlangan jurnalda вЂњO'liklarвЂќ sarlavhasi ostida olamga mashhur bo'ldi. Bu ham yetmagandek, Moskvada nashr etiluvchi вЂњKomsomolKjskaya pravdaвЂќ gazetida ham elon qilindi.

ВЂњО'ликларвЂќ о'з nomi bilan o'limga mahkum edilar, ular sevishganlarni bir-birlaridan ayirolmadilar. Hamidaxonning ota-onasi Mirzakalonni kelgindi, uy-joysiz, asrandi deb qizini bermaganiga, вЂњО'ликларвЂќ har qadamda sevgilariga to'sqin bo'lganlariga qaramay, Hamidaxon ikkovlari birga yashab ketdilar. Ular o'zlarini g'olib hisoblab, masrur edilar. Biroq... mas'udlik uzoq davom etmadi. Ular uchun hech kutilmaganda komsomol tashkiloti bu masalani muhokamaga qo'ydi va вЂњшuncha shov-shuv ko'targani uchunвЂќ Mirzakalonni komsomoldan chiqardi. Shov-shuvning asl sababchisi, ishq ahliga suiqasd tayyorlagan вЂњО'ликларвЂќning tashkilotchisi esa suvdan quruq chiqdi.

Masalaning bir yoqlama hal etilgani yigitni qattiq ranjitdi. Oqshom chog'i yuragi yorilganday bo'ldi-yu, sevgani Hamidaxon bilan aytishib qoldi. Komsomoldan chiqarilishi ko'nglini og'ritgani bilan bu holni fojea deb bilmadi. Bu ondag'i jahonining qorong'uligi majlisdagiadolatsizlikdangina emasdi. U g'animlar qo'lining balandligidan ezilardi. Hamidaxonning ularga qarshi qat'iy bir gap aytolmaganligini ayb deb bilib, og'ir gaplarni aytib yuborishda tiyila olmadi. O'sha arazlashish onlaridan beri oradan yarim asrdan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, Mirzakalon tilidan uchgan so'zlari uchun hali hanuz o'zini kechira olmaydi. Hozir, boshi yostiqda, joni ajal hukmida ekanida Hamidaxonning kelganini sezib, undan yana bir bor uzr so'rashni istadi. Ammo tili aylanmadid...

O'shanda вЂњСени ко'rarga ko'zim yo'qbвЂќ! deb yuborgan edi. Qaysi shaytonning izmida edi o'shanda bu til?! Yuzlari shirmonday chiroyli sevgilisiga shunday deyishiadolatsizik, insofsizlik ekanini o'shandayoq fahmlagandi. Lekin o'sha damdayoq aybiga iqror bo'lishga yigitlik g'ururi yo'l qo'yman edi. Hamidaxon esa... yum-yum yig'lab, bir so'z ham demasdan uyiga ketgan edi. Ahmoqlik bulog'idan suv simirgan g'urur yana o'z ishini qildi: yigitning o'rnidan turishiga, sevgilisini ushlab qolishiga yo'l bermadi. Mirzakalon Hamidaxonini ikki kun ko'rmadi, o'zi ham hujrasidan chiqmadi: odamlarga ko'rinishdan uyaldi.

Istagingga yetar ekan qanotlaring sindimi,
ey ko'nglimning bulbuli?

Senga qarshi kulib turgan go'zal chechak tindimi,
tashladimi bir yo'li?

Havo yorgan ko'kragingni sevgi yeli tildimi
qon to'lami har tomon?

Ko'zlaringga ayrlinqning iplarini ildimi?..
shu qilig'i ko'p yomon.

Yo erkinlab hidlagani bermaylarmi gulingni,
to'salarmi yo'lingni?

Gul o'zimi ko'zlarining ko'zlarini qochirdi,
yo'qliklarga yoshirdi?

Shu yulungan parlarin-la
ucholmassan, yo'qsil qush,
U umidlar havosidan
endi bir oz tuban tush!..

Ikki kun davomida u ustozning sherlari bilan birga bo'ldi. Garchi turkiy millatlarning manaviy otalaridan biri hisoblangan Abdulhamid Cho'lpon hazratlari u damlarda faqat sherlari orqali tanish bo'lsa-da, shoirni o'ziga ustoz deb bilar, uning nomini qalbi to'rida ardoqlardi. Atrofdagi voqealardan ko'ngli ozor chekkan paytlarda ustoz sherlardan dalda olardi. Bu safar ham shunday bo'ldi. Uni ikki kun yolg'iz qoldi, demoqlik ham uncha to'g'ri emasdi. Manaviy otasining sherlari bor ekan, shogirdni vohid demoqlik nojoi.

Hujrasiga shom qirong'ilig'i bostirib kira boshlaganda surmarang samoga deraza orqali qarab Hamidaxoniga g'oyibona bo'zladi:
Yiroqlashdim, uzoqlashdim bir necha kun sendan,

hol so'rab ko'r mendan,

Nega muncha og'ir keldi bu yiroqlik menga,
anglatayin senga!

Chunki sening qarshingda men ayrlidiqdan o'ylamay,
ko'zlaringga tikildim,

O'zligimga, borligimga baho qo'ymay, sanlamay
erga qadar egildim.

U ko'zlarining toshqinida baliq kabi suzgan men,
ayrliqni o'ylaymi?

Boshqa dunyo, boshqa o'ydan bog'lanishni uzgan men,
senga qarab to'yaymi?

Mana endi bir necha kun sendan yiroq qoldim-da,
qayg'ularga ko'mildim.

Ayrlidiqda вЂњ qayg'u ichra ulushimni oldim-da,
ko'zlaringga xo'p bildim!

Endi senga ko'ngil dardin butkul ochib beraymi,
istaysanmi sen shuni?

Istamasang, qistamayman... oldin seni ko'raymi,
so'ng aytaymi men uni?

Yaxshi... endi qanotimni rostlayin,

Uchib borib oldin seni topayin,

so'ng dardimni ochayin!..

Dardini ochmoq uchun bormadi... Borolmadi... Qizning o'zi keldi. Uchinchi kun oqshom g'ira-shirasida, eshigi asta taqilladi.

Yuragi qinidan chiqib ketayozdi: bu uni ikki kundan beri intizor qilgan tanish tiqillash edi. O'rnidan sapchib turib, eshikni ochdi: ostonada yuzi so'lg'in, o'zi g'amgin, ko'zlarini qizargan, qo'lida ro'molchaga o'rog'liq bir narsa bilan Hamidaxon turar edi. Buyuk shodlik bilan ichkariga taklif qildi. Kirdi, ammo yuzidagi so'lg'inlik ketmadi. Qovoqlari soliq, dahshatli bir qaror bilan kelgandek edi. O'tirmadi-yu, tik turganicha gapirdi:

-Men... tushundim... meni ko'rmaslikka haqqingiz bor... mendan nafratlanishga haqlisiz... chunki... shunchalar sharmanda

bo'lishingizga mengina sababchiman... endi bu dog'imni o'z qonim bilan yuvishga, sizning huzuringizda jon berishga keldim!- dedi-da, ro'molchasi ichidan temir dastasi yaltillab turgan qora вЂњbraunningвЂќ вЂ“ to'pponcha chiqardi.

Bu ahddan, bu harakatdan Mirzakalon dovdirab qoldi. Biroq, tezda o'ziga kelib, qizning to'pponchani o'qtalishini ham kutib o'tirmay, keskin chovut bilan qo'lidan tortib oldi. So'ng eng shirin so'zlar bilan yupatib, nohaq xafa qilgani uchun uzr istadi. Gap orasida вЂњto'pponchani qaerdan oldingiz?вЂќ deb so'raganida qiz titroq lablari bilan вЂњpochchamnikibвЂќ, deb qo'ydi.

Mirzakalon Qudratillo qorini yaxshi tanirdi. Lekin uyida to'pponcha saqlashi, ayniqsa, qurol saqlashdan maqsadi uning uchun sir edi. O'sha kuni bu sirni aniqlashga urinib ham ko'rmadi. Keyinchalik bu to'pponcha boshiga balo bo'lishini esa bilmadi.

Uzrhohlikdan so'ng sog'inch qalblar taskin topdi. Ayrilik o'z sovuq gavdasi bilan yana oralariga suqilib kirgudek bo'lsa, jafo ko'rgan tomon qo'liga oladi, degan o'zaro vada va qat'iy qaror bilan to'pponcha Mirzakalonda qoldi...

To'pponchadan o'q otilmadi...

IV

Toshkent, Darxonadagi uch xonali uy.

1986 yil, 4 fevral, seshanba, soat 15.15.

...Hozir, labiga suv tomizilayotgan paytda, o'q qarsillab otilganday bo'lib, bemor seskanib ketdi. Yuziga urilayotgan tanish va yoqimli nafas tindi. Ayollarning ovozlari ham uzoqlashdi. вЂњKetdi,-deb o'yladi, armon bilan. Yuragidagi so'nggi tomirlardan biri uzilganini o'zi ham sezdi. -Endigi diyordi qiyomatga qoldi. Chaqirishgani yaxshi bo'lди, meni ko'rди, armon qilmaydi. Men ko'rolmadim... Bultur uchratganimda yuzidagi ajinlari bilan ham ko'zimga chiroyli ko'ringan edi. Yo'q... ajinlarini sezmagan edim... Yuzi ellik yil avvalgi chiroyda edi... Ajab...вЂќ

Shu payt ochiq derazadan yopirilib kirgan yelvizak uning yuzini silab o'tdi-da, xona eshigini taraqlatib yopdi. Bu ovozdan uydagilar ham cho'chib tushishdi. Nabiralaridan biri shoshilganicha kirib, derazani yopdi.

Yelvizakning bevoshligi tufayli barchani cho'chitgan bu tovush o'lim to'shagida yotgan bemorga qamoqxona temir eshigining qarsillab yopilishi bo'lib eshitildi go'yo. Bu tovush totli xotiralarini quvib, uni yana o'sha nimqorong'u, zax xonaga qaytardi.

Xonaning zaxligidan eti junjikdi. Oyoqlari sovqotdi. Bu sovqotish qamoqxona zaxligidan emas, oyoqni jon tark eta boshlaganidan ekanini u bilmadi.

вЂњO'zimdan tashqari bir dunyo ko'rdim...вЂќ

Bir soatlardan so'ng yana tergovchi huzurida hisob berishi lozimligini eslab, qo'liga qalamni oldi. Tergovchi undan Cho'lpon haqida malumot istab edi. Bu talabni bajarmay kirishining oqibati yomon bo'lishini fahmlab, yoza boshladи:

вЂњYigirma sakkizinchи yil Bilim yurtini bitirib, mustaqil hayot og'ushiga otildim. Men Bilim yurtiga sof yurak va yaxshi tilak bilan kirgan edim, ammo u mening qalbimga millatchilikning qora urug'ini sepib chiqardi. Bazan, Bilim yurtida o'tgan umrimga va u yerda olgan taassurotlarimga xolis ko'z bilan qarasam, Bilim yurti вЂ“ temirchilikka, talabalar esa millatchi-temirchi qisqichiga olingan va u xohlagan shaklga tushish uchun sandonga qo'yib bolg'anlanayotgan yumshoq metallga o'xshab ketadi.

Respublikada o'zbek yozuvini arab alifbesidan lotin alifbesiga ko'chirish tayyorgarligi bormoqda edi. Shu munosabat bilan Maorif xalq komissarligi Samarqandda lotinlashtirish instruktorlari tayyorlaydigan uch oylik kurs ochdi. Komissarlik meni ana shu kursga yubordi. Samarqandning Qo'shhovuzida joylashgan ushbu kursda uch oy o'qib, uni yigirma sakkizinchи yilning kuz oylaridan birida bitirib chiqdim. G'ozi Olim Yunusov, Fitrat, Qayum Ramazon va nomlari xotirimdan chiqqan yana boshqa millatchilar bu yerda ham o'z kirdikorlarini bahuzur davom ettirardilar. G'ozi Olim Yunusov Shayboniyxon kabilarni ideallashtirsa, Fitrat Bedil kabi mistik, Husayn Boyqaro kabi mustabid shoirlarni adabiyot dunyosining ko'klariga ko'tarar edi. вЂњLotinlashtirish instruktorlari tayyorlash kursивЂќ deb atalgan va ismi jismiga to'g'ri kelmagan bu muassasada aslan millatchilar tayyorlanar edi.

Men Samarqandda O'zbek davlat nashriyotidan bolalar uchun yozilgan kichik-kichik ruscha kitoblarni olib, tarjima qila boshladim. Bir kuni Naim Saidiy meni ko'rib: вЂњCho'lpon ko'chiruvchi axtarib yuribdi, xohlasangiz uchrangвЂќ, dedi. O'sha vaqt o'zbek adabiyotining yerida yurmay, ko'kida uchayotgan Cho'lponni ko'rish, uning xizmatini qilish вЂ“ menga katta martaba ko'rindi. Men darhol rozi bo'ldim va, adresini olib, o'sha kuniyoq Cho'lponning uyiga bordim. U ham Qo'shhovuzda, kursimiz biqinginasida turar ekan. Cho'lpon meni qabul qildi, tarif bo'yicha haq to'layajagini aytib, bir tutam qo'lyozmasini ko'chirishga berdi. Bu qo'lyozma arablar hayotidan olib yozilgan вЂњRasuliyвЂќ nomli romanning o'zbekcha tarjimasi edi.

Shunday qilib, men Cho'lponning kotibi bo'lib qoldim. Endi biz tez-tez uchrashar, ishga oid, ishdan tashqari horij masalalar haqida ham gaplashar edik. Cho'lpon, yangi yozgan sherlarini bazan o'qib turib, yig'lab yuborardi. Men avvallari bu yig'ilarning sababiga tushunmay yursam ham, keyincha bu ko'zyoshlarining asl manisini fahm qiladigan bo'ldim. Ko'chiruvchilik vazifam kun sayin qarib bordi. Cho'lpon ham men bilan ancha erkin gaplashadigan bo'ldi. Kunlardan bir kun Cho'lpon odatdagicha yig'lab turib, menga shu so'zlarni aytidi:

вЂњMillat xarob bo'ldi. Uning eng muqaddas narsalari: hurligi, shani-sharafi qo'ldan ketdi! Har qadamda yuragimiz qush hadigi bilan uradi. Endi bizning vazifamiz, kelajak avlodning vazifasi вЂ“ millatni sharmandalarcha qullikdan, haqorat va xo'rlikdan qutqazish bo'lishi kerak!

Cho'lponning yigima besh yil burun aytgan va men jumlama-jumla hozir eslay olmagan so'zları asosan yuqorida zikr etilgan maqsadlarni oldinga surar edi. Ammo Cho'lpon bu vazifani o'zi qanday bajarayotganini, boshqalar qanday bajarishi kerakligini aytmadи. Men ham so'rash darajasiga ko'tarilgan yetuk вЂњavlodlarsвЂќ dan emas edim.

Kurs tamom bo'ldi. Men Toshkentga qaytdim. Ammo Bilim yurti yuragimga sepgan millatchilikning urug'ini Cho'lpon Samarqandda sug'orib, undirib qaytardi...вЂќ

Mirzakalon barmoqlarida og'riq sezib, qalamni qo'ydi. Yuragida ham sanchiq turdi. Qamoqxonaning havosi sug'urib olib tashlanganday nafasi siqildi. O'rnidan turib, u yondan bu yonga yura boshladи. Boshi aylangach, karavotiga o'tirdi. Kaftini peshonasiga qo'ydi. Anchagacha harakatsiz o'tirdi. Qamoqqa olingenicha dom-daraksiz ketgan ustozini eslaganda yuragi hamisha bezovta tepa boshlaydi. Xayoliga esa ustozning satrlari quyilib kelaveradi. Birinchi marta qamalganida g'alati holat yuz bergen edi. Bundan ham torroq, bundanda zaxroq va sassiqroq kamerada yolg'iz o'tirganida sher o'qish bilan o'ziga o'zi dalda berardi.

Sening erkin tuprog'ingda hech haqqi yo'q xo'jalar,

Nega seni bir qul kabi qizg'anmasdan yanchalar?

Nega sening qalin tovshing вЂњketвЂќ demaydi ularga?

Nega sening erkli ko'ngling erk bermaydi qullarga?

Nega tag'in tanlaringda qamchilarning kulishi?

Nega sening turmushingda umidlarning o'lishi?

Nega yolg'iz qon bo'l mishdir ulushing?

Nega buncha umidsizdir turishing?

Nima uchun ko'zlarining tutashguvchi olov yo'q?

Nima uchun tunlaringda bo'rilarning qorni to'q?

Nima uchun g'azabingni uyg'otmaydi og'u-o'q?

Nima uchun borlig'ingda bu daraja buzg'unlik?

Nima uchun o'ch buluti sellarini yog'dirmas?

Nima uchun kuch tangrisi bor kuchi-la soldirmas?..

Ey, har turli quylliklarni sig'dirmagan hur o'lka.

Nega sening bo'g'izingni bo'g'ib turar ko'lanka?

Bu ham dardli, ham olovli satrlarni O'shdagi yetimxonada ekanida, Toshkentga otlanayotgan kezlari o'qib, darrov yodlab olgan edi. Bilim yurtida o'qishni boshlagan kezlar bu asarga raddiya sifatida shoir G'ayratiyning вЂњTuzalgan o'lkagabвЂќ degan sheri gazetada bosilganini bildi. Yana katta yoshli talabalarning o'zaro suhbatlaridan bildi-ki, Cho'lpon bir majlisdan keyin G'ayratiyga duch kelganida debdiki: вЂњHozir senga o'xshagan komsomollarning zamoni kulyapti. Keyinroq borib sharmanda bo'lishdan qo'rqqinsвЂќ...

Birinchi qamalgan kezlar ustozi hayot edi. Boshi uzra tuhmat bulutlari quyuqlasha boshlagan bo'lsa-da, o'zini dadil tutardi. Uning shu matonati Mirzakalonga birinchi jazodan eson-omon qutilib chiqishida dalda bergan edi.

Turmaning bir kishiga mo'ljallangan xonasida xotirasiga muhrlangan o'nlab sherlarni takrorlay-takrorlay, ajib bir quyma satlar tizmasi hosil bo'lganidan o'zi ham ajablandi. Har bir sherdagi yurak singari bezovta urib turgan ikki-uch satr ajralib chiqib, bir-biri bilan qovushgach, go'yo ustoz bilan muloqot yaratilganday tuyuldi. O'shandan beri yillar o'tdi. Bu muloqot xayolidan o'chmadi.

Urushning halokatli kunlarida ham bu satrlar hamroh edi. Hozir, tergovchi so'roqqa chaqiruvi arafasida yana o'sha suhbat boshlandi:

вЂњAziz otam, qo'limdag'i gullarning motam bo'lg'onini bilmaysan. Shodlik guli ko'pdan beri so'lg'onin yer ostida pok ruhing-la sezmaysan. Belgisiz qabringni qora tunlarda amalimning shamin yoqib izladim. Savol berdim: вЂњYo'qotganim qayda?вЂќ deb o'zimni ham yutmoq bo'lgan yerkarda... xayol, xayol... Yolg'iz xayol go'zaldir, haqiqatning ko'zlaridan qo'rqaman. Sezdim sening ketganiningni ko'ngildan. Ketgan yo'ling yiroq yo'ldir, keti yo'q. Qurib yotgan ariqlarning ko'zi senda. Bosh uchida aylanur bir to'p farishta jimgina. Kimsasiz yerkarda sirlar aytildi. Og'iz ochsang, yo'qsil elni ezmakka, qon qilmakka hasratlaring ko'p erur. Har so'zingni bir farishta qanotiga yozadur. Aytmading, og'zingni yumding-da ketding...вЂќ

O'ksiz ko'ngil qushi tushdi qafasga, sira yetolmaydur erkin nafasga вЂњ qora kunlar tushdi menim boshimga. Qip-qizil qon bo'lib kunlar botadur, yomon hidga to'lib tonglar otadur вЂњ og'ir kunlar tushdi menim boshimga. Jannat kabi bog'lar bululsiz qolgan. Osmon bo'yи tog'lar qulunsiz qolgan вЂњ qiyin kunlar tushdi manim boshimga. Hasratim ko'p, elga ayta olmayman. Armonim ko'p, dilga joylay olmayman вЂњ o'tli kunlar tushdi menim boshimga.

Hech joydan men kutgan zarvaraq chiqmadi. Ko'zimda og'ir bir taslim nuri bor вЂњ tutqun otalarning erkin avlod. Nechun yuzing yana so'lg'in, nechun uzun o'ylar? Tun yomon, tun qorong'i. Tun qo'rinch, tun azob. Oh, yo'llar qancha uzoqdir. Yozilmaganmi bu tunlar so'ngida tong otmak?

Bizning yo'limizda og'irlilik sonsiz. Menim yo'llarimda cho'zilgan tog'lar, qorga qo'yin ochgan qator dovonlar. Ko'zlarim yo'llarga tikilgan chog'lar ko'ngilda yo'l yurish istagi qaynar. O'zimga zavq ila sudragan hamiyat! O'limdan o'zgani ko'rmagan hamiyat!

Charchagan, tolgan, umidsiz ko'zlarim to'ymay qurar. Nechun ochildi ko'zim, qayga ketdi uyqularim?

Bir kecha xuddi bir yildir. Sabrning kosasi to'lgandir, bu og'ir ayriliq to'ldirgan. Ko'zlarimda har qayg'udan bir yig'i, yuzlarimda aldanishning belgisi. Turmushda, xayolda... Turmushda, xayolda... Har bir narsada yolg'iz aldanishni ko'rgan bir banda. O'ylangan o'ylarga ko'ngil yupanmas, ko'ngilning istagi o'y bilan qonmas. Bilmadim, ko'nglimni yupatgay kimlar? Eh, ko'ngil, yangi dardlar tag'in seni yoqajak. Qilich singan, qalqon teshilgan. Temir kishanlarning dahshati yedi. Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku?! Har yetim ko'zda tomchi-tomchi zahar, har faqir uyida ingrayish va yig'i. Har sorig' yuzda so'nggi shu'lа so'nar, har tomon, har tarafda bir qayg'i. Menim uyimmi qora yoki yurt ko'kida bulut? Qilichning tillarida qizil qon.

O'zimdan tashqari bir dunyo ko'rdim. Ko'm-ko'k ekan, sarg'aydilar yaproqlar вЂњ og'riq, mag'lub, tutqun Sharqning yuzidek.

Bo'ronlarning ko'zlarikim, o'ynoqlar g'olib G'arbning qonga to'lgan ko'zidek. Bu boqchada gul ko'p edi вЂњ so'ldi amalimdek.

Endi turmushimda oydin kechlar yo'q. Bu qafaslar ichida qachon tong otar? Kulgan boshqalardir, yig'lagan menman. Erk ertaklarini eshitgan boshqa, qullik qo'shig'ini tinglagan menman. Shu ojiz holimda shoirmanmi men?

Dillarimda g'am to'la bechoralarga yorman, vaqtি xush, g'am ko'rmaganlardan tamom bezorman. Yo'q ishim hokim, amaldor, shohu hoqonlar bilan! Haqiqiy birlikka shunda yo'l burdim. Charchagan qanotim kuch sezdi. Ko'nglimga alam oldim, qo'limga qalam oldim вЂњ yana jonlanmakchiman! Yozarkan, qalamim na hazin anglar. Yetar, bas, chekdan oshgandir bu qarg'ish, bu haqoratlar. To'lug'dir, balki toshgandir tubanlik va safolatlar.

Qo'limda so'nggi tosh qoldi, ko'ngilda so'nggi intilmak. Ko'zimda so'nggi yosh qoldi, kuchimda so'nggi talpinmak.

Qo'zg'olib ketganiningni bir ko'rsam. Yangi nashidalar dilga bitildi. Yolg'on xayollarga ko'chish yo'q endi. Ko'ngil shu choqqacha tirikmi edi, jonio ko'klardami, tandami edi? O'zimda bir turlik erkinlik sezaman. Ko'klam bilan yurtimga ham bir ko'karish kelsaydi. Ko'nglimdag'i so'ng umidim yo'q etma.

Ulug', qattig' ag'darguvchi bir kurash, yo bor bo'lish, yo yo'q bo'lish, yo'q yarash! Hayvonlarga, insonlarga zolim ega bo'lmay qolmas. Faqat erkin vijdonlarga ega bo'lmoq mumkin emas!

Uzoq, og'ir yo'lga chiqqan yo'lchiman, to'xtasam вЂњ so'nggi tinimda to'xtayin. Men yurtimning pok istakli kuchiman. Yo'q, o'lim yo'qdir! Bir o'chib, so'nib, yana yonish bor. Chunki men ko'rdim, ko'rib qoldim kerakli belgini. Endi har nafasda yana kuyaman, faqat Majnun bo'lib elni suyaman. Unga hurmat bilan bo'yin egaman, boshimni ul uchun dorga qo'yaman!..вЂќ

V

Qamoqxona. 1952 yil, 21 avgust.

Ustoz bilan muloqotini temir eshik darchasining sharaqlab ochilishi, so'ng soqchining вЂњIsmaili, na vixod, k sledovatelyu!вЂќ degan amri buzzdi. Eshik ochilgach, yozganlarini olib dahlizga chiqdi. Soqchi eshikni yopguniga qadar devor tomonga mutelik bilan qarab turdi.

Tergovchi uning bayonini o'qib, qoshlarini sal chimirdi. So'ng arzimagan qog'oz singari stoli ustiga tashlab qo'ydi-da:

-Ismoiliv, sen menga velosipedni qaytadan ixtiro qilib bermoqchimisan?-dedi.

-Men bilganlarimni yozyapman,-dedi Mirzakalon past tovushda. Tergovchining qosh chimirishi yaxshilik alomati emasligi malum bo'lgani uchun gapni ko'paytirmadidi. U tergovchining urib yuborishidan yoki tepib qolishidan qo'rmasdi. Kaltak zarbi og'riq bergani bilan o'tkinchi bir hol. U o'zini himoya qila olishga jur'at etolmaganidan, xo'rlik azobidan qiyalardidi.

Tergovchining qosh chimirishi aldamchi edimi, har nechuk mushtlari ishga tushmadi. Mahbusga tikilib turdi-da:

-Nahot Cho'lpon haqida bilganlaring shularning o'zi bo'lsa?-dedi.

-Oradan ko'p vaqt o'tdi...-dedi Mirzakalon ovozini balandlatmay.

-Ha, juda ko'p vaqt o'tdi,-deb tasdiqladi tergovchi.-Lekin vaqt hamma narsani o'chirib tashlashga qodir emas. Masalan, nima uchun romanning muhokamasini eslamading?

-вЂњKecha va kunduzвЂќнами?

- Uning faqat bitta romani bor shekilli?

-Ha, bittagina,-dedi afsus bilan Mirzakalon.-Lekin romanning muhokamasida men yo'q edim.

-Yozuvchilar soyuzidagi muhokamada bo'lmagandirsan. Lekin seni uyiga olib kirib o'qib bermaganmi? Eslashingga yordam beraymi? Sen uni dohiy Stalin haykali yaqinida uchratgansan.

-Ha,-dedi Mirzakalon ilojsiz odamning ezgin tovushi bilan,-o'tib ketayotgan edim, tasodifan ko'rishdim. вЂњRomanning muhokamasi haqida fikring qanday?вЂќ deb so'radilar. Majlisda ishtirot etolmaganimni aytib, uzr so'radim. вЂњIe, unday bo'lsa yur, senga o'qib beramanвЂќ, dedilar. Yo'q deya olmadim.

-Qiziq, u katta yozuvchi bo'lsa, sen вЂњkichkina yozuvchiвЂќ degan nomdan ham uzoq bo'lsang? Nega aynan senga o'qib bergisi keldi? Ehtimol, seni yosh yozuvchi emas, maslakdosh sifatida qabul qilgandir?

Tergovchi nozik joyidan ilgan edi, Mirzakalon bayonida shunga yaqin aybni bo'yniga oglani sababli tergovchining fikrini rad etolmadi:

-Shunaqa bo'lsa kerak.

-Roman milliy mahdudlik ruhida edi, Sovet Ittifoqiga qarshilik ruhi jo'shib turardi. Bunday asarlar yoshlarga moydek yoqadi, shunday emasmi?

-Shunday-ku... lekin roman tarixiy mavzuda edi, men unda siyosatni emas, barbod bo'lgan muhabbatni ko'rgan edim.

-Xo'p, balki sen rost aytayotgandirsan. Unda bizlarni u kimga o'xshatgan?

-Sizni?- Mirzakalon bu savoldan ajablandi, tergovchining maqsadini fahmlay olmadi.

-Kitobda yozilgan qanqiq yuzidan chachvonini olmaganda unga nima deyishadi? вЂњAxir yuzingni itlardan yashirmaysan-ku, bular ham shu-da!вЂќ demaydimi?

-Aynan bunday deyilmagan.

-Buni bilaman, men gapning manosini aytayapman.

-Bu bir personajning gapi, yozuvchining aqidasi emas. Badiiy adabiyotda bu ko'p uchraydi. Ayniqa Lev Tolstoyda.

-Menga adabiyot darsini o'tmay qo'ya qol. Senga hayron bo'lyapman, Ismoiliv, kecha aybingga iqror eding, bugun millatchining yonini olyapsan.

-Men siyosiy aybimga iqror bo'lganman. Cho'lponning millatchiligini tan olaman. Lekin adabiyot boshqa narsa.

-Bekor aytibsan!-Tergovchi ovozini balandlatib, unga g'azab bilan tikildi:-Bekor aytibsan!-deb yana takrorladi.-Adabiyot boshqa narsa emas! Sen buni yaxshi bilasan. Bo'pti, bu masalani hozircha ochiq qoldiraman. Sen menga birinchi qamalishing sabablarini yozib kel. Nima edi: вЂњAQDвЂќmi? O'sha paytdagi tergovda ming marta takrorlagan gaplaringni yozib ovora bo'lma. Menga yangi gap kerak. Balki вЂњAQDвЂќ bilan вЂњUndirkombвЂќ o'tasida uzilmas zanjir bordir? O'sha zanjirning halqlari kimlar? Shu savolga aniq javob kerak. Endi jo'na, joniimga tegding!

Nazortchi ko'ringach, Mirzakalon qanday mutelik bilan kirgan bo'lsa, o'shanday ahvolda bosh egib chiqdi.

Tun yarimladi. Kechalari tergovga chaqirilaverilganidan qush uyqusiga qanoatlanib qolgandi. Shu sababli yotgani bilan uyqusi kelmadi. Tergovchi yana eski gapni kavlayapti. вЂњAQDвЂќ haqida to'liq malumotni bergen. O'sha yillari ham yashiradigan sir qolmagan edi. Aslida, yashirishga arziyidigan mahfiylik ham yo'q edi.

вЂњDo'stвЂќлар...

O'qishni davom etdirish uchun O'rta Osiyo Davlat universitetining Sharq fakulKjtetiga kirgan, ayni zamonda Yusuf Tohiriyning taklifi bilan u ilmiy mudirlik qilib turgan O'zbek ishchilar fakulKjtetida ona tili darsi o'qitib yurgan kezlar edi. O'ttizinchi yilning ilk bahor kunlaridan birida kechqurun fakulKjtetda o'qib turganida Fozil degan o'rtog'i kelib, uni hilvatga chaqirdi-da, kolxozlashtirish munosabati bilan quloqlar ko'targan to'palonni pesh qilib, jim turish mumkin emasligini, bu zo'rlikka qarshi kurashish kerakligini aytди. Mirzakalon undan qanday kurashishni so'ragan edi, Fozil uyushish, tashkilot tuzish lozimligini bildirdi. Mirzakalon do'stidan gumonsiramagan bo'lsa-da, bu kabi fitnalar tez-tez uchrab turgani sababli darhol rozilik bera qolmadi. вЂњO'ylab ko'ramanвЂќ, degan bahona bilan bu taklifni rad etdi.

Fozil ketdi. Lekin butunlay ketmadi. Oradan bir necha kun o'tgach, fakulKjtetga kelib, вЂњuyushaylik!вЂќ deb, Mirzakalonni yana qistadi. Mirzakalonning вЂњQanday bo'larkin?вЂќ deb ijirg'aniganini ko'rib вЂњBiz yolg'iz emasmiz!вЂќ dedi. Mirzakalon yana kimlar borligini so'raganida Abzal bilan til biriktirib qo'yganini, kerak bo'lsa, boshlab kelajagini aytди. Mirzakalon bu safar ham ro'yxush bermaganidan keyin, Fozil uchinchi marta endi Abzal bilan keldi va ikkovlashib uning roziligidini oldilar.

Birinchi marta qamalganida ham, hozirgisida ham bu voqeani bayon qila turib вЂњMen ana shu kundan tortib Sovet davlatiga, sovet xalqiga qarshi jinoyatkorona kurash boshladimвЂќ, degan iqrornomani yozib bergen edi. Tergovchi yana shu masalaga qaytyapti. Maqsadi ayon: unga yangi nomlar kerak. Mirzakalon yangi nomlarni qaerdan oladi? Ayb ularning o'zlarida: fitnani oxiriga yetkazishda shoshilishdi вЂњo'zlarining ig'vagar odamlaridan tashqari hech kim bu tashkilotga qo'shilishga ulgurmadi. Hozir aniq eslolmaydi, o'sha o'ttizinchi yilning may yoki iyun oylrida edi shekilli, Fozil, Abzal, Qurbon вЂњto'rtovlon bo'lib shahar bog'ida to'planishib, uyushish haqida shu yerda qat'iy qarorga keldilar. Tashkiliy majlisni xotin-xalaj bo'limgani uchun Mirzakalonning uyida o'tkazadigan bo'ldilar. Oradan bir hafta o'tmay yana uch o'rtoq Mirzakalonning kelib, tashkiliy majlisni boshlab yubordilar. Majlisni Abzal, kotiblikni Fozil zimmalariga oldilar. Majlis kun tartibi katta emasdi: tashkilotning nomi; tashkilotning maqsad va maromi; tashkilotning oldida turgan eng yaqin vazifalari; tashkiliy masalalar.

Tashkilotning nomi ustida uzoq tortishuv bo'limagan edi. Sovet Konstitutsiyasida вЂњSSSR o'z ixtiyorlari bilan uyushgan milliy respublikalar ittifoqibвЂќ deyilgan modda bo'lgani uchun, вЂњo'z ixtiyorlari bilan chiqishi ham mumkinвЂќ, degan qaror bilan

tashkilot nomini b'Ty'Asosiy Qonun Do'stalarib T'k, qisqasi v'B" v'B'AQDbT'k deb qo'yishga qaror qilindi. Tashkilotning maqsad va maromi esa O'zbekistonni SSSRdan ajratib, uning turog'ida Turkiya singari burjua-demokratik davlati qurishni o'z ichiga oldi. Tashkilotning asosiy vazifalari sirasiga millatparvar yoshu qarini bu kurash yo'liga tortish, maorif va madaniyat idoralariga o'z odamlarini ko'proq joylashtirish orqali maktablar va madaniy muassasalarda o'z g'oyalarini kengroq yoyish, varaqalar nashr etish, biron chet el kapitalist davlati bilan aloqa bog'lab, undan moddiy va manaviy yordam olish kiritilgan edi.

Yangi azolar masalasiga o'tilganda Fozil dabdurustdan b'Ty'Birinchi galda Cho'lpon va Yusuf Tohiriylarni jalb etish kerakb'T'k, deb qoldi. Keyin bu taklifini izohladi:

-Cho'lpon barchalarimizning manaviy otamiz. Tashkilotni u boshqarsa, xalq unga ergashadi. Yusuf Tohiriy hanuzgacha xotinini paranji ostida tutadi. Singillarining ham ruhoni otasi tasiridan qutqarish chorasini ko'rmaydi. Demak, etiqodi mustahkam, millatparvar odam. Bizga shunday odamlar juda kerak. Bu ikki kishini tortishni Mirzakalonga topshiraylik. Chunki u Cho'lponga kotiblik qilgan, maqsadimizni to'g'ri tushuntira oladi. Yusuf Tohiriy bilan esa birga ishlaydi.

Bu taklifni eshitib, Mirzakalon o'ylanib qoldi.

-Gapim yoqmadimi?-dedi Fozil.

-Yoqishga yoqdi. Agar tashkilotimizni ustoz boshqarsalar nur alo nur bo'lardi-ya! Lekin Yusuf Tohiriyi tortish... Ko'nmasalar kerak. Chunki, xotinlarini paranjida saqlasalar ham siyosatga aralashadigan toifadan emaslar. Tohiriy v'B" marifatparvar odam, siyosatchi emas.

Cho'lponni tashkilotga tortish g'oyat muhim va sharafla vazifa ekanı yana takidlangach, Mirzakalon bu taklifni rad etolmadi. Keyingi majlisga qadar vazifani bajarishga harakat qilajagini bildirdi. Lekin ular bilan bu haqda suhbatlashishga ulgurmadi, keyingi majlis ham bo'lmadı. Bu fitnani o'ylab topib, amalga oshirayotganlarni kattaroq rahbarlar shoshirishdi shekilli. Bir kuni Fozil shoshilib kelib Cho'lponning Toshkentda ekanini, G'ozi Olimning uyida mehmon bo'lib turganini aytib, birga borish qistadi. Cho'lpon Fozilni tanimas, notanish yigit ishtirokida siyosiy masalada suhbatlashishi ham gumon edi. Mirzakalon buni aytса ham Fozil v'Ty'Men chetroqda tura turamanb'T'k, deb yopishib oldi. Bordilar. Ammo Cho'lpon yo'q ekan.

Ertasiga, aniq esida v'B" yigirma uchinchi sentyabr kuni Mirzakalon uyida dars tayyorlab o'tirgan edi. Fozil yana yo'qlab keldi. Qavat-qavat gazetaga o'ralgan oq v'Ty'naganb'T'kni ko'rsatib:

-Berkitib qo'yaylik, ishimizga yaraydi,- dedi.

-Nega bu yerga olib keldingiz, o'zingizniga berkitsangiz bo'lmasmidi?- dedi Mirzakalon norozi qiyofada.

-Sizniki xilvat, shu yerga yashirsak yaxshi bo'ladi. Siz qo'rwmang, bu to'pponcha buzuq, birov sizga davo qilolmaydi. Vaqt kelganda tuzattirib ishga solamiz,-dedi Fozil.

Mirzakalon unga ishondi. v'Ty'Do'stim menga xiyonat qilishi mumkinb'T'k, degan gumon uyg'onmadi. v'Ty'Naganb'T'kni o'tinxonaga yashirdilar. Fozil zarur ishlari borligini bahona qilib, shoshilganicha chiqib ketdi. Oradan ikki soat o'tmay, v'Ty'organ xodimlarib T'k kirib kelishdi. Birinchi bergen savollari qurol haqida bo'lди. v'Ty'Qurollarni o'zing topib berasanmi yo bizlarni qidirishga majbur qilasanmi? v'Ty'deyishgach, Fozilning shoshilib chiqib ketishi sababini angladi. O'zini oqlashga urinish nodonlik ekanini ham fahmladi. v'Ty'Hamonki, men do'st deb yurgan odam xiyonatkor ekan, uni himoya qilishimdan manfaat yo'qb'T'k, degan qarorga kelib, avval o'tinxonadagi v'Ty'naganb'T'kni, keyin Hamidaxonidan olib qo'ygan oq v'Ty'braunningb'T'kni olib berdi. Ajabki, Fozil v'Ty'naganb'T'kni buzuq deb ishontirgani bilan, to'pponcha ishga yaroqli, moylab, tozalangan jangovar holatda edi. Aksincha, Hamidaxonni o'zini o'ldirish uchun olib kelgan v'Ty'braunningb'T'k yaroqsiz, hatto zanglab ketgandi.

So'roq jarayoni bir yilga yaqin davom etdi. Iztirobli kunlarning cheki yo'qday tuyulgandi. Hozirgi qamoq azoblari oldingisiga nisbatan beshbattar yomon bo'l'sa-da, u kunlar iskanjasida ko'proq qynalgandi. 1931 yilda v'Ty'AQDbT'k yuzasidan bo'l'gan tergov tamom bo'lib v'Ty'Ishb'T'k deb nomlanuvchi uch kishilik yopiq sud hay'atiga yuborilganda, Mirzakalonni v'Ty'Toshkent DPZsib T'k deb ataluvchi qamoqxonaga ikkinchi marta chiqarib qo'ydilar. U umumiyo kameraga joylangan edi.

Borgan kunining ertasiga kamera eshigida Siddiq Xodievga duch kelib qoldi. Salomlashish o'rniha u Mirzakalonga:

-Men qachon sizlarning tashkilotingizga azo edim?-dedi nafrat bilan. Mirzakalon, haqiqatan ham, uning v'Ty'AQDbT'kga azoligini bilmas edi. Yelkalarini uchirib:

-Qaydam?-dedi va bu tuhmat bilan boshqalar ham qamalganini angladi.

O'shanda tergovchi talab qilgan uydurma gaplarni yozib bermagan edi. v'Ty'Troykab T'k sudida ham v'Ty'AQDbT'kning bir necha kunlik tarixi bo'yicha bilganlarinigina so'zlagandi. Endi, oradan yigirma yil o'tgach, nimalarni yozsin? Nima deb yozsa, tergovchining ko'ngli o'rniha tushadi? Qamoqdan chiqqanidan keyin Fozil bilan uchrashganini yozsinmi?

Bu kunni unutib bo'lmaydi. Mirzakalon hali qamoqda o'tirganidayoq ozodlikka chiqqanida Fozil bilan qanday ko'rishishini, unga nimalar deyishini ko'p o'yldi. Har holda Fozil osmonga uchib chiqib ketmagandir. v'Ty'Tog' tog' bilan uchrashmaydi, ammo odam odam bilan uchrashadib T'k, deyishganidek, qamoqda o'lib ketmasa xiyonatkor do'sti bilan uchrashishi tuyin. Xo'sh, uchrashgan onida uni ursinmi, tepsiymi yo xumordan chiqqunicha so'ksinmi? O'lay-o'lay bu rejalarining barchasi puch ekaniga ishonch hosil qiladi. Eng to'g'ri yo'l v'B" indamaslik. Agar odamiylik libosidan to'liq chiqib ketmagan bo'l'sa, vijdoni qynaladi.

Xiyonatkor uchun eng odil jazo shu! O'ch olish rejasidan kechgan Mirzakalonning xayolini v'Ty'Fozil mening qamoqdan chiqib kelishimni, menga ro'para bo'lismi hech o'ylarmikin? v'Ty' degan muammo ham band qilib turardi. Hayotda bevakolik ko'p, xiyonat ko'p,adolatsizlik ham ko'p. Bevafo, xiyonatkor, zulmkorlar yomonliklarini ongli ravishda qiladilar. Ayrimlari fosh bo'l'gan taqdirlarida o'zlarini oqlovchi bahonalarni ham tayyor qilib qo'yadilar. Bazilari esa bu haqda o'yalamaydilar ham, o'zlarini oqlash choralarini izlamaydilar ham. Mirzakalonni qiziqtirgan narsa: Fozil qay toifaga kirarkin? Shuncha yil do'st bo'lib yurib, uning feli atvorini kuzatmagani, yuragidagi qorani sezmagani uchun u faqat o'zini ayblardi.

Qamoqdan keyingi uchrashuv kutilmaganda yuz berdi. Shaharning markaziyo ko'chasi gayjum edi. Mirzakalon Davlat nashriyotiga borayotgan edi. Hashamatli do'kon yonidan o'tayotganda Fozilga qo'qqisdan uchrab qoldi. Fozil xotini Soraxonni Yevropa madaniyati taomiliga ko'ra, qo'ltilqlab olgan edi. Mirzakalon u bilan ko'rishmaslik uchun o'zini boshqa yoqqa burmoqchi bo'ldi, lekin vaqt ko'chgan edi. Yuzma-yuz kelib, ko'rishishga majbur bo'lди. Fozil op-oqarib ketdi. Yuragining qattiq o'ynashidan Mirzakalonning rangi ham o'zgardi. Bir necha damgacha nafasi bo'g'ziga tiqilib, aytarga so'z topolmay qoldi. Ajabo, nega bunday bo'ldi? Buning sababini o'zi ham bilmaydi. Fozil xotinini jo'natib yuborib, Mirzakalon bilan bir muddat qoldi. Uning topgan gapi shu bo'ldi:

-Har bir communist shunday qilishi kerak, ilojim yo'q edi.

Bu gapdan Mirzakalonning g'ashi kelib, uni so'z bilan chimchib, yulib olmoqchi bo'ldi:

-O'ldirib qo'yib, v'Ty'kechirasiz, men sizni o'ldirib qo'ydimb T'k, qabilidami?

-Nega? Men sizni to'g'ri yo'lga soldim,-dedi Fozil Mirzakalonni qaltiroq bosganini ko'rib. Uning bu so'zlarini Mirzakalon riyokor kishining tilyog'lomaligi sifatida qabul qildi-da, istehzo aralash nishtarlab dedi:

-To'g'ri yo'lga b'T“ qamoq orqali!..

Ortiqcha gap-so'zga hojat yo'q edi. Fozil yarashish uchun qo'l uzatdi. Mirzakalon javobsiz qoldirmadi. Xayrlashish paytida Fozil qattiqroq u esa sekinroq qo'l siqishdilar.

Ertasiga ertalab Fozil Mirzakalonning uyiga kirib keldi. вЂњHozir kamharjsiz, shuni ishlatib turingвЂќ, deb pul uzatdi.

Mirzakalon qat'iy rad etgach, pulni karavot ustiga tashlab, chiqib ketdi. Hovliga chiqa turib o'tinxona tarafga qarab oldi. Bu Mirzakalonga g'alati tuyuldi. вЂњQilgan ishimi eslab, pushaymon bo'lди shekillивЂќ, deb o'yladi. U o'zini gunohkor deb sezib, gunohini shu pul bilan yuvmoqchimidi yoki вЂњadashganingda seni to'g'ri yo'lga solib yuborgan edim, qynalganingda ham mushkulingni oson qilish do'stlik burchimbвЂќ, demoqchi edimi вЂњ Mirzakalon bu haqiqatning tagiga yeta olmadi.

Keyingi qamalganida tergovchi вЂњAQDBвЂќni esga olganida do'sti bilan qay holda uchrashgani bilan ham qiziqqan edi. Shunda Mirzakalon вЂњMen uni hozir qulab yotganim halokat jaridan o'sha yillariyoq astoydil qutqazishga intilgan sof ko'ngilli do'stim deb emas, aksincha, qabih millatchilik jinoyatlarimizni fosh qilib, bizni dushman qo'liga tutib bergan xoin deb bilar, o'zidan, so'zidan, yuzidan nafratlanardim. O'sha damda adashib, xato qilganimni keyinroq angladim...вЂќ degan edi. Bu iqroriga tergovchi ishonmadimi? Unga yana qanaqa gap kerak? Mirzakalon uni kechirgan edi. Urushdan keyin uyiga kelib-ketib yurardi.

вЂњUndirkombвЂќdan ham xabari bor edi. Nahot eski xiyonatkorligiga qaytdi? Axir вЂњundirkombвЂќdan siyosiy mano qidirish kulgili-ku?

Berlindan qaytgach, вЂњQizil O'zbekistonвЂќda bir yil ishladi. Kunduzi uuga borib dam olish, ovqatlanishga ko'p vaqt fursat bo'lmasdi. Boshqalar uchun ish vaqtı tugaganda mas'ul kotibning bosmaxonaga doir vazifalari boshlanib, gazeta sahifalaridan quyma qolip olingunga qadar ozgina bo'sh vaqtı bo'lardi. Shu vaqtidan foydalanib, redaksiya xodimlari samovorxonada tashkil etgan oshxo'rlikka borib turardi. Mirzakalon asli palovxo'rlar toifasidan bo'lgani uchun, Melievning gapi bilan bu to'pga qo'shila qolgan edi. Ularning davrasi Riqsi Sohibov, Holbek Yodgorov, Bahrom Rahmonov, Abdulla Olimjonovdan iborat edi. Rahmat Fayziy, Akmal Po'lat, Ahmad Ismoilov oralab qatnashishardi. Adham Rahmatov bilan Xotam Ikromovlar redaksiyada bo'lganlarida tovoq atrofidagi o'rinalarini sira bo'sh qo'ymas edilar. Saloh Hasanov boshchiligidagi xodimlarning o'z davrasasi bor edi. Bu oshxo'rliklarda kim qanday maqola yozgani, gazetada qanday yaxshi yo sayoz maqola bosilgani, bugun kim qanday maqola topshirishi lozimligi, bosilgan sher, fel'eton yoki hikoyaning sifat va fazilati haqida so'zlashish bilan birga askiyalar, hazil latifalar ham aytlib turilardi. Siyosat bilan bog'liq jiddiy gapni birontalari tilga olmas edilar. Bu oshxo'rliklar mas'ul redaktor Sharof Rashidovning qulog'iغا yetib borib, вЂњchoyxonadagi o'tirishlarni bitirib, kerak bo'lsa uy-uylaringizda madaniy ravishda gurung qilinglarвЂќ, deb tayinladi.

Shunday qilib, choyxonadagi sanqishlarga barham berildi-da, har o'n besh kunda bir marta to'planish sharti bilan navbatma-navbat bir-birlarini kiga boradigan bo'ldilar. Bu ham shakl, ham mazmun jihatdan вЂњgapвЂќning o'zi edi. Urushdan sog'-salomat qaytib kelgani va mas'ul sekretar bo'lgani uchun birinchи ziyofatni Mirzakalonning zimmasiga qo'ydilar. U qabul qildi. Kimlarni chaqirish masalasini esa ro'yxat tuzish bilan hal etdilar. Gap tashuvchi, chaqimchilarni davraga qo'shmadilar. Har sohada hamisha bo'lganidek, Xudo bu idorani ham chaqimchilardan qismagan edi. Shulardan biri haqida o'zlaricha latifa to'qigan ham edilar. Redaksiyani вЂњgullatibвЂќ yurgan chaqimchi shu qadar uydirmachi, yolg'onchi ham ekanki, agar u bir kun birov ustidan redaktorga kirib ig'vo qilolmasa, yani bahona topolmasa, o'zining ustidan ig'vo qilib bo'lsa-da, shu kungi ig'vogarlik normasini bajarib olar ekan. Shu odamga вЂњLenin uchqunивЂќ gazetasi redaktorligini taklif etibdilar. U вЂњqachongacha вЂњQizil O'zbekistonвЂќda mas'ul sekretarlarga orzumand bo'lib yuraman, kichkinaroq bo'lsa ham har holda вЂњredaktorвЂќ degan nomi borвЂќ, deb avval rozilik beribdi. Keyin o'ylab qarasa, chaqimchilik qilish uchun gazetada o'zidan katta odam bo'lmas ekan. Ana shunday qilib, azbaroyi chaqimchilikdan ajrab qolmaslik uchun, redaktorlikdan voz kechibdi!

Xullas, saralab-saralab, ulfat davrasi tuzdilar. Navbatma navbat ziyofat davom etaverdi. Bu o'tirishlarga uy egasi redaksiya xodimlaridan tashqari o'zi xohlagan kishilarni ham chaqirardi. Shu tufayli bu ulfat madaniyat ahlining shirin davrasiga aylana bordi. Shohida Mag'zumova va Olim Xo'jaev kabi artistlar, akademik-shoir G'afur G'ulom, shoir Hamid G'ulom, yozuvchi Said Ahmad ishtirok etgan davralar g'oyat qizigan edi. Said Ahmadning ichakuzdi hikoyalari, raqsga tushib ketishi davra chiroyini yanada ochardi. Bu o'tirishlarda sovetga qarshi gap aytish uchun fursat ham yo'q edi. вЂњUndirkombвЂќ degan gap esa uchinchi yo to'rtinchi ziyofatdan keyin chiqdi. Mirzakalon, undan keyin Bahrom Rahmonov, Akmal Po'lat hech kimga yalintirmay, qistattirmay, belgili kunda ziyoftlarni qilib berdilar. Navbat Abdulla Olimjonovga kelganda u вЂњpulim yo'qbвЂќ deb turib oldi. Ana shunday keyin bu nomard ulfatdan ziyofatni undirishga to'g'ri keldi. Buning uchun ortiqcha zahmat chekishga to'g'ri kelmadи. Mirzakalon qancha pul kerakligini so'rangan edi, u вЂњming so'mbвЂќ, dedi. Mirzakalon GalKdonining вЂњIkki boyga bir malayвЂќ pKjesasini Hamza teatriga tarjima qilib bergani uchun olgan qalam haqining bir qismini saqlab qo'ygan edi. Shart turib, po'lat sandiqdan ming so'm chiqarib berdi. Ana shunda Abdulla Olimjonov kulib yuborib, hazillashdi:

-Obbo Mirza akaey! Qo'yamadingiz, axiri undirdingiz-a! Undirkom, undirkom!-dedi.

O'sha ondan boshlab Mirzakalonning davradagi laqabi вЂњundirkombвЂќ bo'lib qolgan edi.

Mana endi bu hazil вЂњbir yumalabвЂќ siyosiy mano kasb etibdi-yu, вЂњSovet Ittifoqiga qarshi ish olib boruvchi siyosiy tashkilotвЂќga, Mirzakalon esa bu komitet rahbariga aylanibdi. Tintuv paytida uyidan chiqqan Vali Qayumxonning surati bu davoni isbotlaydigan yagona dalil edi. вЂњUndirkombвЂќ haqidagi gapni tergovchi tilidan dastlab eshitganda Mirzaklon kulimsirab qo'yib, ruschalab tushintirgandi. Oradan oylar o'tyapti, tergovchi buni tushunishni istamaydi. вЂњAQDBвЂќ bilan вЂњUndirkombвЂќni siyosiy zanjir bilan bog'lashga zo'r berib urinadi. Mirzakalon unga bu zanjirni yasab berishi kerak...

Tergovchi zanjirning ayrim halqalarini o'zicha topgan.

Shularning biri Vadud Mahmudiy edi. Mirzakalon u bilan qamalgan kuni ichki turma kamerasida tanishgan edi. Qo'rquv iskanjasida kirib kelgan yigitni kutib olib, dalda bergan bu ziyoli odam o'z taqdiridan so'z ochib вЂњMen qanday millatchi bo'lay? Men o'zbek emas, tojik bo'lsam! Meni o'zbek millatchisi deb ayblaytirlarвЂќ, degandi. Siyosiy gaplarni deyarli tilga olmay, tarixdan, diniy mazhablardan so'zlab o'tirardi. U bilan suhbatlarda Mirzakalon qamoqxonada emas, sharqshunoslik institutining o'quv xonasida o'tirganday his qilardi o'zini. Vadud Mahmudiyning gaplari bilan o'sha paytdagi tergovchi ham ko'p qiziqli. вЂњDavlat to'ntarishiga qanday tayyorgarlik ko'rayotganini so'rab, bilbвЂќ, degan topshiriqni ham berdi. Bu topshiriqni bajarmagani uchun Mirzakalon tepki ham yedi. Yigirma yildan so'ng bo'yning yana tuhmat sirtmog'ini tashlab bo'g'ayotgan bu tergovchining dardi ham shu. Yigirma yil muqaddam Vadud Mahmudiy davlat to'ntarishi yasashni o'ylagan bo'lsa o'ylagandir. Buning uchun qamoqda o'tirib chiqdi. Bularga yana nima kerak?

Mirzakalon bularning o'tmish bilan qiziqishlari sababini qancha o'yamasin, topa olmayotgan edi. O'tmishda bir qarmoqqa ilinganlarni yana qayta qamayotganlari asossiz ekanini bilganlar ham mo'm tishlab turishardi. Buning asl sababini esa ko'pchilik bilmasdi. Gap shundaki, urushdan keyin g'arbiy o'lkalarda, Boltiq dengizi bo'yidagi jumhuriyatlarda вЂњSovetlarga qarshi unsurlarni вЂќ, urush yillari fashistlarga xizmat qilgan yoki hayrixoh bo'lganlarni ushlab qamash avjiga chiqdi. Tabiiyki, Moskvadagi yuqori idoralar qaysi joyda, qancha odam qamoqqa olingani hisobini qilib turganlar. Yanada tabiiyki, joylardagi xodimlarning qanday jonkuyarlik va fidoyilik bilan ishlashlari qamalganlar soni bilan baholanardi. Ukrainada har oy bir necha ming dushman qo'lga olinib, qamalganda O'zbekistonda bu raqam bir necha yuzni tashkil qilgani, bu yerdagi xodimlarning sustligidan dalolat sifatida baholanardi. Bu past bahodan qutulishning birdan bir yo'li esa - qamash bo'yicha raqamlarni talab darajasiga yetkazish edi. Buning eng oson yo'li avval qamalganlarni yana bir elakdan o'tkazish, so'ng esa вЂњSovet hokimiyatining olijanobligiga shukr qilish o'rniha yana jinoiy harakatlarini davom ettirayotganliklari uchun вЂќ qamoqqa tiqish edi.

Qamoq kamerasida o'tirgan Mirzakalonga, nafaqat unga, balki yuz minglarcha jafokashlarga bu oddiy haqiqat qorong'u edi. Ajabki, oradan yillar o'tgach ham qorong'uligicha qolaveradi.

Mirzakalon o'zini zo'r lab bo'lsa-da, вЂњAQDB вЂќ tarixini qaytadan yozdi. Avvalgi malumotlarga hech qanday yangilik qo'shmadi. Oshxo'r ulfatlarning hazili tufayli yuzaga kelgan вЂњundirkomb вЂќ siyosiy libos kiydirishni xayoliga ham keltirmadi. Shu вЂњundirkomb вЂќ bahonasida begunoh oshxo'r larning jazoga tortilishi mumkinligini bilgani uchun ham har bir so'zni yozishda ehtiyyot chorasini unutmadi. Garchi, tergovchi Aleksandr Aleksandrovich o'zbek tilini bilmasa-da, uning har bir harf nima ekan, har bir belgini kavlashtirib, siyosiy xato topib beradigan yordamchilari borligini bilmaslik nodonlik bo'lur edi.

Besh tun tinch o'tdi. Mirzakalonni so'roqqa chaqirmadilar. Tergovchi kasalmidi, yo safarda edimi yo muhimroq ish bilan bandmidi, har holda bu kunlar va tunlar mobaynida uning yozayotgan iqrornomasi bilan qiziqmadni. Mirzakalon uning yo'qlovin kutmay, bayonini davom ettirdi. Tergovchi dastlabki so'roq kunlari uning urushdagi ishtirokini вЂњvatanparvarlik burchini bajarish вЂќ deb emas, fashistlarga asir tushib, xorija qochib qolishga bahona edi, deb baholagandi. Stalingraddan to Berlinga qadar bosib o'tilgan minglarcha chaqirim yo'l davomida fashistlar tomonga o'tib ketishga minglarcha sharoit tug'ilgan paytlarda nima uchun o'tib ketmagani bilan qiziqmadni. Tergovchi uchun aybnomaning mantiqqa asoslangan bo'lishi shart emasdi. Uning uchun muhimi вЂ“ mahbus aybnomaga iqror bo'lishi va o'zining mal'un ekanini asosli ravishda isbot qilib berishi shart edi.

VI

Janggoh... вЂњQochish вЂќ niyat

Urush go'yo hayot elagi edi: odamlarni elardi. Kim elakning tirqishlaridan tushib, qo'liga qurol olganicha jangga jo'nardi. Kim elakning simlariga yopishib olib issiq o'rniha qolishni xohlardi. Mirzakalon muxbirlar ko'p yozgani kabi вЂњqalb amri bilan, ko'ngilli ravishdab вЂќ frontga otlanmadni. Ko'p qatori unga ham harbiy komissariatdan chaqiruv qog'ozi keldi. Nomdor yozuvchilarning bu safarbarlikdan olib qolinishi aniq edi. Partiya uchun ularning miltiq otishidan ko'ra, bombadan ham kuchliroq hisoblangan so'z quroli bilan jang qilishlari, tabir joiz bo'lsa, вЂњpartiyaning sodiq jarchilar вЂќ sifatida bunda qolishlari muhimroq edi. Mirzakalon nomdor yozuvchi darajasiga yetmagan, tarjima kitoblari, maqolalari inobatga olinib, unga вЂњbronKjb вЂќ frontga borishdan ozod etiluvchi imtiyoz qog'ozi berilishi gumon edi. Chaqiruv qog'ozini olishi bilan safarga hozirlandi. U urushga borishdan, u yerda o'lib ketishdan qo'rmasdi. Uni besh farzandining mo'lillab qarab turgan ko'zlar iztirobga solardi halos. Farrux, Flora, Faridasi ancha ulg'ayib, onasiga yordamchi bo'lib qolishdi. Lekin Hasani bilan Oyzuhrasini endi-endi tetapoya qilib yuribdi... Besh bolani boqish Zuhraxoniga oson bo'lmas... Muxbirlar xalqni вЂњdashmanni tez kunlarda yanchib tashlaymiz вЂќ, deb ishontirishmoqchi bo'lishyapti. Dehqon yoki cho'pon bu gaplarga ishonayotgandir balki. Lekin dunyo voqealarini sergak kuzatuvchi ziyoli ahli, jumladan, Mirzakalon ham, bu urushning uzoq davom etishini sezib turishadi. Bugun farzandlari, yaqinlari bilan vidolashayotgan yigitlar tirik qolgan taqdirlarida ham ayrılıqlari oylar, yillar davom etajagini bilishmaydi. Qo'lida biron marta ham miltiq ushlagaman bo'z yigitning urushdan tirik chiqishi ham mahol... Urush вЂ“ ayrliq, urush вЂ“ azob... urush вЂ“ o'lim, hamma ayrılıq dardi bilan azob chekadi, lekin hamma o'lmaydi. Urushni o'lim deb urushdan qolish chorasini topganlarning qanchalari G'alaba kuniga yetib bormay o'lib ketdilar. Mirzakalon harbiy komissariatda вЂњbronKjb вЂќ olib quvonganlarning mashina halokati tufayli o'lganlarini eshitib, вЂњajaldan qochishning hecham iloji yo'q, ajalning вЂњbron вЂќ bo'lmaydib вЂќ, deb qo'yan edi.

Urushda ekanida вЂњurushdan keyin uyimga qaytib faqat bir kungina yashasam ham armonim qolmas edib вЂќ, deb orzu qilardi. Stalingradda qiyomat olovi ichida qolganida вЂњuyimda bir soatgina yashasam edib вЂќ, deb Xudoga iltijo qilgandi. Bir soat, bir kun emas, salkam besh yil yashash nasib qilgan ekan. Buning mukofotigami, qamoq azoblari ham qismatida bor ekan. Yo peshonasiga shu qamoq azoblari yozilgani uchun urushdan tirik qaytdimikan? Xudo urushda millionlarcha otilgan o'qlar yomg'iridan uni omon saqladi. Bu yerda bittagina o'q kifoya... O'sha o'q otiladimi? Uyiga qaytish nasib etadimi? Bir kungina... bir soatgina... bir daqiqaga bo'lsa ham mayli. So'nggi nafasini uyida, ozod holida olsa bas...

Tergovchi nemislar tomonga o'tishga intilgansan, deb davo qilyapti. Uch yil mobaynida farzandlarini sog'inib yashagan odamga bunday davo qilishning o'zi ahmoqlik edi. Agar yigitlik chog'i shu imkoniyalar bo'lganida ehtimol, o'tib ketardi. Shunda ham Vatanga xiyonat qilish uchun emas, Vatan ozodligi uchun chetda turib kurashmoq maqsadida o'tardi. Endi besh bolani qaqshatib ketish... Farzandlari ko'zlaridan tomgan bir tomchi yoshning uvoli tutmaydimi? Dunyon qonga belayotgan fashist bergen bir tishlam non tomoshidan o'tar ekanmi?

Bularni tergovchi tushunishi qiyin. Tushuntirishga harakat ham qilmaslik kerak. Unga iqror kerak bo'lsa, yozib beradi o'sha iqrorni. Yozmasa... birinchi galda xotini Zuhraxonga daf qiladilar. вЂњXalq dushmanining xotinib вЂќ deb qamalganlar qismatini Mirzakalon biladi. Hatto o'smirlarga ham вЂњdashman bolasib вЂќ deb ayb taqab qamashlari hech gapmas. Ayniqsa, Zuhraxonga qo'shimcha ayb sirtmog'ini osonlik bilan yasaydilar. To yigirma to'rtinchi yilgacha O'shda qozilik qilgan Oxunjon qozining qizini dushmanlikda ayplash ular uchun qiyin ish emas...

Shularni o'ylab yotgan Mirzakalonning yuragi o'ynab, turib ketdi. Huddi hozirning o'zida yaqinlari qamoqqa olinayotganday, shoshildi. Qo'liga qalam olib yoza ketdi:

вЂњGitler Germaniyasi SSSRga xiyonatkorona hujum qildi. SSSR xalqlari oldida abadiy ozod bo'lib qolish yo fashizm qulligiga tushish, bor bo'lib qolish yo yo'q bo'lib ketish masalasi turar edi. Ana shu xatarli paytda sovet xalqining ko'p farzandlari qatori men ham Sotsialistik vatanimiz mudofaasiga chaqirildim. Men bilan birga Mumtoz Muhamedov, Maruf Hakimov va boshqa yozuvchilar Toshkentdagisi Piyoda askar ofitserlari tayyorlash maktabiga yuborildik. Biz u yerga 1942 yilning may oyida kirib

bordik. Men bilan Mumtoz pulemyot rotasiga, Maruf Hakimov boshqa batalKjonning o'qchi rotasiga joylandik. Bizning rotamizda Mumtozdan bo'lak o'zbeklar ham bor edi. Ularining bir qanchasi bilan apoq-chapoq bo'lib ketdim. Ammo ularning ism-familiyalarini unutganman yoki to'liq bilmayman. Bir yigitni вЂњMamat bolabЂќ deganimiz, yana Rasul degan yigit yodimda qolgan. Dam olish daqiqalarida men ularga o'n olti mamlakatning texnika va jonli kuchi bilan ustimizga balo-qazodek yopirilib kelayotgan Gitler o'rdularini qaytarish u yodqa tursin, to'xtatish mumkin emasligi haqida gapirdim. O'shanda oramizda tahminan mana shu mazmunda gaplar bo'lardi:

- Nemis balo ekan, bizning urug'imizni o'ynatib yubordi-ku!
- Hozir frontga borish вЂ“ laqqa go'sht bo'lish-da!
- Borishga-ku, boramiz-a, lekin jonniji jabborga berib urushadigan go'sxo'r topilarmikin?
- Ie, borganingdan keyin urushmay chorang qancha?!
- Chorasi yo'q narsa yo'q.
- Nima demoqchisan? Yo sekin...
- Shu-da, sekin o'tamiz-ketamiz.
- Rost aytasan, o'tish-ketish вЂ“ boshqa gap yo'q!

Bunday suhbatlarda Mumtoz kam bo'lardi, bo'lgan paytalarida esa bizga tanbeh berardi. Dushmanchilik, sotqinchilik maqsadida aytilgan bu fikrlarning konkret egalarini oradan ko'p yillar o'tib ketganligi uchun hozir eslay olmayman. Hozir aytishim mumkin bo'lgan aniq gap: harbiy maktabda bir grupper tashkil qilib, frontda dushman tomoniga xiyonatkorona o'tib ketish haqidagi rejamiz shu sabablar bilan amalga oshmay qoldi:

1. 1942 yilning iyulKj о'rtalarida harbiy maktabning kursantlaridan вЂњkursantlar polkiвЂќ tashkil etilib, frontga jo'natildi. Menga hamfikr bo'lgan Mamat bola va Rasullar shu polk safida frontga ketishdi. Men ularning taqdirlari nima bo'lganini hozirgacha bilmayman. Maktabda Mumtoz bilan men qoldim. Hamfikrlar ketishgach, Mumtoz bilan bu haqda gaplashmadik.
2. Men ham uzoq turmay, 1942 yilning 15 avgustida frontga jo'nab ketdim. Maktabda Mumtozning o'zi qoldi. Urushdan so'ng uyga qaytganimda Mumtozni O'zTAGda ko'rdim. U rais muovini bo'lib ishlar ekan. Harbiy maktabda ekanimizda dilimda tug'ilgan reja haqida gaplashmadik. Mumtoz OktyabrKj raykomiga sekretarKj bo'lgandan keyin ham meni esdan chiqarmadi. 1949 yilda, Yozuvchilar soyuzining uchinchi plenumi bo'lib turganda, soyuzga mashinasini yuborib, meni uyiga oldirib ketdi. Borsam, u yerda Adham Yunusov, uning xotini Hasana, mening xotinim Zuhra o'tirishibdi. Mumtoz meni quvonib qarshi oldi. Plenumda bo'lgan gaplardan so'radi. Usmon Yusupov o'zini yaxshi ko'rganligini, yaqinda Ministrlar Soveti huzuridagi San'at ishlari boshqarmasiga boshliq bo'lib ko'tarilajagini aytib, qo'l bola musallas bilan xo'b mehmon qildi. Mumtoz Muhammedovning Adham Yunusov bilan qanday aloqasi borligini men fahmlamadim. Bu yerda organi qiziqtiradigan gaplar bo'lganini eslay olmayman.

Yozuvchilar soyuzining shu plenumida, plenumdan keyin jamoatchilik meni ishdagi kamchiliklarim tufayli qattiq tanqid qilib yurgan kezлari, 1950 yilning sentyabrida San'at ishlari boshqarmasining boshlig'i Mumtoz Muhammedov meni o'z boshqarmasi huzuridagi Repertuar komitetiga boshliq qilib oldi. Bir kuni, uning xonasida, oramizda shunday gap bo'lib o'tdi: u vaqt Koreya xalq demokratik respublikasining territoriyasini Amerika aeroplani yirtqichlarcha bombalamoqda edilar. Men shu tufayli xalqaro havoning buzilayotganini, yana urish boshlanishi ehtimoli borligini aytdim. Shunda Mumtoz istehzo bilan kulib turib:

-Namozning qazosini o'qir ekansiz-da?-dedi.

Men uning kinoyasini tushungan bo'lsam ham aniqlab olmoqchi bo'ldim:

-Yani?

-U safar o'tolmovdingiz, bu safar o'tar ekansiz-da...

Mumtoz mening harbiy maktabdagi nodonlarcha tuzgan rejami yodimga solib, tanbeh bergen edi. Men yoshlikda kallaga har turli ahmaqona fikrlar kelishimi ro'kach qilib, o'shandan beri astoydil pushaymonda ekanimni aytdim...вЂќ Bu satrlarni yoza turib, qo'l tolganday, qalamni qog'oz ustiga tashladi. Aslida qo'l emas, qalbi tolgan edi. Xayolni chalg'itish, ruh xordig'ini chiqarish maqsadida badantarbiya qila ketdi. Odatta badantarbiya ertalab qilinlar edi. Bu yerda erta va kechning farqi yo'q, hafta kunlaridan qay biri o'tayotganini ham bilmaydi. Shunday ekan, qachon xohish bo'lsa, badantarbiyani boshlayveradi. Nafas olishi tezlashib, peshonasidan muzdek ter chiqqach, harakatlarini bas qilib, karavotiga o'tirdi. Temir eshik darchasi ochilib, peshinlik taomni uzatishdi. Bir burda qora non bilan bo'tqani yeish ham uning uchun og'ir vazifa. Qo'l вЂ“ itoatkor, qoshiqni oladi, bo'tqani og'izga olib boradi. Og'iz ham itoatkor вЂ“ ochiladi, taomni qabul qilib oladi. Ammo tomoq o'jar, bu bemaza taomni o'tkazmayman, deb qaysarlak qiladi. Til bo'tqani og'iz bo'shlig'ida aylantiraveradi, go'yo tomoqni aldamoqchi bo'ladi. Pastroqda oshqozon ham nolib, вЂњbemaza bo'lsa ham o'tkazib yuboraver, menga baribirвЂќ, deydi. Tomoq bu talablarga bo'y sunadi... Urush davridagi taomlar bemazalikda bunisidan qolishmasdi. Lekin uni yeishda bunchalik qiynalmasdi. Bemaza bo'lsa ham taomni ozodlikda yeishning gashti bo'lakcha ekanini bu yerda his qildi.

Harbiy maktabdan uni to'g'ri janggohga yubormadilar. Ular shahardan tashqariga chiqib, G'azalkent yaqinidagi Ozodbahshda amaliy mashg'ulotlar o'tkazishayotgan edi. вЂњSAVOвЂќ deb atalmish Siyosiy bo'lim vakili kelib, Mirzakalonni chaqirdi-da, Toshkentga olib qaytib Jalolov ihtiyyoriga topshirdi. Jalolov вЂњpolitrukвЂќ вЂ“ siyosiy rahbar unvonida edi. Stalingrad frontida tashkil etiladigan o'zbekcha front gazetasi вЂњQizil ArmiyaвЂќ redaktor o'rinosari qilib tayinlangan Jalolov bopta xodimlar tanlash bilan band edi. U Mirzakalonidan frontga borish istagi bormi-yo'qligini so'radi. Aslida urush chog'i harbiy kiyimdag'i odamdan bunday savol so'ralishi qiziq edi. Mirzakalon bu savolni rasmiyatichilik uchungina berilganini anglab: вЂњEl boshiga tushgan to'y, istakka o'rin yo'qbвЂќ, deb qo'ydi. Jalolov vazifalarini tushuntirgan bo'lib, so'ng tahririyat xodimlari bilan orqavarotdan tanishtirdi:

-Men va sizdan boshqa mashhur til olimi, hamshahrim, leytenant Ulug' Tursunov, Erberg degan yahudiy olimi, korrektor Solih Abdukarimov, mashinistka-kotiba Zefo Shamsuddinova, metrancap Abdurahim O'rozov, linotipchi Zikrillo Umrzoqov, hammasi bo'lib yetti kishimiz. Ochig'ini aytasam, sizning o'rningizga Abdulla Qahhorni mo'ljallagan edim. Lekin SAVO ko'nmadni, uning front ortida qiladigan ishlari ko'p ekan.

Ikki kundan keyin yo'nga tushishdi. Ular felKjdmarschal PaulKjs qo'mondonligidagi qo'shin Stalingradga tahdid solayotganini axborot oqimi orqali bilishardi. Lekin do'zaxning yer ustiga ko'chganini o'sha yerga borib ko'rishdi. Olamning chumolidan ham haqirroq ekaniga ham shu yerda guvoh bo'lishdi. Ularining tahririylari joylashgan vagon janggohdan nariroqda bo'lsa-da, portlayotgan bombalarining gumbur-gumbur tovushi yaqqol eshitilib turardi. Bazan esa adashgan bombalar shu yaqin atrofda portlab, barchanining jonini halak qildi. Oqshom chog'i spirtga suv qo'shmay ichib, qizishib o'tirishganda portlagan bomba

vagonni ham qalqitib yubordi. Jalolov jonholatda sakrab turib ketgan hamkaslariga qarab kului:

-Bunisi holva, hali nemis bir bombalasin, bir bombalasin-ki, sichqonning inni ming tilla bo'lib ketsin. Keyin qarabmizki, Ulug' Tursunovning ikki qo'li yo'q, Mirzakalonning ikki oyog'i yo'q!-shunday deb ko'zlarini ayyorona qisdi:-Toshkentga qaytishadi-yu, ko'chada tilanib o'tirishadi!-U kulgidan to'xtab, yupatish ohangiga ko'chdi:-Xafa bo'lmanqlar, o'tgan-ketganda bir so'm-yarim so'm sadaqa berib turaman.

Bu sovuq gap hazil tariqasida aytilgan bo'lsa-da, badandan muz yugurganday tuyuldi.

-Nafasingizni issiqroq qiling, yaxshi gapga ham, yomoniga ham farishtalar v'Tyomiyinb'Tk deb turisharkan.

-Men-ku, yaxshi nafas qilarman-a, lekin Gitlerning bombalari farishtalaringizning v'Tyomiyinb'Tk bilan hisoblashib o'tirmasa kerak.

Ulug' Tursunov bu gapdan achchiqlanib, tashqariga chiqib ketdi. Jalolov esa urush falsafasi haqidagi fikrlarini Mirzakalonga bayon qilib, uning boshini qotirdi. Avvaliga Qamishinda ko'rghanlarini aytib, ko'zlariga yosh oldi:

-Qamishinda nuqul o'zbek yaradorlarini ko'rdim. Bechora o'zbek allakimlarning dasht-sahrosini saqlayman, deb qo'ydek qirilib ketyapti! Urushga bo'yindan bog'langan itday keltirib solinayotgan, talim ko'rman askar bilan g'alaba qozonib bo'lmaydi.

Hademay Stalingrad ham payhon bo'ladi, sovet ham iniga kirib ketadi. Sovet jangchilarining fidoyiligini maqtagan siz bilan men esam ahmoq bo'lib qolaveramiz. Dunyod ahmoq bo'lib o'lishdan azobliroq narsa yo'q.

Mirzakalon uni kayfi oshib qolgan, deb guman qilgani uchun ortiqcha bahslashmadi.

Ertasiga Jalolovni tahririyat partiya tashkilotiga shoshilinch ravishda chaqirib qolishdi. Oradan uch soatcha vaqt o'tgach, u ruhi siniq holda qaytdi. Maqola yozish bilan band bo'lgan Mirzakalon unga qarab qo'ydi-yu, ahvolini sezsa ham, sababini so'ramay, ishini davom ettirdi. Oradan bir necha daqiqa o'tgach, Jalolov chuqur v'Tyufb'Tk tortgach, ezgin ohangda gap boshladi:

-Mirzakalon, bu vagon nimadan yasalgan, bilasizmi?

Mirzakalon savolning no'noqligidan ajablanib, boshini ko'tarib unga qaradi-yu, lekin javob bermadi.

-G'ildiraklari temirdan, tepasi taxtadan, deysiz-da, shundaymi? Men ham shu fikrda edim. G'ildiraklari temirdanligi rost. Lekin tepasi quloqdan yasalgan, bilmasangiz bilib oling.

-Bir gap bo'ldimi?

-Bir emas, ancha gap bo'ldi. Yaxshiyam bu quloq eshitganlarini Konotopga yetkazibdi, undan nariga o'tganida men hozir boshqa joyda dabdalma chiqmagan taqdirda ham so'roq qilinayotgan bo'lardim.

-Biron ig'vo chiqibdimi?

-Ig'vo emas, bor gap. Kechagi hazilim redaksiya xodimlarining dushmanga nafratini susaytirib, g'alabaga bo'lgan haroratini sovutish maqsadida aytilgan ekan. Qisqasi, v'Tyqo'poruvchib'Tk degan jandaga o'rav qo'yishlariga oz qoldi.

-O'sha v'Tyquloqb'Tk men emasmanmi, ishqilib?-dedi Mirzakalon.

-Sizdan gumonim yo'q. Agar siz bo'lganingizda urush siyosatida katta xatoliklarga yo'l qo'yilayotgani haqidagi gapim bilan asfasosilinga jo'nab qolardim. Umuman... hech kimdan gumonim yo'q. Toshkentdaligimda chirolyi, silliq qalamingiz uchun emas, millat uchun yona olishingizni, yuragingizning tozaligini hisobga olib, sizni tanlagan edim. Sizni tavsija qilganlarning ham yuragi pokiza. Bizni bir dard birlashtiradi. Ammo dardkash bo'lishdan qo'rquamiz. Hozircha siz ham v'Tyquloqb'Tkdan ehtiyoj bo'ling. Bu do'zaxdan omon chiqib olsak bas.

Kutilmagan uchrashuvlar

Mirzakalon o'shanda v'Tyfarishtalar v'Tyomiyinb'Tk deb yuboradib'Tk, deb bekorga ogohlantirmagan edi. Oradan bir yil o'tmay, poezd-redaksiyalari Dnepr sohilida turganda nemis aeroplani tashlagan bombardan portlab ketdi. Zefo halok bo'ldi. Jalolov esa yaralanib, majruh holatida uyiga qaytdi. Ayni paytda yuzlab bombalar portlayotgan jang maydonida bo'lgan Mirzakalon esa omon qoldi. v'Ty Yuz yil qirg'in bo'lsa, ajali yetgan o'ladib'Tk, deb shunga aytadilar.

Bu falokat Mirzakalonni og'ir ahvolga solib qo'ydi. Avval Ulug' Tursunov, keyin Erberg boshqa xizmatga yuborilgan edilar. Gazetaning barcha tashvishi ikki kishining zimmasida edi. Bu ham holva ekan, Jalolov ketgach, bosh muharrir o'rinosari ham, tahririyat kotibi ham, tarjimon, harbiy muxbirni ham, hatto texnik xodimi ham yolg'iz o'zi edi. Shunday kezlarda barcha gazetalarning muharrirlari Moskvaga chorlandi. Garchi Mirzakalon bu lavozimda bo'lmasa-da, boshqa odam yo'qligi uchun u ham safarga jo'natildi. Bosh Siyosiy Idora tomonidan Moskvada chaqirilgan frontlardagi milliy gazetalar redaktorlarining kengashmasida o'zbekistonlik gazetachilardan Rustam Abdurahmonov, Adham Rahmatov, Sharif Bo'latov, Rasuljon Muhamedovlarni ko'rib boshi ko'kka yetdi. Ular bilan avvaldan tanish bo'lgani bilan, sirdosh, dardkash emas edi. Shu bois o'zaro o'tgan suhbatlarda siyosatga aloqador gap-so'z bo'limgan edi. Faqat bir marta, choy ichib o'tirishganda Adham Rahmat adabiyotdan so'z ochib qoldi:

-Abdulla Qahhorning hikoyalarini o'qiyapsizlarmi? Yozilishi yomon emas-ku, lekin jang tafsilotlari tasvirlari ancha sayoz-da.

-Urush ko'rmangan odamdan yana nimani talab qilasiz?-dedi Rustam.

-Jang tafsiloti, jangchi kechinmalarini berishga chirolyi so'zlar tizimi yetarli emas, do'zax azobini his qilish kerak,-dedi Mirzakalon Adhamning fikrini qo'llab.

-Urushni o'z ko'zi bilan ko'rmay turib ham his qilish mumkinmi?- Rustam shunday deb o'z fikrini qat'iylik bilan himoya qildi.

-Mumkin,-dedi Mirzakalon ham bo'sh kelmay,- Lev Tolstoy Napoleon bosqinini ko'rmangan edi-ku? v'Ty Urush va tinchlikb'Tkda his, tuyg'u yo'q, deb kim ayta oladi?

-Buning uchun urushni ko'rmay turib yozadigan odamda Lev Tolstoy qalami bo'lishi kerak.

-Tolstoy qalaminib o'zi bilan go'riga olib ketgan deb o'ylaysizmi? Navoiyni bergen xalqdan Tolstoydan o'tib ketadigan yozuvchi chiqmas ekanmi?

Mirzakalonning bu gapi o'tirganlar uchun balandparvoz bo'lib tuyulishidan tashqari, o'tmishni sog'inishdan ham tashqari, siyosiy xato mavjudday tuyulib, kulimsirab qo'ya qolishdi, mavzuni davom ettirishmadni. O'zbeklar orasidan ulug' rus xalqining buyuk yozuvchisidan aloroq adib yetishmog'i orzusi zamiridan o'zgacha manolar oqib chiqishini barchalari sezib, suhabatni bas qilganlari bir tomonidan yaxshi ham bo'lgan edi. Mirzakalon buni sezib, chekish bahonasida tashqariga yo'l oldi. Adham Rahmat ham shu bahonada unga ergashdi.

-Jangda o'layotganlar bizning zimmamizga katta vazifa yuklab ketishyapti,-dedi u papirosvini tutatib.-Agar urush haqiqati haqida romanlar yozilmasa, xalq yozuvchilardan rozi bo'lmaydi. Shularning bir nechasini siz yozishingiz kerak bo'ladi.

-Nima uchun men? Nima uchun Adham Rahmat emas?-dedi Mirzakalon hazil ohangida.

-Siz badiiy adabiyot maydoniga kirib kelgansiz. Men esa publisistman. v'Ty Urush va tinchlikb'Tk darajasida asar yozish uchun

Qodiriy qalami kerak, Cho'lponning ehtirosi bilan qalbi kerak. Sizda ikkovi ham bor. Cho'lponning shogirdidan talab katta bo'ladi.

-Qaysi Cho'lpon? Millatchi, xalq dushmani Cho'lponni aytapsizmi?

Bu gapni eshitib Adham Mirzakalonga norozi qiyofada qaradi. So'ng bosh chayqab, dedi:

-Biz hozir ikki kishi gaplashyapmiz. Orada uchinchi odam bo'lsa, shunday desangiz ayb hisoblanmasdi. Bilaman, og'zingiz kuygan, qatiqni ham puflab ichasiz. Lekin haqiqat bitta ∞ ko'z yumishga haqqimiz yo'q. Demak, urush haqidagi romanni birinchi bo'lib siz yozasiz.

-Nima, roman yozishga sizning kuchingiz yetmaydimi? O'zingizga o'zingiz ishonmayapsizmi?

-Gap kuchda, ishonishda emas. Men bir qarorga kelib qo'yanman. Tirik qolsam, urushdan keyingi vazifam tayin: o'zingiz ham kuzatayotgandirsiz, yuzlab askar yigitlarimiz nomsiz qabrarga ko'mib tashlanishyapti. Uylariga ∞ bedarak yo'qoldi ∞ degan ikki satr xabar yuborishyapti. Urushdan keyin o'sha ∞ bedarak ∞ qahramonlarning nomini tiklashga hayotimni bag'ishlayman.

-Adhamjon, agar malol olmasangiz vazifangizga jindek tahrir kirtsam,-dedi Mirzakalon quvlik bilan,- Urushdan keyingi birinchi vazifangiz, uya qaytishingiz bilan to'xtovsiz ravishda to'y qilsangiz-u, hayotingizni birinchi galda umr yo'ldoshingizga bag'ishlasangiz. Qaylig'ingiz sizni sog'ingandan sog'ingandir, xat yozaverib charchab ham ketgandir.

-Kunda bo'lmasa ham haftada ikki-uch xat yozishi rost,-dedi Adham mayus kulimsirab,-o'zim ham qanot chiqarsamu uchsam deb yashayapman.

Shundan so'ng mavzu oila sog'inchlariga ko'chdi. Ularning suhbati qorong'ulik bag'rige singib ketdi, hech kimga oshkor bo'lindi. Qalam ahli orasida siyosiy mavzuda gap ochilmagani tergovchiga malum ekan shekilli, so'roq paytida ∞ bedarak kim edi, milliy masalada nimalar deyishdi? ∞ deb qiyin-qistovga olmadi. Uni ko'proq Meliev, ayniqsa Fozil bilan bo'lgan uchrashuvlar tafsiloti qiziqitirardi.

Melievni ko'rgandagi quvonchi rost. Quchoqlashib ko'rishgani ham rost. Moskvaga yo'l oorganida frontchi gazetachilar orasida vatandoshlarini ko'rishga umidi bor edi. Lekin Toshkentdan kelgan qalam ahli bilan uchrashuvi yetti uxbab, bir tushiga kirmagandi. Birinchi qamoq muddatini o'tab chiqqanidan keyin O'zbekiston Davlat nashriyotida ishlab yurganida orttirgan qadrondi shu Meliev edi. Meliev bilan xizmatdagina emas, ishdan so'ng yo ish oralarida palov suzilgan tovoq atrofida ham harvaqt birga bo'lishardi. Tergovchi ∞ Meliev bilan qachon tanishgansiz, u haqda fikringiz qanday? ∞ deb so'raganida ∞ Meliev ∞ O'zdavnashr ∞ partiya tashkilotida sekretar bo'lib turgan kezlarida ham, keyin ∞ Qizil O'zbekiston ∞ gazetasi redaksiyasining partiya hayoti bo'limida ishlab yurgan paytlarida ham, millatchi degan shanim borligiga qaramay, menga o'zini hamisha yaqin tutar edi. Haqiqat,adolat xotiri uchun etirof etishim kerakki, Melievdan, u bilan tanishganimizdan to Sovet Armiyasi safida chet elga o'tganimizgacha, biron ∞ antisovet ∞ gap eshitgan emas edim. Moskvada baxtli tasodif tufayli ko'rishganimizda ham faqat Toshkentdag'i sho'xliklarimizni, birga qilgan palovxo'rliklarimizni eslashdik ∞ , deb javob bergan edi. Meliev ∞ o'ldirsa ham osh o'ldirsin ∞ , deguvchi toifadan edi. Urushdan keyingi ulfatda ham hozir nozir bo'lgan bu do'st ∞ undirkomb ∞ degan hazil atamani eshitishi bilan xaxolab kulib, shu-shu tildan qo'ymaydigan bo'lgan edi. Elliginchi yil adog'ida qamoqqa olinguniga qadar ∞ Mirzakalon uchun hazil atama edi. Bu hazilning siyosiy atamaga aylanishi ham o'sha ayni ijodkorning ∞ xizmat ∞ ekanini dastlabki so'roqlar davrida u tasavvur ham qila olmas edi.

Qirq uchinchi yil oxiridagi o'sha quvonchli uchrashuvda biron bir folbin kelib, hali bu do'stingdan ham xiyonat ko'rasan, desa Mirzakalon uni ig'vogar va fitnachi deb bilib, urib tashlashi ham mumkin edi. Mirzakalonning omadi kulib, O'zbek sovet adabiyoti o'n kunligi bayramining oxirgi tadbirlarida ishtirok etish baxtiga erishdi. Birinchi uchrashuv kuniyoq Meliev uni qalam ahli joylashgan ∞ Moskvab ∞ mehmonxonasiga boshladi. Derazalaridan KremlKj, Lenin mavzoleyi ko'rinish turadigan mehmonxonada G'afur G'ulom, o'shlik do'sti Izzat Sulton, xonanda Karim Zokirov larning shirin ulfatiga qo'shilishdi. Mirzakalon suvdonidagi spiritni o'rta qo'ygach, ulfat yanada jonlandi. Meliev cho'ntagidan karta chiqargach, ∞ yigirma bir ∞ qimor o'yini boshlanib, hammaning diqqat-etibori o'rtadagi pulga qaratildi. Garchi o'yin, jiddiy qimor emas, hazil-huzul, do'stona tarzda bo'lsa-da, yutgan odam yutqizganga qaytarib berishi shartligi takidlanib turilsa-da, ehtiroslari haqiqiy edi. Mirzakalonning qo'li baland kela boshlagach, G'afur G'ulom ∞ Bu kapitan ikki qultum spirt quyib berib sho'rimizni qurityapti-ku? Izzat, Toshkentga piyoda jo'naymiz shekilli? ∞ deb kului. Mirzakalon yutib olgan pullarini o'rta qo'yayotganda Meliev G'afur G'ulomga qarab jilmaydi-da, erkalash ohangida xirgoyi boshladi:

Zumurrad chambar ichra qatra olmosdir qulog'ida,

Suman bargida shambnam aksidir, yo ko'z bulog'ida

Demam shabnam, qamar atrofida ziynatl kavkablar,

Iqomat tuzmish ul yulduz iki abru qirg'og'ida.

Karim Zokirov qo'shiq so'zlarini bilmagani uchun xirgoyiga qo'shila olmadi. Biroq, tek o'tirolmay, likopchani ogranicha chertib, jo'r bo'ldi. Bunday o'zbekona ulfatni sog'ingan Mirzakalon Melievga qo'shildi. San'at ishqisi unga otasidan o'tgan. Ismoilxo'ja dutor chertishda Andijonu O'shga dong taratgan edi. To'ntarishlar boshlangunga qadar Xolxo'ja jo'rabsoshi bo'lgan ulfatning bulbuli sanalardi. Xolxo'ja qo'liga qurol olgandan keyin ham ko'ngli tusagan kezları Ismoilxo'janı qarorgohiga topdirib kelardi. Chetga o'tib ketishda uni ham davat qildi, lekin ∞ deyishqon odamga chetda nima bor? ∞ deb Ismoilxo'ja unamagan edi. Turli ulfatlarga chorlanaverib joniga tekkach, oxiri dutorini bir urib sindirgan, shunday so'ng uning taronasini, xirgoyisini birov eshitmagandi. Garchi dutorni urib sindirgan bo'lsa-da, san'ati o'g'li Mirzakalonga, qizi Sanobarga o'tgandi. Ismoilxo'ja farzandlarining Toshkentda o'qib yurgan kezları havaskorlik sahnasida olqish olayotganlaridan bexabar edi. Mirzakalon KremlKj yonidagi mehmonxonada sarxush o'tirgan onda o'sha havaskorlik sahnasini, unda oqqush kabibi suzuvchi birinchi muhabbatı Hamidaxonni eslab, Melievga beixtiyor jo'r bo'la boshlagan edi. U qo'shilgach, Meliev jim bo'ldi. Mirzakalonning shirali ovozi Karim Zokirovni sehrlab, undan ko'zini olmadi. Mirzakalon davra ahlini maftun qilayotganini sezmay, ko'zlarini yarim yumib kuylardi:

Sharafli baxt erurim, har nafasda yor yuzin o'pgay,

Agar tun bo'lsa nozik halqlar ikki yanog'ida.

Hamisha men G'ulomiy sirg'aga sohib u dilbarning,

Necha kundirki, Chustiy ikki baldoqning so'rog'ida...

Qo'shiq nihoyasiga yetgach, Karim Zokirov likopchani doira kabi chertib, zavq bilan ∞ Do'st! Yash-shang, kapitan! ∞ deb qo'ydi.

G'afur G'ulom ham huzurlanib, tebrandi-da, ko'zlarini ayyorlik bilan qisib hazillashdi:

-Bu erotik sherni qaerdan kavlab topdilaring? O'zimning ham esimdan chiqiqib ketuvdi.

-Andijonda yozilgan sherni andijonliklar unutishmaydi,-dedi Mirzakalon quvlik bilan.

O'zaro hazil ohangini Izzat Sultonning keskin va jiddiy gapi bo'ldi:

-G'afur aka, siz bag'rikeng odamsiz. Lekin duch kelgan odam bilan mushoira qilishingiz yarashmaydi. В Ўзбекистонда төнгі билан бўлши керак. Mushoira qilgan shoiringiz sizday pokiza bir odamning shaniga balchiq chaplab qo'yishi mumkin.

Bu gapni eshitib, G'afur G'ulom qoshlarini chimirdi:

-В Ўзбекистонда төнгі билан бўлғани яхши. Lekin в Ўзбекистонда кенг дунёв бўлғи деган гаплар ham bor. Kengroq bo'lavering Izzatvoy.

Bu so'z olishuvi Mirzakalonga o'tkinchi gapday tuyulgan edi. Bu yerdan chiqishgach, Meliev uni yana bir xonaga boshladi. Xona sohibini в Ўзбекистон Respublika sog'lijni saqlash xalq komissari бўлғи deb tanishdirdi-da, в Ўзбек Академияси, Qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlanganiningizni eshitib, do'stimiz Mirzakalon sizni frontchi o'zbek jangchilari nomidan tabriklash uchun atay kelibdilar бўлғi, dedi. Mirzakalon bu kishini birinchi marta ko'rishi, yangilikni ham endi eshitishi edi. Shu bois bir oz gangib turdi-da, keyin sovuqqina qilib в Ўзбекистон Ha, tabriklaymiz, qutlug' bo'lsin бўлғi, dedi. Xona sohibini tanimasa-da, uning mehmonini yaxshi bilardi. В Ўзбек Академияси bilan uni turmaga tiqqan Fozilning Xalq komissari bilan kon'yak ichib o'tirishi uni lol qoldirdi. Fozil qizishib o'tirgani uchunmi yo Mirzakalonni ko'rib, eski xotiralar yukidan yuzi qizarib ketdimi, bilish mushkul edi. Mirzakalon ko'rishgach, undan sal naridagi bo'sh o'ringa o'tirdi. Fozil bir necha daqiqa boshini quyi solib o'tirgach, o'mridan qo'zg'olib, uning yoniga kelib, mehribonlik bilan hol-ahvol so'radi. Mirzakalon eski adovat, eski kek o'tini o'chirishga harakat qilib, yaxshi muomala qildi. Fozil uning ochiq-chochiq gaplasha boshlaganidan quvonib, Yozuvchilar soyuzi berayotgan ziyofatdan keyin в Ўзбек Метрополийи бўлғi mehmonxonasiga kelib, u bilan kechalashimi iltimos qildi.

Xalq komissarining ordenini в Ўзбекистон шиғарувчи бўлғi ziyofatida kon'yak bilan kayfni chog'lab, dahlizga chiqishganda Mirzakalon hamshahri Komilni ko'rmoqchi bo'ldi. Komil Yashin bilan Halima Nosirova qo'ngan xona eshigi ochiq edi. Mirzakalon asta taqillatishiga javoban ichkaridan в Ўзбекистон kiravering бўлғi, degan taklifni eshitib, hijolatsiz kirib keldi. Er-xotin qutilardagi mevalarni saralash bilan band edilar. Yo'lda urinib qolgan olma-yu, nok, anorlarni alohida ajratib qo'yishgan edi.

-Ziyofat quyuq bo'ladi shekilli?-deb hazil qildi Mirzakalon, ular bilan so'rashib olgach.

-Ziyofatmas,- dedi Yashin qaergadir shoshilayotganini yashirmay. В Ўзбекистон Halimaxonning ustozlarini bir yo'qlab qo'yaylik.

-Mirza aka, mevalardan oling, olmalarni sog'ingandirsiz?-dedi Halima uringan olmalarga ishora qilib. Xotinining lutfini amalga oshirish uchun Yashin qurtlab, ezilgan ikkita olmani olib do'stiga uzatdi. В Ўзбекистон Katta hurmat bilan qilingan bu mehmondorchilik бўлғi Mirzakalonga malol keldi:

-Men hamshaharlarni sog'inuvdim. Olma Ukrainada ham ko'p. Shirasi biznikidan qolishmaydi. Aytmoqchi, bu yil O'zbekistondagi mevalarga qurt tushib ketgan mish, deb eshituvdim. Tag'inam, omadingiz chopib, bitta-ikkita yaxshisini topibsizlar. Ustozingiz hursand bo'ladi.

Shunday degach, bu yerga kirganiga afsuslanib, sovuqlik bilan hayrashdi-yu, chiqdi. Yozuvchilar soyuziga azo bo'lgani uchun uyushtirilayotgan ziyofatga tortinmay bordi. Yurtdoshlari bilan chaqchaqlashib, sog'inch o'ti haroratini bir oz bo'lsa-da, pasaytirish ilinji bilan davraga qo'shildi. Ziyofatga oly maqomda tayyorgarlik ko'rigan edi. To'kin dasturxonni ko'rgan odam bir necha yuz chaqirim narida qirg'in bo'layotganiga, atrofda odamlar ochlikdan qaqshayotganiga ishonmasligi mumkin edi.

Bo'sh joyga o'tirgan Mirzakalon yonidagi odamni ko'rди-yu, yaqindagina G'afur G'ulom davrasida tilga olingen shoirga qo'shni bo'lishdan negadir yuragi g'ashlandi. Yozuvchilar, ayniqsa frontdagi adiblar oilasining moddiy taminotiga g'amxo'rlik qilishi lozim bo'lgan Adabiyot fondini boshqaruvchi bu shoirning xotinlarga shilqimligi ko'p qatori unga ham malum edi. Lekin urushgacha bo'lgan davr mobaynida ulfatchilik qilmagan, oralarida gap-so'z qochmagan edi.

Ko'ngil hech qachon aldamaydi, bu safar ham shunday bo'ldi. Yonma-yon o'tirgandan keyin gaplashish kerakmi в Ўзбекистон kerak!

Uyoqdan-buyoqdan gaplashdilar. Gap orasida Mirzakalon oilasini sog'inganini, bolalarini ko'rgisi kelayotganini aytdi. Shunda u shoir manodor qilib kulimsandi-da, yo mastlikdan yo bezbetlikdanmi dedi:

-Xotinlar u yoqda judayam sarg'ayishib qolgani yo'q, xursand qilib turibmiz...

Bu gapni eshitgan Mirzakalonning qoni miyasiga urildi, ko'zları g'azabli nafrat bilan yondi:

-Kimlarning xotinini xursand qilib turibsiz?-dedi qaltiraganini sezdirmaslikka tirishib. Shoir uning chovutga xezlangan qoplondek holatini sezmadni shekilli, oshkor tubanlik bilan:

-Umridan baraka topsin, Adham Rahmatning charosdek shiringina qayliqchasi bor ekan...

Bu haqoratlari so'zlar Mirzakalonning es-hushini oldi. В Ўзбекистон Biz, aziz bolalarimizni, sevgili xotinlarimizni tashlab, frontda ne-ne azoblar chekib yursagu, bunga o'xshagan bir to'da buzuqi eng razil pastkashlik bilan ovora bo'lsa?! Buzuqligi yetmaganday, o'z og'zi bilan frontchiga maqtanib o'tirsa?! В Ўзбекистон Shu g'azab o'tida o'zini yo'qotib, to'pponchasini qinidan qanday sug'organini, chap qo'li bilan shoirning yoqasidan olganini o'zi ham sezmay qoldi. To'pponcha tepkisini bosishga ulgurmadi. Uni tez ajratib oldilar. Mehmondorchilikda hurmatli kishilar ko'p edi. Ayniqsa to'rda o'tirgan general Sobir Rhimovning ajablanib qarashi Mirzakalonga tasir qildi. U o'tirganlarga vaziyatni tushuntira olmasdi. Qilgan tezligidan va etiborli joyda ko'targan xunuk janjalidan uyalib, ziyofatdan chiqib ketdi. Sovuq ko'chada bir oz dayib yurdi. Keyin kunduzi ichilgan spirt kayfi tarqab, Fozilning taklifini esladi-da, в Ўзбек Метрополийи бўлғi mehmonxonasi tomon yurdi. Fozil uni kutayotgan edi. Shu uchrashuv bahonasida o'tmisht dog'lari butunlay yuvib yuborish maqsadi bormidi, har holda, shohona bo'lmasa-da, ikki kishilik dasturxonni shay qilib qo'ygandi. Uning yozuvchilar ziyofati haqidagi savoliga Mirzakalon tayinli javob qilmadi. Noxush voqeani ham tilga olmadi. Buning o'rniya yaqinda VKP(b) azoligiga nomzod bo'lib qabul qilinganini aytdi. Fozil uni quchib, astoydil tabrikiali. So'ng ichish boshlandi. U uchrashuvdan Mirzakalon faqat shuni eslaydi halos. Alam bilan ichilavergach, qaysi es-hush egasiga itoat eta olarkan? O'shanda Fozil kelajakda yuqori martabalar kutayotganini bashorat qilgan edi, agar turmadagi bu xonada yakka-moxovdek kun ko'rish yuqori martabaga kirsa, demak, to'g'ri aytgan ekan.

В Ўзбекистон Dastasi o'zimizdan...в Ўзбекистон

Dastlabki so'roq kunlari tergovchini o'sha uchrashuv ko'p qiziqtirdi. Mirzakalon ichib, mast bo'lib qolishiga shoirning gapi sabab ekanini aya boshlaganida tergovchi uning yuziga bir tarsaki tushirib, gapini bo'lgan edi:

-Bu shoiringni menga pesh qilaverma. Uning kimligini yaxshi bilamiz. Besoqolbozligi uchun u boshqa yerda javob beryapti. Do'rmondagi bog'dan Toshkentga qaytishda Hamdamov ham o'sha shoirni otib tashlamoqchi bo'lgani ham bizga malum. Lekin biz bunaqa irkit ishlari bilan shug'ullanmaymiz. Bizga в Ўзбек Академияси do'sting bilan nimalarni gaplashganiningni aytib ber!

Bu shunchaki tahdidmi yo birontasidan chaquv bo'lganmi? Yo Fozilning o'zi eski hunaridan tonmay, to'qib-chatib yetkazganmi? Unda nimalarni to'qigan ekan? Uydirmanning manosini bilganida aytmagan gaplarini в Ўзбек Академияси deb iqrornoma yozib berardi. Endi nimani yozsin? Harbiy sirni oshkor qildim, desinmi yo в Ўзбекистон legionib бўлғi qochib qolishga davat qildimb бўлғi

desinmi?

Moskvadagi ham quvonchli, ham g'ashli kunlar ortda qolib, frontga qaytdi. Uning ko'ngli faqat bir narsadan hotirjam edi. Meliev bilan xayrlashayotganida tahririyatda bir o'zi qolib qiynalayotganini aytib b'ThAgar sizga ham chaqiruv qog'ozi kelayotgan bo'lsa, gazetamiz ixtiyoriga chaqirib olaylikmi? b'Th deganda Meliev bu taklifni quvonch bilan qabul qilgandi. Mirzakalon poezd-redaksiyasiga yetib kelishi bilan b'Th Krasnaya Armiya b'Th gazetasining Bosh redaktoriga taklifini yetkazdi. Mirzakalon bilan sinashta bo'lgan Potapov o'sha kuniyoq Front Siyosiy bo'limi orqali Melivni tahririyat ixtiyoriga chaqirtirdi.

Melievning kelishini kutib yurgan kezlarli, qish kunlarining birida gazetaning yangi sonini tayyorlab o'tirganida tibbiy xizmat kapitani kiyimidagi bir odam kirib kelib, o'zbekchalab salomlashdi.

-O-o, Mirzakalon, eson-omonom bormisiz? Ko'rishgan joyimizni qarang-a! Qor tizzadan, sovuq yelkadan,-deb chaqchaqlashib ko'rishdi.

Mirzakalon tanimagani bu kishiga odob bilan muomala qildi, uni b'Th Qizil Armiya b'Th redaktor o'rribosari bo'lib kelgan kishidir, deb o'yldi. Kapitan o'tirdi, ismini aytdi: Qodir Tohirov.

-Yusuf Tohiriyning avlodlaridan emasmisiz?-deb so'radi Mirzakalon, undan ko'z uzmay.

-Ha, men u kishining amakivachchalar bo'laman. Meni tanimadingizmi? Men esa sizni yaxshi taniyman.

Mirzakalon uni avval ko'rмаган edi. Shunga qaramay, Yusuf Tohiriyning qarindoshini o'ziga yaqin olib suhbatlashdi. Front orqa tomonida sanitarnazoratida xizmat qilayotgan Tohirov ertasiga ham keldi. Ikki-uch kundan keyin yana kelishga vada berib xayrlashdi-yu, biroq, vadasini bajarmadi. Urush sharoitida ixtiyori o'zida bo'limgan ofitserdan buning uchun gina qilinmaydi. Mirzakalon kutilmaganda uchrashib, tez ajrashgan yurtoshini ko'rish umidida yurdi. Oradan oyalar o'tib, front chizig'i Polsha yerlariga ko'chgan paytda Mirzakalonning o'ng qo'li o'z-o'zidan ishlamay qoldi. Tibbiy bo'limga murojaat qilgan edi, xastalik sababini asabdan deb bilib, Belya Podlyaskaga joylashgan gospitalga shoshqich ravishda jo'natishtdi. Davolanib yotganini birovdan bildimi yo'o'z ishi bilan gospitalga kelib, ittifoqo ko'rib qoldimi, haytovur Tohirov Mirzakalonning ro'parasida kutilmaganda paydo bo'ldi. Mirzakalon tug'ishganini uchratganday quvonch bilan ko'rishdi. Gospital yo'lkasida kezishib, uzoq gaplashdi.

Tohirov Cho'lponning ko'p sherlarini yod bilar ekan, ko'zlarini yarim yumib, hayajon bilan o'qidi.

Mening o'yimmi qora? Yoki yurt ko'kida bulut,

Quyuq bulut to'dasi qonli yosh to'kib yig'lar?

Mening bu xasta dilimni yana nechun tig'lar?

Menim-da ko'ksima boqmoqchi istar ul bir o't?

Bo'g'iq, qisiq bu ko'ngil kuchli o't bilan yonadir.

U o't orasida yurtning xayoli jonlanadir...

Satrarni o'qigach, bir zum tin oldi, xo'rsindi, so'ng dedi:

-Cho'lpon o'z nomiga munosib b'Th "yorug" yulduz, sheriyat olamida hamisha charaqlab turgan quyosh!

Mirzakalon so'z aytishga ulgurmay, u yana sher o'qiy boshladи. U Cho'lpon sherlarini o'qiganda, o'zi ham shoirday, so'z torining yuqori pardalariga ko'tarilar, so'ng esa fikrini bayon qildi:

-Cho'lpon Navoiy, Fuzuliy, Nizomiy kabi o'lmas, abadiy hayot shoirlari ichida bizga yana ham yaqin, biz uchun yana ham shirin, qadrondon, jonaqon shoirdir! Chunki u bizning qullik kunlarimizni buyuk hasrat, zo'r faryod bilan hardam yodimizga solib turgan, ozodlik yo'lida aziz jonini ayamay kurashga chorlovchi sozini qo'yagan ulug' insondir!

Mirzakalon Tohirovning qizishib, kuyikib aytgan so'zlarini batamom tasdiqlab:

-Shunday ulug' inson ketdi-ya!-dedi afsus bilan.

Bu tasdiq Tohirovning boshqa dardlarini oshib yubordi. Endi u boshqa millat fidoyilarini ham eslay ketdi:

-E-e, Cho'lponinam! Millat otaxonni Munavvar qori, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Botu, Elbek... bular qani? Qaysi yalmog'izga yem bo'ldi bular?

Oraga tushgan hayajonli qisqa sukunatdan keyin Qodir Tohirov achchiqqina kuldi-da, tishlarini g'ijirlatib dedi:

-Ruschasiga b'Th Po shuchKjemu veleniyub b'Th deganidek, b'Th o'mizb'Thning buyrug'i bilan o'ldirildi.

Tohirovning bu gaplarni qo'rmasdan ochiq aytishi Mirzakalonda b'Thbu odam maxsus bo'limning hufyasi emasmi? b'Th degan shubha uyg'otdi. Tohirov undagi bu o'zgarishni sezdimi, ayanch bilan jilmaydi:

-Menden havfsiramang, qo'rwmang,-dedi.- Sizning kimligingizni bilganim uchun dardimni to'kyapman. Agar dardimni to'kmasam yorilib ketishim kerak. Odam odamga ishonmasa... qanday zamon bo'ldi! O'lganimizda ichimizni yorib qarashsa, darddan irib-chirib ketganini ko'risharmikin? Osmoqning ustuni yo'qligi malum. Lekin millatning ustunlari bo'ladi. Bu ustunlar kesildi...

Mirzakalon, siz ularga yaqinroq edingiz. Nega kesildi bu ustunlar? Bir-birlarining ildizlariga bolta urdilarmi? Eshitganmisiz: bir o'rmonda bolta paydo bo'lib, daraxtlarni bir boshdan kesa boshlabdi. Shunda daraxtlar najot ilinjida qari emanga borib, maslahat so'rashibdi. b'Th Bolta deganlaring nimadan yasalgan? b'Th-deb so'rabdi qari eman. b'Th Temirdanb'Th, deyishibdi. b'Th Dastashi? b'Th, deb so'rabdi qari eman. b'Th Dastasi og'ochdanb'Th, deyishibdi. Shunda qari eman afsus bilan b'Th Dastasi o'zimizdan ekan, najotdan umid yo'qb'Th, degan ekan.

-Dastasi o'zimizdan bo'lganlar ham bor edi. Biroq, ulug'larimiz orasida nifoq bo'limgan. Ustoz b'Th Kecha va kunduzb'Thni menga o'qib berib fikrimni so'raganlarida hayajonlanib b'Th Qodiriyona yozilibdi b'Th, devdim. Shunda ustoz bosh chayqab, etiroz bildirdilar. b'Th Qodiriy qo'l uzatib yetib bo'lmaydigan yulduz, Xudo bunaqa ulug' zotni ulug' xalqqa necha yuz yilda bir beradib b'Th, deganlari hozirgacha qulog'im ostida jaranglab turibdi. Bir-birlarini bu qadar ulug'laydigan ulug' zotlar qo'llariga bolta oladilar, deb o'ylashlik xato. Ularning qo'llari bolta uchun emas, qalam uchun yaratilgan edi. Vazifalariga xiyonat qilmadilar.

Urushdan keyin Tohirov bilan Yusuf Tohiriyning uyida ko'rishishdi. Biroq, atrofda odamlar ko'p bo'lgani uchun dardlasha olmadilar. Faqat ko'z qarashlari bilan gospitaldag'i uchrashuvni eslagan bo'ldilar.

Urush yillari ko'ngilni ezadigan voqealardan tashqari xush yoqadiganlari ham bo'lgan. Lekin turmaning bir kishilik kamerasida o'tirgan Mirzakalon alhol bularni yodga olishga urinmaydi ham. Uning xayolini faqat tergovchini qiziqtirayotgan voqealargina band etgan. Tergovchi Tohirovga doir gaplar bilan ko'pam qiziqmadi. Demak, gospitaldag'i uchrashuv bayonini chetlab o'tsa ham bo'ladi. Balki, b'Th Yangi Turkistonb'Th jurnaliga ko'proq to'xtalgani maqulmikin? Lekin bu jurnalga tegishli mahfiy gap yo'q. O'sha kunlarning o'zidayoq malumot tegishli idoraga berilgan edi-ku?

Siyosiy bo'lim aralashgan ish bitmasdan qolmaydi - qirq to'rtinchi yilning erta bahorida Meliev front gazetasining tahririyati ixtiyoriga keldi. Yarim yil mobaynida katta front gazetasini bir o'zi chiqarib qiynalib ketgan Mirzakalonning yuki yengillashdi.

Meliev oshxo'rlikda tengsiz ulfat edi, biroq millat taqdiriga doir masalada hamfikr, hamdard emasdi. Shu bois, bu mavzuda sira gaplashmas edilar. Meliev tajribali gazetachi, sadoqatli komunist sifatida vazifasini alo darajada bajarardi. Polsha o'rmonzori yoqasidagi kichik bekatga joylashgan vagon-redaksiyalarida maqola yozib o'tirganida rus redaksiyasining rassomi Mirzakalonga bir jurnal va bir kitob uzatdi:

-Fashistlar tashlab qochgan yerto'lada yotgan ekan, nazarimda siz tushunadigan tilda yozilganga o'xshaydi, ko'ring-chi,-dedi u. Rassom keltirgan jurnal va kitob, haqiqatan, u tushunadigan tilda, yani vətən Türkistonchabəkkə yozilgan, nemis alifbosiga moslashtirib lotincha harflarda bosilgan edi. Bunday topildiqning o'zicha o'rganishi, qiziqlishi yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bilgani uchun Mirzakalon varaqlab o'tirmay, to'g'ri redaktori polkovnik Potapov huzuriga kirdi-da, rasmiy ravishda, harbiy chasiga voqeani bayon qildi. Potapov avval jurnalni, so'ng kitobni varaqlab ko'rgach, hech narsa tushunmagani uchun Mirzakalonga qaytarib, sinchiklab o'qib chiqishni va qisqa mazmunini rus tilida bayon qilib yozib berishni topshirdi.

vətən Yangi Turkiston vətən qırq to'rtinchı yılning iyulida Berlinda chop etilgan edi. Unda asosan milliy-siyosiy masalalar o'rın olgandi. Ularda Mirzakalonning ko'nglidagi gaplar yozilgan, haqiqat aks etgan bo'lsa-da, vətən xoinlari, bir to'da qoçqindi, Hitler yuvindixo'lari, sotqin millatchilar shaykasi tomonidan to'qilgan tuhmat satrlarib vətən, deb baholashga majbur bo'ldi. Rassom bu jurnal va kitobni yerto'ladan topib oldim, degani bilan Mirzakalon uning samimiyligiga ishona olmas edi. Front mahsus bo'limi uning vətən AQD vətən bo'yicha qamalganini biladi. Turli masalalarda bir necha marta vətən shirin suhbatgəvətən chorlagan. Yana bir fitna, bir ig'vo bilan sinab ko'rmaydi, deb kim ayta oladi? Shubhasizki, Mirzakalon yozib bergen bayon ularning qo'liga borib yetadi. O'rтada fitna bo'limgan taqdirda ham, ular jurnal bilan kitobni boshqalarga ham ko'rsatadilar va ikki (yoki uch) fikrni taqqoslab o'rganadilar.

Kitob vətən Ravshan vətən imzosi bilan yozilgan voqeiy hikoyalar to'plamidan iborat edi. Mirzakalonga yozuvchining uslubi tanishday tuyuldi. Bu tahallus ham unga yangilik emasdi. Bu borada bir fikrga kelishga ikkilanib turganida Meliev safardan qaytdi. Jalolov janggohga qilgan safaridan qaytgan kezleri jangchilarining ahvoldidan ezilib gapivardi. Meliev esa uning aksi, safar taassurotlari ko'tarinki ruhda bo'lardi. Yozgan maqolalari ham shu martabada edi. Meliev bu gal ham odatiga xiyonat qilmadi. O'zbek jangchilarining qahramonlik namunalari ko'rsatayotganini jo'shib gapiirdi. Mirzakalon o'zbek jangchilarining mardligini hech qachon inkor qilgan yoki gumon ostiga olgan emas. Yuzlarcha o'g'lolarning qahramonlik martabasiga lozim ko'rildigi hazilakam gap emas. Uning o'zi ham yozgan maqolalarida bu botir o'g'lolarni samimiyligiga tarzda olqishlagan. Janggohlarda sodir bo'lib turadigan adolatsizlik esa qalbiga tikandek sanchilganicha qolavergan. Jalolov bilan bu haqda goh-goh dardlashib turardi. Biroq, vətən Bedardning oldida boshimni og'ritməvətən, degan hikmatga amal qilib, ulfati Meliev bilan bu masalada so'z yuritishga ko'ngli bormasdi.

Meliev taassurotlarini muxtasar qilgach, stol ustida turgan jurnal bilan kitobga diqqatini qaratdi. Jurnalni olib varaqladı, qaerdan va qanday kelib qolganini so'rab bilgach, kitobni o'qishga kirishdi.

Bu onda Mirzakalon karavotiga chalqancha cho'zilib, qo'lini boshiga bolish qilganicha o'yga toldi: xuddi shu yerda bir necha kun avval uning vatandoshlari bo'lishgan. Mirzakalon ularni ehtimol tanir. Ehtimol, urushdan oldin qaerdir qaysi biri bilandir choy ichishgandir. Endi urush tarozusining bir pallasida o'zi, boshqa pallasida esa vətən Ravshan vətən deb imzo chekuvchi adib turibdi. Mirzakalon hamisha millat ozodligini orzu qilgan. Lekin bu orzuga yetishmoq yo'lini bilmagan. vətən AQD vətən tufayli qamalib chiqqach, singanday bo'ldi, ammo qalb to'ridan o'rın olgan orzusidan voz kecholmadi. Garchi tomirlarida siyosatchi qoni oqmasada, har bir masalaga ijodkor sifatida ehtiros bilan baho berib, qiziqqonlik bilan xulosa chiqarsa-da, urushga kelgach, adolat qay tomonda ekanini farqlay oldi. Yuz minglab o'zbek o'g'lolarni yurak qonini to'kayotgan kundarda, ota yurtda millionlab yurtdoshlari qon qusib ishlayotgan kezlarda bu urush sababchisi fashizmni yoqlashi mumkin emasdi. Fashizmda o'z millati ozodligini ko'rish nodonlik ekaniga allaqachon iymon keltirgandi. U bir tobelikni ikkinchi tobelik bilan almashtirishni emas, chinakam yurt ozodligini orzu qilardi.

Meliev kitobni bosh ko'tarmay o'qib chiqdi-da:

-vətən Ravshan vətən kimligini bildingizmi?-deb so'radi.

Mirzakalon vətənmen bilolmadim, bilsangiz ayting vətən, deganday qarab qo'yi.

-vətən Ravshan vətən deganlari urush boshlaridayoq bedarak bo'lib ketgan xorazmlik shoir Matyoqub Abdullaev bo'ladi,-dedi Meliev, katta bir kashfiyat qilib shodlangan odam kabi faxr bilan.

-Gapingizning ohangidan bunga ishonchingiz qat'iyga o'xshaydi. vətən Osobist vətən ga buni isbot qilib berish kerak,-dedi Mirzakalon qaddini ko'tarib.

-Isboti qiyin emas. Matyoqub urushdan avval shu tahallusda vətən Mushtumb vətən ga maqolalar yozib turardi. vətən Ravshan vətən aynan Matyoqub ekanini mana bu to'plamdag'i Majidiy haqida yozilgan hikoya ham tasdiq etadi. Matyoqub Majidiyning yaqin o'rtoq'i edi. Majidiyning qamoqqa olinishida ishtirok etgan bo'lsa ajab emas.

Meliev hech qanday kashfiyat qilmadi, faqat Mirzakalonning tahminini tasdiqladi xalos. Mirzakalon tuni bilan o'tirib, Potapovning vazifasini bajardi: nonushtadan so'ng tahlil bayoniga qo'shib kitob bilan jurnalni ham topshirdi. O'z vagoniga qaytganida Meliev safarda to'plagan malumotlari asosida maqola yozishni boshlagan edi. Mirzakalon kirkach, unga o'girilib qarab so'radi:

-Redaktor nima dedi?

-Nima derdi? Darrov maxsus bo'limga jo'natdi. Unga bosh og'rig'ining nima keragi bor? Bosh og'rig'i, og'aynijon, bizga atalgan. Erta yo kechi bilan indinga vətən Osobist vətən bilan uchrashuvga tayyorlanaverdi. Yo birontasi keladi yo chaqirtirishadi. Chaqirtirishsa bilingki, masala jiddiy. Bu yedagilar, shunday hol yuz bersa, yo'lga otlanishganda ehtiyotdan xayrlashib, so'ng ketadilar. vətən Osobist vətən boshida nima gap, qanday reja borligini hech kim bilmaydi. Agar sizni chaqirib qolishsa, Matyoqubni tanimasligingizni aytganingiz durust.

-Men communistman, to'risini aytaman. Menga balo ham urmaydi. U bilan oshxo'rlik qilmaganman, xiyonatiga ham sherik emasman. Undan nafratlanaman.

Mirzakalon buni eshitib, urushdan avvalgi ulfatchiliklarda Meliev tez-tez takrorlashni yaxshi ko'radigan gapni esladi. Osh suzib kelingach, Meliev laganga qo'l uzatishdan oldin vətən Kommunistchasiga ishlaymiz va kommunistchasiga oshalaymiz vətən, deb qo'yardi. Buni hazil deb qabul qilishsa-da kulishmas edi. Melievning hozirgi gapi undagi ohangdan ancha farq qilardi.

-Bu gapingizga men yuz foiz ishonaman. vətən Osobist vətən ham ishonar, deb umid qilishdan o'zga choram yo'q,-dedi Mirzakalon. Meliev uning bu haqda gaplashish istagi yo'qligini sezib, ishini davom ettirdi. Besh-o'n satr yozgach, to'xtab, yana Mirzakalonga o'girildi-da, voqeiy hikoyalarning badiiy saviyasi haqida gapira ketdi. Mirzakalon uni diqqat bilan eshitgach, fikrini lo'nda va

qisqa bayon qilib qo'yha qoldi:

-Asarning tili til emas, tili kesilgan kishining duldirashi. Chulchut tili bundan alo!-dedi.

-Siz yozuvchi ko'zi bilan o'qib, tanqid qilyapsiz. Lekin oddiy o'quvchi siz ko'rgan kamchiliklarni sezmaydi ham. Uning uchun tasvirlangan voqealari muhim, aytilayotgan gap muhim.

-Agar tasvir go'zal bo'lsa, gap ifodasi yoqimli bo'lsa o'quvchi ham unga ko'ngil qo'yadi. Chulchit tilidagi bayonni esa bir marta o'qisa o'qir, keyin ko'ngli aynib qaramay qo'yadi. O'quvchini didsizlikda ayblamang. Siz osh damlashga uquvsiz bo'lsangiz ham palovxonto'raning sifatini yaxshi ajrata olasiz. Tuzi past yoki sho'r bo'lsa, piyoz qizimagan yog'da qovurilgan bo'lsa, ishtaha bilan yermikinsiz?

Mirzakalonning bu o'xshatishi maqul kelib, Meliev xaxolab kulib yubordi. Keyin yana o'z fikriga qaytdi:

-Ammo, baribir b'TuQizil shapkalarib Tuk bilan b'TuMo'ylovli kishib Tukni boplapti, qizitaloq!-dedi faxr bilan.

Darhaqiqat, b'TuQizil shapkalarib Tuk hikoyasida Rahmat Majidiyi qamashga kelgan GPU xodimlariga nisbatan qizaloqning nafrati tasirli bayon etilgan edi. Mirzakalonga kitobdagisi boshqa hikoyalar ham yoqqan edi, lekin Jalolov ogohlantirganiday, devorlari b'Tuqulqoqb Tukdan iborat bo'lган bu vagonda hatto ishongan do'sti bilan ham ochiq gaplashishni istamayotgandi.

Ravshanning ijodi haqidagi gap bir suhabat bilan yakun topmadi. Meliev bu haqda tez-tez gap qo'zg'ab, oqibatda Mirzakalonda shubha uyg'otdi. Ikkovlon jurnal va kitobdagisi b'TuZavqiyub Tuk, b'TuBoqizodab Tuk, b'TuOber-leytenant Bek Olmonb Tuk imzolarining egalari kim ekanini aniqlay olmadilar.

Bir kuni Meliev vagonga xursand holda kirib kelib, xushxabar aytdi:

-Mendijetska artistlar kelishibdi. Bir doirachi bilan bir xuriliqo raqqosa o'zimizdan ekan. Men ularni taklif qilib keldim. Ziyofat sizning yelkangizda.

-Shu yerda kutamizmi?-dedi Mirzakalon ajablanib.

-Be, bu yerda bosmaxona buyog'ini xidlab ketishadimi? Oshnangiz Kazimir bilan gaplashib ko'rmaysizmi? Kechagi kungi o'tirishimiz juda-a jonon bo'lувди-da!

Meliev chindan ham Kazimirning uyidagi ziyofatda yayrab-yashnagan edi. Mirzakalon shu shaharlik baqqol Kazimir bilan oq baton non sotib olish bahonasida tanishgan edi. Asli Brest shahridan bo'lган bu odam nechundir batonxo'r mijoz Mirzakalon bilan chiqishib qolgandi. Hamshaharlarni durustroq mehmon qilish maqsadida Mirzakalon Melievning taklifiga ko'ndi. Ikki litr spirt olib Kazimirnikiga bordi. Zarur ishi bo'lмагани uchun Meliev unga ergashdi. Kazimir Mirzakalonning iltimosini ortiqcha gap-so'zsiz qabul qilib, ziyofat tayyorgarligini boshlab yubordi. Mirzakalon keltirgan spirtga saryog', sut, qant aralashtirib xushxo'r ichimlik tayyorladi. Ichimlik totli tuyulib, Meliev mehmonlar yetib kelgunicha sarxush bo'lib oldi.

Dasturxon tarofida o'tirganlarida Kazimir Mirzakalonidan:

-Stalin LKjovoni bizga qoldirmay olib qo'yarmikin?-deb so'radi.

Mirzakalon javobga taraddudlandi. Aslida javobni o'ylab topishga hojat yo'q, bu haqda matbuot tinmay yozayotgandi: b'TuSovet hukumatining beg'araz siyosati, polyak xalqini pilKjsudchi-mikolaychikchi burjua reaksiyonlerlar zulmidan, fashizm qulligidan ozod qilish uchun jang maydonlarida aziz qonlarini to'kib, Yevropa xalqlariga, shu jumladan, slavyan polyak xalqiga ham ozodlik, mustaqillik, hur va erkin hayot keltirayotgan Sovet Armiyasining xolis, olijanob niyatib Tukni aytib, kutilmagan suhabat mavzuiga yakun yasashi mumkin edi. Lekin Kazimir bu gaplarni har kuni eshitaverGANI uchun boshqacharoq tushuntirish yo'llini o'ylab turganda Meliev suhabatga qo'shildi:

-Hali LKjovov ekan-u, kerak bo'lsa butun Polshani ham oladi-qo'yadi!-dedi tomdan tarasha tushgandek qilib.

Bu gapdan seskanib ketgan Kazimir, oldidagi likopni nari surib to'ng'illadi:

-Nima, Sovet Ittifoqida shahar kammi? Bitta LKjovoni qoldirsra nima qilibdi?

Yana Meliev gapni ilib ketdi. Yo'q, LKjovov shahrini aslda ukrain shahri ekanini, uni polyak shlyaxlari bosib olganlarini, hozir shaharni asl egalari b'Tu ukrainlarga qaytib berish to'g'ri bo'lajagini uqtirmadi, aksincha, Mirzakalon kutmagan gapni aytdi:

-Hali shoshmang, sizning Polshangizga ham bizning O'zbekistonning kuni tushadi!

Melievning gapi tugaraqmas, Kazimirni xotini chaqirib, chiqib ketdi. Mirzakalon Melievga manodor qaradi va dudmal qilib shunday dedi:

-Xo'b gap qildingiz-da!

Bu zohiran: b'TuBemani gap qilding! b'Tuk degan manoni bildirsa ham, zamirida b'Tuuyaxshi gapirding b'Tuk degan manoni kavlab topish ham mumkin edi. Oradan bir necha yil o'tib, hibsga olinganda bu gap aynan millatchilik libosida yetkazilishini Mirzakalon u damda o'ylab ham ko'rmangan edi. U bir muammoga javob topa olmadi: u suhabatda uch kishi ishtirot etgan edi. Kazimirning GPUga axborot bermog'iga aql bovar qilmaydi. Millatchilik ruhidagi o'sha gap Melievning og'zidan chiqqan edi. Agar o'sha suhabat bayonini Meliev yetkazgan bo'lsa, o'zini o'zi millatchilik sirtmog'iga ro'para qilishida qanday mano bor? Bunga ham kishining aqli bovar qilmaydi.

O'shanda Kazimirning ko'ngli ozor chekkan bo'lsa ham, sir boy bermay, mehmonlarni chiroyl kutdi. Faqat xayrlashar mahalida boshqalarga sezdirmay Mirzakalonga shipshib qo'ydi:

-Mirdza, siz istasangiz har kuni keling, biroq, bu do'stingizni bundan keyin yoningizga olmang. Men gap ko'tarolmaydigan odamman, biron nima deb qo'yib, tilimning balosiga qolib yurmayin. Agar xohishingiz bo'lsa, mayli, pan Garif bilan keling, qarshiligidim yo'q.

Mirzakalon Kazimirning havotirini tushungani uchun gapni cho'zmadi. Ertasiga G'arif Galiev bilan birga safarga chiqib ketdi.

Yo'lida ketaturib Kazimirning taklifini aytib b'TuSiz unga yoqib qolibsiz, safardan qaytganimizdan keyin ziyofatiga boramizb Tuk, deb qo'ydi. Tatar tilida chiqadigan gazetaning harbiy muxbiri bilan birgalikda to Varshava bo'sag'asiga qadar birga bordi. Safarlar qariyb ikki oyga cho'zildi. Janggohda o'q do'llari tingan mahalda ularning ish faoliyatlarini boshlanardi. Jangda horib, tolgan askarlar bilan suhabatlashib, gazetada elon qilinadigan maqolalari uchun malumotlar to'plar edilar. Polsha qishloqlari va shaharlarida yurganlarida, G'arifning yotishdan avval bir narsani olib, uni poxol orasiga yoki eski latta-luttalar orasiga yashirishi, ertalab esa yana olib, cho'ntagiga avaylab solishi Mirzakalonni ajablantirdi. Shu paytga qadar u G'arif bilan birga ko'p yurgan, biroq, bunaqa sirli harakatiga sira guvoh bo'lмагани edi. Mirzakalon uning bu g'ayritabiyy harakatini bir necha marta kuzatgach, oxiri Visla daryosi sohilidagi bir polyak dehqonining hovlisida yotganlarida b'TuG'arif, poxol orasiga nima yashirdingiz? b'Tuk deb so'radi.

G'arif bu savoldan gangib, nima deyishini bilmay, shoshib qoldi. Keyin hechnima berkutmaganini aytdi. Mirzakalon uning yashirgan joyini ko'z ostiga olib qo'yan edi. U hamroxi yashirgan narsa biron sevganining suratidir, deb gumon qilgan, uning

This is not registered version of TotalDocConverter

go'zal chenasi uchun nazarlashtirilgan edi. Ushuning ko'zini shamg'alat qilib, yashirilgan narsani poxol orasidan oldi.

Baribir topolmaydi, degan ishonch bilan hotirjam yotgan G'arif sapchib o'rnidan turdi-da:

-Nega birovning narsasiga tegasan! Qo'y, bu sen o'ylagan narsa emas, kandidatskiy knijkam!-dedi ranjib.

Mirzakalon uning gapiga ishonmay, qog'ozni oy yorug'iga tutib qaradi: to'g'ri aytibdi, yashirgan narsasi uning VKP(b) az'oligiga nomzodlik daftarchasi edi.

-Partiyaning daftarchasini bunchalik avaylash kerakligini bilmas ekanman. Meniki cho'ntagimda turibdi,-dedi Mirzakalon uning bu qilig'iga tushunmay.

-Ey Mirza, aqlli odamsan-u, lekin bazi narsalarni tushunishda onging xiralik qilib qoladi,-dedi G'arif daftarchasini uning qo'lidan olib.-Bu yerlearning odamlariga ishonib bo'ladimi? Slavyan deganlari bilan bular ruslarni nemislardan ham battar yomon ko'radilar. Ruslar qancha yillar bosib yotdi bularni axir? Avval oq podsho ezgan edi, endi qizil podsho ezadi deb qo'rqaqdarlar. Kechasi bizlarni qo'qis bosib qolishsa, cho'ntagingdan partiya biletchi qoldimi, tamom, o'ldirmasdan qo'yaydilar. Yonimdan bu palakat chiqmasa, b'hy'men rus emasman, aksincha, men-da sizlar kabi ruslar oyog'i ostida ezilib kelgan tatar molayib. deb qutulib qolishim mumkin. Daftarchani nega berkitishimni endi bildingmi? Esingni ishlatib, senam men qilgan ishni qilaver.

Mirzakalon uning qo'rqaqdaridan kuldil. Har qadamda ajalning soyasida yurgan odamning o'limdan qo'rishi chindan ham kulgili hol edi.

Safar chog'i qog'ozga tushgan b'hy'Ozodlik gulini hidlagan kishib. degan ocherkini G'arifga o'qib berganda u chuqur o'yga toldi. O'zbek yigitining qahramonligi madh etilgan satrlar unga tasir etgan edi. Biroz mulohaza qilib ko'rgach, u tilga kirdi:

-Yaxshi yozibsan, chindan ham ozodlik holida jon berish kishiga yarashadi. Men ham berar edim, lekin bizda ozodlikning o'zi bormi?- u bir oz tin olib o'z savoliga o'zi keskin javob qaytardi:-Yo'q! Mutlaqo yo'q. Endi kim uchun jon berishim kerak? O'ruslar uchunmi? Yo'-o'q!.. Mening jonimsiz ham tatarlarning jonini olib bitirdilar. b'hy'Tataristonb'hy desalar kulgim keladi. Qayda o'sha Tatariston?!

-To'g'ri aytasan. Tataristonning oti qoldi-yu, o'zi qolmadi,-dedi Mirzakalon uning so'zlarini quvvatlagan bo'lib. Keyin savol berdi: -Tatariston nega bu holga tushdi?

-O'zbekiston ham,-deb G'arif aniqlik kiritib, savolni Mirzakalonning o'ziga qaytardi.

Mirzakalon javob berishi mumkin edi. Bu haqda uzoq yillardan beri o'ylayverib, istibdod sababini izlagan, o'zicha to'g'ri javoblar topib qo'ygandi. Shulardan biri b'T " b'hy'Bizlarda Arturlar yo'qb'hy, degisi kelardi. Voynichning b'hy'So'nab'hy romanini rus tilida dastlab o'qigandayoq xayoliga shu fikr kelgan edi. U o'zini Artur martabasida ko'rishni istardi. Birinchi muhabbatni Hamidani esa Jemmi timsolida ko'rardii. Agar irodasi, jur'ati, botirligi Artur qadar bo'lganda edi, Hamida ham Jemmi kabi bo'la olardi, shubhasiz. Arturdagi ozodlikka intilish tuyg'usini o'zbek yigitlari qalbiga ko'chirish maqsadida asarni tarjima qila boshladii. Yonib-yonib, o'rtanib-o'rtanib, jo'shib-jo'shib, yig'lab-yig'lab tarjima qildi. Siyodan qog'ozga ko'chayotgan har bir harf, har bir belgi orzu-umid yomg'irining hayotbaxsh tomchilari kabi tuyulardan nazarida.

Hozir G'arifga b'hy'Arturlar yo'qb'hy, degani bilan bu hamkasbi uning niyatini anglay olmasligi mumkin edi. O'z joni shirin ko'rinish, qo'rqaqdan partiya daftarchasini berkitib yurgan odam Arturing shijoatini his qila olmasligi aniq. Vatani haqidagi balandparvoz gaplari esa bir necha daqiqada so'nadigan ojiz tuyg'udan boshqa narsa emasligini Mirzakalon tushunib turardi. Shu bois gapni ko'paytmasdan b'hy'Men bilmaymanb'hy, deb qo'ydi.

Shu bilan ularning ozodlik haqidagi gaplari nihoyasiga yetdi. Garchi Mirzakalon G'arifni quvvatlagan bo'lsa-da, fikriga etiroz bildirgisi ham kelgandi. Bu urushning ruslarni himoya qiluvchi urush emasligini, dunyo taraqqiyatining kuchlari qonli fashizmga qarshi birlashganlarini aytish bilan G'arifning g'ashini keltirishini bildi. Ivan Grozniy davridan beri istibdod iskanjasida yashagan xalq vakilining dardini huddi shunday iskanjada yashagan qarindosh xalq vakili tushunmasligi mumkinmi? Bu haqda uzun kechalar mijja qoqmasdan dardlashsa arziydi. Ozodlik yo'lidi o'g'onlar haqida fikrashish, bahslashish ham mumkin. Chorak asar muqaddam ozodlik eshigi ochilay deb turganda xalqni birlashtirib, oyoqqa turg'izishi lozim bo'lgan ziyoli ahlining o'zlarini birlasha olmay, ittifoq qila olmay erkni qo'lidan bergenlarini qalb azobi ila eslash ham mumkin. Lekin hozir buning o'tni emas. Garchi G'arif bilan ko'p vaqtlar birga safarlarda bo'lsa-da, uning ichida xalq dardi bormi yo do'st ko'ksiga zahar soluvchi ilonmi b'T " aniq bilmaydi. Hozirgi g'amli so'zlar dardli yurak nolasimi edi yoki o'sha ilonning ovozimi? Bunisi ham unga qorong'... Poezd-redaksiya Ovruch shahri yonidagi o'rmonda turganida o'zbek tahririyatiga b'hy'Qizil Armiyb'hy gazetasining muharrir o'ribbosari bo'lib kapitan Yo'lchiev keldi. Bu Uzoq Sharqda yopilgan b'hy'Trevogab'hy nomli o'zbekcha front gazetasining muharrir o'ribbosari edi. Mirzakalon u gazetanining frontlarda chiqadigan o'zbekcha gazetalar orasida eng savodsiz, eng qoloq gazeta ekanini Moskvadagi kengashmada eshitgandi. Maruzachi gazetanining kamchiliklarini aya turib b'hy'har qanday tanqiddan tubanb'hy, deb takidlagandi. O'sha gazetani chiqargan muharrir o'ribbosarining o'ziga boshliq bo'lib kelishimi Mirzakalon malol oldi. Stalingrad bo'sag'alaridan to Germaniya chegarasigacha bo'lgan yo'lida gazeta tashvishlarini o'z yelkasida ko'tarib kelishiga qaramay, faqat VKP(b)ga azo bo'limgani uchun surib tashlab, o'rniga qariyb chalasavod odamni qo'yishlarini adolatsizlik deb bilsa-da, dardini ichiga yutdi. Partiyaning bu adolatsiz siyosatiga qarshi bo'lgani bilan,adolat talab qtligan taqdirda ham hech nimaga erisha olmasligini yaxshi bilgani uchun tili tish hatlamadi. Urush Germaniya chegarasidan o'tgan kunlarda tahririyatga Ilyosov ham qo'shildi. Chalasavodlik masalasida u Yo'lchievdan batarroq bo'lgani sababli, gazetanining asosiy ijodiy ishlari baribir Mirzakalon bilan Melievning zimmasida qolaverdi.

AvvalgiI- qismB Keyingi

b'hy' Olamlarning robbisi Allohga hamdlar va shukurlar, olamlarga rahmat etib yuborilgan zotga salovat va salomlar bo'lsin.